

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAYLIYEVA ZARINA RAXMIDDINOVNA

**NAVOIYSHUNOSLIKDA TASAVVUF VA BADIYAT
MUAMMOLARI TADQIQI
(Ibrohim Haqqul ijodi misolida)**

(Monografiya)

Toshkent – 2024

KBK: 87.372(5Ўзб) S-14

UO'S: 385.375.623.24

Monografiya: Z.R.Sayliyeva, 2024-yil, B 124.

Monografiyada navoiyshunoslik ilmi bilimdoni adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqulning navoiyshunoslik va tasavvuf borasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan xizmatlari yoritilgan. Jumladan, olimning “Kamol et kasbkim”, “O‘zbek adabiyotida ruboiy” kabi yirik tadqiqotlarini o‘rganish orqali hazrat Navoiyning ruboiy, qit’a janrlarida yozilgan she’rlari tahlillaridagi falsafiy teranlik va mantiqiy izchillikka asoslangani yoritilgan.

Mas’ul muharrir:

Murodov G‘ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Kurbaniyazov Maxsud Allambergenovich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Sodiqova Dilorom Tursunovna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)
Buxoro davlat universiteti dotsenti

Texnik Muharrir:

Shoirkbek Sunnatillayev

- © Sayliyeva Zarina Raxmuddinovna
- © ISBN 978-9910-744-22-8
- © Fan Ziyosi - 2024
- © Duna poligraf xususiy korxonasi

MUNDARIJA

KIRISH (ISHNING UMUMIY TAVSIFI)	4
I BOB. Olimning navoiyshunoslik faoliyati va talqin ranginligi	8
§1.1. Mumtoz adabiyot va hazrat Navoiy ijodi tadqiqotchisi	8
§1.2. Alisher Navoiy ruboiylari Ibrohim Haqqul talqinida.....	21
§1.3. Qit'a : g'oya va talqin.....	32
Ibob bo'yicha umumiy xulosa.....	49
II BOB. Olimning tasavvuf adabiyoti muammolari tadqiqida mahorat qirralari	50
§2.1. Adabiyotshunos ishlarida tasavvuf tadqiqi	50
§2.2. Olimning so'fiy shoirlar ijodi haqidagi ishlarida hazrat Navoiyga murojaat... ..	61
§2.3. "Navoiyga qaytish" asarida tasavvufga munosabat	71
II bob bo'yicha umumiy xulosa.....	88
III BOB. Navoiyshunosning fikr aytish mahorati, ilmiy merosining lingvopoetik va uslubiy jihatlari.....	89
§3.1.“Zarjirband sher qoshida” kitobida fikr aytish mahorati	89
§3.2.Olim ijodiga xos lingvopoetik va uslubiy xususiyatlar.....	100
III bob bo'yicha umumiy xulosa.....	110
UMUMIY XULOSA.....	112
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	115

Ushbu kitob ustozim filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqulning porloq xotiralariga bag‘ishlanadi.

Muallif

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida nafaqat badiiy ijod namunalari, shuningdek, taniqli tadqiqotchi-olimlarning ilmiy merosi, ularning ilmiy-nazariy ishlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ilm vakillari ijodida mahorat masalasi ham muhim o‘rin egallab kelmoqda. Adabiyot ilmi namoyandalari yaratgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarni muayyan muammolar asosida o‘rganish mazkur fan sohasining o‘ziga xos jihatlari, estetik tafakkur darajasini aniqlashga imkon bermoqda. Zamonaviy dunyoqarash, fan taraqqiyotiga innovatsion yondashuv ana shunday izlanishlarga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatyapti.

Dunyo adabiyotshunosligidagi bunday tamoyillar milliy so‘z san’ati ilmida ham namoyon bo‘lmoqda. Undagi jiddiy sifat o‘zgarishlari birinchi navbatda Mustaqillik yaratgan imkoniyat va ko‘lamdor islohotlar bilan uzviy bog‘liq. Yangicha tarixiy shart-sharoitlar va imkoniyatlar natijasi sifatida fanning barcha sohalari singari o‘zbek adabiyot ilmida ham jiddiy evrilishlar kuzatilmoqda. Xususan, adabiyotshunoslik taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan allomalar, taniqli tadqiqotchilar ilmiy merosini o‘rganish borasida sa’y-harakatlarning faollashuvi ro‘y berayotir. Bunday xildagi tadqiqotlar adabiyotshunoslikdagi rivojlanish bosqichlarini va taniqli olimlarning faoliyatini oydinlashtirishga imkon yaratmoqda.

Yurtimiz uzra Mustaqillik shabadasi esayotganiga ham, mana, o‘ttiz yildan oshdi. Istiqlolga erishgan xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari, tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortmoqda, vatanimizni har sohada butun jahon tan olmoqda. Donishmandlar qoldirgan moddiy va ma’naviy meros nafaqat o‘z xalqimiz, balki butun jahon xalqlari tomonidan ham tan olingan. O‘rinli ta’kidlanganidek, “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va

iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”¹. Shunday ekan, Sharq xalqlarining, jumladan, o‘zbek xalqining huquqiy, axloqiy, tarbiyaviy madaniyatining poydevori nihoyatda pishiq, ildizlari mustahkam ekanligiga shubha yo‘q.

Dunyo adabiyotshunosligida tasavvufiy adabiyot muammolari H.Ritter, L.Massignon, J.Trimingem, A.Shimmel, A.Zarrinko‘b, A.Jo‘shon singari adabiyotshunos va sharqshunoslар tomonidan o‘rganilgan². Poetika va badiiy mahorat masalalari Aristotel, Shams Qays Roziy, Atoulloh Husayniy, M.M.Baxtin, L.G.Prigojina, A.N.Veselovskiy, A.A.Potebnya³ singari yirik olimlarning ishlarida monografik aspektida tadqiq etilib, poetika muammolari adabiyot nazariyasi mezonlari doirasida o‘rganilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida sobiq ittifoq yillarida ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy ijodi misolida uning poetik mahorati masalasi A.Sa’diy, A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, A.Rustamov, Y.Is’hoqov singari olimlar tomonidan teran tadqiq etilgan bo‘lsa-da, biroq Navoiy she’riyatining tasavvufiy mohiyati to‘la ochib berilmadi⁴. Istiqlol yillarida tasavvuf va mumtoz sharq poetikasi, badiiy mahorat masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, B.Valixo‘jayev, A.Hayitmetov, N.Komilov, R.Vohidov, H.Ne’matov, I.Haqqul, S.Hasanov, M.Muhiddinov, M.Imomnazarov, A.Abduqodirov, D.Salohiy, N.Jabborov, S.Olimov, N.Jumaxo‘jayev, Sh.Sirojiddinov, Sh.Hayitov, K.Mullaxo‘jayeva, U.Qobilov, U.Jo‘raqulov, D.Yusupova, H.Eshonqulov, N.Bekova, M.Rajabova, N.Bozorova, Z.Mamadaliyeva, Z.Amonova, O.Davlatov, M.Asadov, R.Jumayev, Z.G‘afforova kabi adabiyotshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari, asarlari bunga misol bo‘la oladi⁵.

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги «Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади» мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

² Хорижда тасаввуф таълимотининг ўрганилиши. Талқин ва таржималар муаллифи Исмоилов К.– Тошкент: “Mumtoz so’z”, 2008. – 98 б.

³ Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 152 б. Шамси Қайс Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе: “Адиб”, 1991. – С. 332; Ҳусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Форс. А.Рустамов тарж. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б., Пригожина Л.Г. Проблемы поэтической драмы и советский театр рубежа 1920-1930 х годов. Учебное пособие. – Л., 1991. – 74 с. Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – 224 с. Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1990. – 299 с., Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва: Искусство, 1976. – 614 с.

⁴ Қаранг: Саъдий А. Символизм тўғрисида. – Тошкент: Ўздавнашр, 1932; Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1963. – 173 б. Шу муаллиф. Навоий лирикаси. – Тошкент: Фан, 1961. – 295 б; Абдугафуров А. Навоий ижодида сатира. – Тошкент: Фан, 1972. – 260 б.; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.; Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965; шу муаллиф. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.—168 іб.

⁵ Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. I жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 2002. – 317 б., шу муаллиф: Мумтоз сиймолар. II жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси

Adabiyotshunos olimlar faoliyatini tadqiq etish, jumladan, Ibrohim Haqqul ijodiy faoliyatining turli qirralarini yoritish borasida B. Nazarov, O.Sharafiddinov, R. Vohidov, A. Rasulov, A. Hayitmetov, N. Karimov, T. Mirzayev, O. Safarov, B. To‘xliyev, E. Ochilov, N. Qodirovalarning ishlari diqqatga sazovor⁶.

нашриёти, 2002. – 317 б.; Ҳайитметов А. Навоийхонлик сұхбатлари. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1993. – 216 б. Шу муаллиф. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1996. – 160 б.; Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннарх – Ўзбекистон, 2009. – 448 б. Шу муаллиф. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: TAMADDUN , 2002; Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: “Бухоро”, 1994. – 208 б.; Воҳидов Р., Неъматов X., Махмудов М. Сўз бағридаги маърифат. – Тошкент: Ёзувчи, 2001, – 114 б.; Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2008. – Б. 197-438; Ҳакқулов И.Ч. Ўзбек тасаввуф адабиётининг шаклланиши ва тараққиёти: филол. фанлари докт. дисс. – Тошкент: 1995., Ҳакқул И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991., – 184 б. Шу муаллиф. Тасаввуф сабоклари. – Бухоро: “Бухоро”, 2000; Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007, – 224 б. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: “Шарқ”, 2007. – 336 б; Ҳасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. – Тошкент: Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991б – 192 б. Кудратуллоев Ҳ. Навоийнинг адабий-эстетик қарашлари. – Тошкент, 1991; Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 208 б.; Имомназаров М. XXI аср. Навоийшуносликка кириш. Тошкент: ТДШИ, 2018; Абдуқодиров А. Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти (Ваҳдат ул-вужуд проблемаси бўйича). Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1998. – 279 б.; Салоҳий Д. Навоий насрода тасаввуф. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1995. – 86 б.; Шу муаллиф. Ҳуррият ҳарорати. – Тошкент: Фан, 2007; Тасаввуф ва бадиий ижод. – Самарқанд: Самарқанд давлат университети, 1995. – 184 б. Олим С. Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Тошкент: Фан, 1992. – 80 б.; Нақшбанд ва Навоий. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 216 б.; Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сехр. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик ва текстологик таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2001. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik (1-kitob). – Toshkent: Tamaddun, 2018. – 576 б.; Ҳайитов Ш. Алишер Навоий “Махбуб ул-кулуб” асарининг манбалари ва ғоявий-бадиий таҳлили. Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 1997. Шу муаллиф. “Махбуб ул-кулуб”да тасаввуфий жилолар. – Тошкент: “Фан”, 1998; Жавонмардлик ҳақиқати. – Тошкент: “Фан”, 2005; Муллаҳўжаева К.Т. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги (“Бадоёз ул-бидоя” девони асосида). Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2005.-266; Қобилов У. Илоҳиёт ва бадиият. – Тошкент: “Нихол”, 2008; Шу муаллиф. Ўзбек адабиётида нубувват талқини ва образлари талқини. Филол. фанлари докт. дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 76 б.; Жўрақулов У.Ҳ. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 218 б.; Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг ўзаро уйғунлиги. – Тошкент: MUMTOZ SO`Z, 2001. – 144 б.; Эшонқулов Ҳ. Алишер Навоий шеъриятида самовий тимсоллар (“Бадоёз ул-бидоя” ва “Наводир ун-ниҳоя” девонлари асосида). Филол. фанлари номз... дисс. – Самарқанд, 1999. Шу муаллиф. Самовот – ишқ мазҳари. – Тошкент: Фан, 2008; Шу муаллиф. Алишер Навоий ғазалиётида ишқ поэтикасининг қиёсий-типологик таҳлили (“Ҳазойин ул-маоний” мисолида). Филол. фанлари докт. дисс. – Самарқанд, 2020; Бекова Н. Алишер Навоий шеъриятида ҳамд поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2006; Ражабова М. Алишер Навоийнинг шеърий дурданаси. – Тошкент: Фан, 2008; Бозорова Н. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи. – Тошкент: Фан, 2009; Мамадалиева З.У. “Лисон ут-тайр” достонидаги рамзий образлар тизими: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Амонова З. Ҳуруфийлик ва бадиий ижод. – Тошкент: PARADIGMA, 2017; Давлатов О.Д. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Самарқанд, 2017; Асадов М. Ўзбек мумтоз адабиётида риндана маъно ва лирик қаҳрамон характеристи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Тошкент, 2017; Faффорова З. Алишер Навоий ҳамд ва наът ғазалларининг ғоявий-бадиий талқини. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Самарқанд, 2018.

⁶Назаров Б. Моҳиятга муҳаббат. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – Б. 29-46. Шарафиддинов О. Фикр эркинлиги – зарур эктиёж. / Моҳиятга муҳаббат. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – Б. 4-13. Гўзаллик излаб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. – 170 б.; Воҳидов Р. Илоҳий ишқ жозибаси. – Самарқанд: Зарафшон, 1997. – 80 б.; Расулов А. Истеъод ва эътиқод. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 207 б.; Ҳайитметов А. Иброҳим Ҳакқул // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999 йил 4-сон; Каримов Н. Иброҳим Ҳакқул феномени / Моҳиятга муҳаббат. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – Б. 17-26; Мирзаев Т. Қўнгил ҳазинаси. Сўзбоши / И.Ҳакқул. Эътиқод ва ижод. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 3-7; Сафаров О. Сўзни жаҳон бағрида дурдана билган мунаққид / Филология ва усулиёт масалалари. – Бухоро, 2010. – Б. 24 - 30; Очилов Э. Устоз сабоклари / Мушоҳада ёғдуси. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 3-12; Аҳмедова Ш., Қодирова Н. Ёник қалб ҳарорати. – Бухоро: Дурдана, 2012. – 64 б.; Қодирова Насима.

Ibrohim Haqqulning “Kamol et kasbkim”, “O‘zbek adabiyotida ruboiy” kabi yirik tadqiqotlarini o‘rganish orqali hazrat Navoiyning ruboiy, qit’a janrlarida yozilgan she’rlari tahlillaridagi falsafiy teranlik va mantiqiy izchillikka asoslangani aniqlangan;

Istiqlol yillarida navoiyshunoslik yaqin o‘tmish adabiyotshunoslige xos sinfiy tarafkashlik, nigelizm, soxta firqaviy aqidalardan xalos bo‘lib buyuk so‘z san’atkori ijodini chinakam ilmiy mezon va talablar asosida tadqiq etishga kirishgani Ibrohim Haqqul ijodi tahlili misolida isbotlangan.

I BOB. OLIMNING NAVOIYSHUNOSLIK FAOLIYATI VA TALQIN RANGINLIGI

1.1. Mumtoz adabiyot va hazrat Navoiy ijodi tadqiqotchisi

Alisher Navoiy – chin ma’noda daho san’atkor. Ulug‘ shoirning har bir asari insonparvar va hassos inson ko‘nglining haqiqatlarini ifoda etadi. Bu ko‘ngilda odam va olam ishqisi, hayot zavqi, yashash zavqi, tabiat va go‘zallik muhabbati teran tomir otgandir.

Ma’lumki, Alisher Navoiy yashagan davr bilan bizning zamon o‘rtasida besh asrdan ziyod vaqt masofagina emas, juda katta ijtimoiy ong masofasi, adabiy til, dunyoqarash, hayot tarzi masofalari ham mavjud. Navoiy asarlari o‘z tirikligida mashhur xattotlar tomonidan ko‘chirilgan. Ammo navoiyshunoslik XX asrda o‘zgacha shakllandi.

Ulug‘ shoir ijodiga qiziqish, o‘rganish o‘z davridayoq boshlangan edi. Navoiy asarlarini to‘g‘ri tushunish, tahlil qilish maqsadida turli lug‘atlar tuzildi. Tole al- Iymoni al- Hiraviy “Lug‘ati Navoiy”, Aloyi binni Muhibiy “A1 lug‘at un-Navoiyat val-istishhodat ul-chig‘atoiyat” (“Navoiy lug‘ati va chig‘atoy tili dalillari”), “Abushqa”, Mirzo Maxdiyxon “Maboni ul-lug‘at” (“Lug‘at poydevori”), Fath Ali Qozoriy “ Lug‘oti atrokiya” (“Turklar lug‘ati”), Muhammad Rizobek Xoksor “Muntaxab ul-lug‘ot”, Shayx Sulaymon Buxoriy “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiyi usmoniy” kabi asarlar shular jumlasidan.

Hazrat Alisher Navoiy ijodini ilmiy o‘rganish XX asrning 20-30-yillariga to‘g‘ri keladi. Bu harakatni dastlab jadidlar boshlab berdi. Abdurauf Fitrat⁷ bunga ilk qadamni qo‘ydi. 1919-yildan boshlab Alisher Navoiy tavalludining hijriy-qamariy sana hisobidagi 500 yilligini nishonlash uchun Turkiston muxtor jumhuriyati hukumati va Turkiston o‘lka musulmon byurosi tomonidan tayyorgarlik ishlari boshlab yuboriladi. 1925-yilning 11-iyulida o‘lka musulmon byurosi huzuridagi o‘zbekshunoslik qo‘mitasi “Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ishlarini boshlash haqida” qaror qabul qiladi va shu munosabat bilan ko‘plab ishlar amalga oshiriladi.⁸ Sadriddin Ayniyning sa'y-harakatlari tufayli “Xamsa”ning

⁷ Fitrat A. Navoiyning forsiy shoirlig‘i ham uning forsiy devoni to‘g‘risinda // Maorif va o‘qitg‘uchi jurn., 1925., Farhod-u Shirin” dostoni to‘g‘risida // Alanga jurn., 1930.

⁸ X.Болтабоев. Алишер Навоийнинг илк юбилейи //Sharq yulduzi. - Т., 2016. № 2. - В. 129-137.

qisqartirilgan varianti, “Chor devon”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub” asarlari nashr qilindi. Shu bilan birgalikda, Olim Sharafiddinov (“Alisher Navoiy”, 1939), Maqsud Shayxzoda (“Genial shoir”, 1940), Vohid Abdullayev (“Navoiyning Samarcanddagi hayoti va faoliyati haqida”, 1940) kabi tadqiqotlar o‘zbek navoiyshunosligi rivojiga katta hissa qo’shdi. “Bu davr oralig‘ida Navoiy ijodiga doir bir qancha dissertatsion ishlar ham himoya qilindi. Vohid Abdullayevning “Alisher Navoiyning hayoti va Samarcanddagi adabiy faoliyati” (1941), Izzat Sultonovning “Navoiyning “Mezon ul-avzon” va uning kritik teksti” (1947), O.Usmonovning “Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari haqida (1947), S.Mirzayevning “ Navoiy aruzi” (1948), A.Sa’diyning “Navoiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojidagi yuksak bosqich sifatida” (1949) tadqiqotlari shular jumlasidandir. 50-yillardan boshlab Navoiy ijodini o‘rganish matnshunoslik yo‘nalishida davom etdi. 1950-60-yillarda Porso Shamsiyev “Xamsa” ning ilmiy-tanqidiy matnini, H.Sulaymonov esa “Xazoyin ul-maoniy” ning akademik nashrini amalga oshirdilar.

Oybek, Olim Sharafiddinov, Sadreddin Ayniy, Yevgeniy Bertels, Vohid Zohidov, Izzat Sulton, Aziz Qayumov, Porso Shamsiyev, Maqsud Shayxzoda, Vohid Abdullayev, Hamid Sulaymonov, Natan Mallayev, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug‘afurov, Sodir Erkinov, Alibek Rustamov, Suyima G‘aniyeva, Boturxon Valixo‘jayev, Najmiddin Komilov, Yoqubjon Is’hoqov, Rahim Vohidov, Muhammadjon Hakimov, Ergashali Shodiyev, Lutfulla Zohidov va boshqalar navoiyshunoslik taraqqiyotiga alohida hissa qo’shdilar⁹. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tinimsiz mehnatlari tahsinga loyiq. Qanday vaziyat va siyosiy jarayon bo’lishidan qat’iy nazar Navoiy dahosining g‘oyalarini qayta olib chiqishda ularning ilmiy izlanishlarining alohida o‘rni bor. Buni inkor etishdan yiroqmiz. Bu tadqiqotlar Mustaqillik davri navoiyshunoslarning rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Navoiyshunoslikda tasavvuf masalasini ilk marotaba katta minbarga olib chiqqan olim bu – Ibrohim Haqqul edi. U o‘zigacha bo‘lgan navoiyshunoslarning ishlarini o‘rgandi, tahlil qildi. Zamonning zayli bilan yo‘l qo‘ylgan xato-kamchiliklar ustida ishladi. Kemtiklikni to‘ldirishga katta hissa qo’shdi. Chunki hech bir olim sho‘ro mafkurasidan chetga chiqqani

⁹ Sirojiddinov Sh., Yusupova D. , Davlatov O., Navoiyshunoslik (I - k i t o b) – Toshkent: Tamaddun, 2018, - B. 10-14.

yo‘q. Shunday murakkab vaziyatda navoiyshunoslik sohasida yangicha yo‘nalish, yangicha tahlil usulini, yangi so‘zni qo‘rmasdan ayta olgan olimlardan biri Ibrohim Haqqul edi.

Bugungi kun o‘quvchisiga Navoiy asarlarini tushuntirib yetkazish biroz muammo. Shuning uchun ulug‘ shoir asarlarini sharhlash, talqin va tahlil qilish zarurati tug‘iladi.

Ibrohim Haqqul mumtoz adabiy merosimizning juda ko‘p namoyondalari xususida fikr-mulohazalar yuritgan. Olimning shayx-ul mashoyix, turk ulusi piri Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi hamda an’analariga doir maqolalari, nashr ettirgan asarlari yassaviyshunosligimizda alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, uning Boqirg‘oniy, Rumiy, Atoiy, Gadoiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Uvaysiy, Ogahiy, Furqat, Avaz O‘tar kabi adabiyotimiz vakillari hayoti va ijodiga oid kuzatishlari, tahlil va talqinlari ham diqqatga sazovor. Olimning, ayniqsa, ulug‘ so‘z san’atkori, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiyoti xususidagi tadqiqotlari, ilmiy- ijodiy izlanishlari navoiyshunosligimizda ayricha ahamiyat kasb etadi.

Ibrohim Haqqul hozirga qadar 50 dan ortiq asarlar yaratgan bo‘lsa, ularning yarmidan ko‘prog‘ida Alisher Navoiy ijodi xususida bahs yuritilgan. “Kamol et kasbim”, “Zanjirband sher qoshida”, “Navoiyga qaytish” kabi asarlari to‘laligicha buyuk adibning ruboilyari, g‘azallari, qit’alari va ularning ma’nolari, mohiyati, obrazlar olami, badiiy xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lsa, “O‘zbek adabiyotida ruboiy”, “She’riyat – ruhiy munosabat”, “Abadiyat farzandlari”, “Tasavvuf va she’riyat”, “Irfon va idrok” kabi bir qator kitoblaridan ham Alisher Navoiy ijodi xususida fikr yuritilgan maqolalar o‘rin olgan. Mazkur tadqiqotlar Alisher Navoiydek buyuk ijodkorning jahon so‘z san’atidagi o‘rni, ulug‘ shoirning qalb olami, tuyg‘u va kechinmalari, shaxsiyatini yaqindan anglashga yordam beradi.

Olimning ushbu izlanishlari natijasida nafaqat soha mutaxassislari, shuningdek, ulug‘ bobokalonimiz ijodiga qiziquvchi barcha mutaxassislar, o‘quvchi-yu kitobxonlar Alisher Navoiy she’riyatining botiniy sir-asrorlari, teran mohiyati, ilohiy-irfoniy mazmunidan bahramand bo‘lmoqdalar. Ibrohim Haqqulning asosiy maqsadi – kitobxonga shoirning ijod namunalarini o‘rganishda uyg‘otishdan iborat.

Adabiyotshunosning ta’kidicha, “Alisher Navoiyning buyukligini bilmaslik o‘zbek madaniyatini, tarixini, milliy ma’naviyatini va jahon badiiy

tafakkuriga qo'shgan buyuk hissasini anglamaslik bilan barobardir, Navoiy saboqlariga amal qilmasdan turib, jaholat, nodonlik, mutelik, avomlik va yovuzlik ildizlarini quritish mumkin emas...”¹⁰

50 yildan buyon Mir Alisher Navoiy ijodini o'qib - o'rganib, talqin etgan Ibrohim Haqqul o'zini Navoiyning chin ma'nodagi muhibi, uni ruhlantiruvchi, charchoqlik va choraszizlikdan qutqaruvchi va doimiy ravishda yozib - chizishga undovchi bir asos ekanini e'tirof etadi.

Olim Alisher Navoiy ijodini o'rganishga talabalik davrlaridanoq kirishgan. O'sha paytda yoshlik tasavvuri va shiddati bilan bu yukning zalvorini, mashaqqatli mehnatini u qadar chuqur his qilmagan, yillar o'tgan sayin esa hazrat Navoiy ijodining mohiyati va ruhiyat olamiga kirish, go'zallik sir-asrorlarini baholi qudrat anglash oson emasligini yaxshi anglab shunday xulosaga keladi: “Navoiyni anglash maqomiga erishish – tom ma'nosi ila bir saodat. Faqat bunga g'oyat sekinlik bilan, nihoyatda ko'p mutolaa va mushohada ila, ma'lum bir hayot tajribasiga ega bo'lish bilan erishiladi. Demoqchimizki, Navoiy ijodini shoshilib va kundalik hayot tashvishlariga qo'shilib o'rganish juda qiyin.

Alisher Navoiy yashagan davr bilan bizning zamon o'rtasida yarim ming yillik vaqt masofasigina emas, juda katta ijtimoiy ong masofasi, adabiy til, dunyoqarash, hayot tarzi, masofalari bor. Mutaxassis bo'limgan o'quvchiga Navoiyning asarlarini tushunib yetish – muammo. Demakki, Navoiyning asarlarini sharh qilish, tafsirlash, ya'ni o'sha savol bergen kitobxonning so'zi bilan aytganda, tarjima qilish zarurati bor”¹¹. Haqiqatan ham, ijodkorga bugungi kun kitobxonining Navoiydan bu qadar uzoqlashishi, uning asarlarini tahlil qilishda qiynalishi, zo'rma-zo'raki tahlil usullari o'z davrining dolzarb muammosi bo'lib tuyuladi. Bunday murakkab va mas'uliyatli muammoni hal qilish adabiyotshunoslarning birinchi galdeg'i vazifalaridan edi. O'sha zamon navoiyshunoslari, xususan, Ibrohim Haqqul mazkur vazifaning nechog'lik muhimligini yaxshi tushunganlar. Nazarimizda, Hazratning ijod olamini boricha, to'laligicha yetkazish olimning asosiy g'oyasi bo'lgan. Navoiyni o'rganish, o'rgatish bolalikdan, murg'ak qalblik chog'dan boshlanishi kerak deyiladi. Bu fikrda jon bor, albatta. Ibrohim Haqqul tarjimayi holi – hayot yo'li bunday qarashga

¹⁰ Ҳакқулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б–55 .

¹¹ Ҳакқулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. Б – 5 .

kelishimizga imkon beradi. Uning biografiyasi bo‘lg‘usi adabiyotshunosning bolalik damlaridan o‘zbek she’riyati sohibqironing muxlisi ekanligidan xabar beradi. U ulg‘aygach, albatta, hazrat Navoiy ijodini muvaqqat g‘oyalar asosida emas, haqiqat mezonlariga muvofiq o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

“Navoiy hazratlarining ijod qasrlariga kirish muqaddas bir ibodatgohga, buyuk bir san’at maskaniga kirishdek maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Navoiyning ruhiyati shu qadar teran va mahobatli”¹².

Ibrohim Haqqul Alisher Navoiyning qalb olamiga, ijod sirxonasiga kirishni ulug‘ shoirning kichik asarlarini o‘rganishdan boshladi. Zero, har bir kichik asar keyinchalik yirik asarlarning vujudga kelishida zamin bo‘lib xizmat qiladi. Olim dastlab ruboiy janri, uning tabiat, badiyati xususida ilmiy izlanish olib borar ekan, ishda Alisher Navoiy ruboilyari tahlili, undagi obraz va timsollar ma’nolani yoritishni markaziy o‘rinda qo‘yadi.

Yetuk adabiyotshunos Ibrohim Haqqul “Navoiyga qaytish” kitobining muqaddimasini ushbu so‘zlar bilan boshlagan. “Adabiyotni bir olam deb bilsak, unda sir-asror behisob, uni cheksiz ummon desak, hali biz bilgan, o‘rgangan qismi tomchilarga teng. Insoniyat o‘zini anglashni, idora etishni boshladiki, adabiyot, tahlil va talqin masalasiga e’tibor qaratib kelmoqda”¹³ .

O‘tgan asrning 80-yillarida Ibrohim Haqqul nomi ilmda yorqin namoyon bo‘ldi. Dastlab u zamonaviy she’riyat masalalari bilan shug’ullandi. Qator maqolalar chop ettirdi. Shu bilan birgalikda, Abdulhamid Cho‘lponning “Bahorni sog‘indim”, Xoja Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” majmuasini, Sayfiddin Rafiddinov bilan hamkorlikda “Boqirg‘on kitobi”, “Me’rojnama” kabi uzoq muddat nashr etilmagan asarlar ilm ahliga yetib bordi.

Olim ijodining keyingi yillarida “Ahmad Yassaviy”, “Kim nimaga tayanadi?”, “E’tiqod va ijod”, “Tasavvuf saboqlari”, “Taqdir va tafakkur”, “Meros va mohiyat” kabi asarlari dunyo yuzini ko‘rdi.

Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Vilyam Shekspirning o‘zbek tiliga o‘girilgan kitoblariga yo‘llanma sifatida salmoqli so‘zboshi va so‘ngso‘zlar yozdi. Hazrat Alisher Navoiyning ijod sirxonasiga

¹² Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б-89 .

¹³ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б-5 .

kirish uchun “Navoiyga qaytish” deb nomlangan 4 jildlik kitobi bosmadan chiqди.

Ibrohim Haqqul umri davomida adabiyot ixlosmandlari va Navoiy ijodi shaydolari qalbida o‘z ilmiy faoliyati bilan o‘chmas iz qoldirgan. U chin ziyoli, tiriklar ichida noyob hodisa o‘laroq tik turib yashab o‘tgan shaxs sifatida tarixda qoldi. Ibrohim Haqqul mumtoz adabiyotni o‘quvchi ko‘ngliga singdirish yo‘li va usulini topdi. Uning muvaffaqiyati va kitoblarining shuhrati shunda edi. Biz Navoiy ijodini o‘rganar ekanmiz, hazrat anglatmoqchi bo‘lgan fikrlarni tushunishga harakat qilamiz, biroq mohiyatni to‘liq anglamaymiz. Alisher Navoiy ijodini ko‘plab olimlar o‘rgangan. Biroq ular orasida, hech shubhasiz, Ibrohim Haqqulning izlanishlari alohida ajralib turadi. Biz Hazratning buyuk ruhoniyatini kitobxoniga yetkazishda qaysi yo‘ldan boryapmiz? Qaysi qoida, yo‘l-yo‘riq asosida Navoiy va uning umrboqiy g‘oyalarini targ‘ib qilyapmiz? Olim “Navoiyga qaytish” asarining dastlabki maqolasida shunday deydi: “Biz Hazrat Navoiyni boshqa xalqlarga tanitmoq uchun emas, aslida o‘zimiz yaxshi bilishimiz uchun ko‘proq tashvishlanishimiz zarurga o‘xshaydi. Ochig‘ini aytganda, biz hali Navoiy ijodiyotini kerakli va arziyidigan darajada o‘qib-o‘rganganimiz yo‘q. Sho‘ro davrida mumtoz adabiyotimizga biryoqlama va yuzaki munosabat ulug‘larimizni to‘laligicha, munosib o‘rganishga imkon bermadi. Navoiyni puxta bilish uchun juda jiddiy va maxsus tayyorgarlik ko‘rish lozim. Alisher Navoiy hamma narsani erkinlik va vobastalikda talqin qilgan, inson qismati bilan bog‘liq har qanday haqiqatning istiqbolini tafakkur hurligida ko‘rgan. Demak, tuyg‘uda, ruhda, ko‘ngil va tafakkurda erkinlikni qaror toptirmay turib, Navoiy asarlarining asl ma’no-mohiyatini chaqishga urinish befoyda”.¹⁴ Ibrohim Haqqul Navoiy dahosini anglagan va bugungi kun kitobxoniga ham anglatgan olim, yetuk shaxs edi.

Alisher Navoiy hayoti, adabiy, ilmiy merosini o‘rganish – oliyjanob mehnat. Mustaqillikkacha bo‘lgan murakkab vaziyatda navoiyshunoslik sohasida yangicha yo‘nalish, yangicha tahlil usulini, yangi so‘zni qo‘rqmasdan ayta olgan olimlardan biri Ibrohim Haqqul edi. Ustozning bir suhbatida aytgan quyidagi fikrlari u kishining butun shaxsiyatlarini oolib bergen edi: “To‘g‘ri gap gapishtidan cho‘chishni yo‘qotish kerak. To‘g‘ri

¹⁴ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б–10.

gap uchun jazo olinmaydi, degan xulosaga kelish kerak. Haqiqatning yuki nihoyatda og‘ir, ko‘pchilik ko‘tarolmaydi uni. Haqiqatni aytish uchun, haqiqatga kurashish uchun, to‘g‘risini aytaymi, kafan yelkada bo‘lishi kerak”¹⁵. Ibrohim Haqqul tadqiqotlarida shaxsiyat, mardlik, saxovat,adolat, himmat, odamiylik, ishq, do‘slik, mehr-u shafqat, vafo, sadoqat, yaxshilik, halollik kabi insoniy tushunchalarni ulug‘lab, ularga qarama-qarshi nafs, zulm, razolat, qo‘rquv, xiyonat, e’tiqodsizlik, egrilik, tamagirlilik, tuturuqsizlik, riyol, yuzsizlik, o‘g‘rilik, iste’dodiszlik, sayozlik, nodonlik, johillik kabi illatlarni muttasil ravishda qoralab boradi. “Insonga go‘zal mohiyatni Alloh bergen. Alloh bergen narsani qaytarib olib bo‘lmaydi yoki o‘zgartirib bo‘lmaydi. Agar inson Allohga qancha yaqinlashsa, u shuncha bashariy irodasidan kechib yoki uzoqlashib ilohiy irodaga erishadi. Va ilohiy irodaga erishgan odam bu dunyoning g‘avg‘olari, hasad va xusumatlaridan juda baland bo‘ladi. U hech narsadan qo‘rqmaydi, chunki uning suyanadigan asosiy kuchi Allohga aylanadi”¹⁶, – degan edi Ibrohim Haqqul. Darhaqiqat, ustoz hayot yo‘llarida hamisha Alloh taolonning qudratiga, madadiga tayandi. Hech kimga yalinmadi, yaldoqlanmadi. Ilmiga sadoqati va shu yo‘ldagi sobitqadamligi ijodkorni qalblarimizga mangu muhrladi.

Ustoz Ibrohim Haqqulov “Navoiyga qaytish” kitobida “Navoiyni anglash mashaqqati”, “Navoiyga qaytish”, “Tasavvuf va Navoiy she’riyati munosabatiga doir”, “Ishq va komillik jazbasi”, “Mansur Xalloj va Navoiy”, “Oqillik va g‘ofillik”, “Teranlik sadosi”, “Ma’ruf va orif” va qator g‘azallar tahliliga to‘xtalib o‘tadi. Dastavval, kitobning nomlanishiga e’tibor qaratamiz. Xo‘sh, Ibrohim Haqqul nega kitobni “Navoiyga qaytish” deb nomladi? Bugungi kunga qadar Navoiy o‘rganilmagan, tadqiq etilmagan edimi?! Butun dunyo adabiyotshunoslarining diqqat markazida bo‘lgan Hazrat Navoiyga qanday qaytish mumkin? Ushbu savollarga javob izlashda “Navoiyga qaytish”ga yuzlanamiz.

“Bir zamonlar Alisher Navoiy dahosiga shubha bilan qarashlar bo‘lgan. Lekin bunday ishtibohlar tuman yanglig‘ tezda barham topgan. Rus yoki gruzin ziyolisidan Pushkin yoki Shota Rustavelining buyukligini isbotlashni talab qilib ko‘ringchi! U sizga yo ajablanib qaraydi, yo ustingizdan kuladi. Muhammad alayhissalomning payg‘ambarligini isbotlash hech bir

¹⁵ Kun.uz.https://youtu.be/52It_iUS_6c

¹⁶ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б-5 .

musulmonning xayoliga kelmaganidek, Navoiyning ulug‘ligini ko‘rsatuvchi qo‘shimcha dalil izlashga hojat yo‘q”¹⁷.

Ozod Sharafiddinov “Fikr erkinligi – zarur ehtiyoj (adabiyotshunos Ibrohim Haqqulga ochiq xat)” mavzusidagi maqolasida Ibrohim Haqqulni nafaqat mumtoz, tasavvuf adabiyotining yetuk namoyondasi, balki zamonaviy adabiyotning mohir munaqqidi ekanligi haqida mulohaza yuritgan edi. Vaholanki, Ibrohim Haqqul o‘zining dastlabki izlanishlarida “O‘zbek adabiyotida ruboiy” janrini o‘rgandi. Olim o‘zinig ilmiy tadqiqotida ruboiy bir so‘zdan ortiq ham, kam ham bo‘lmasligi, fikr aniq va ravshan, go‘zal va yorqin ifodalanishi zarurligi haqida to‘xtalib o‘tadi. Ibrohim Haqqulning har bir kitobi va maqolasida, uning yozish uslubida ham bu xususiyatlar ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. U maqoladan maqolaga, kitobdan kitobga o‘sib, adabiyot haqidagi muhokomaga va mulohazalari kun sayin teranlashib borgan. 1997-yildan 2001-yilgacha “Tafakkur” jurnalida o‘zi tuzgan tasavvuf atamalari lug‘atini e’lon qildi.

Naim Karimov o‘zining “Ibrohim Haqqul fenomeni” nomli maqolasida bir voqeani yodga oladi: “Kunlarning birida, paxta maydonidami, yodimda yo‘q, har holda To‘ra Mirzayevning direktorligi chog‘ida qayerdadir to‘planib qoldik. Bahs Abdulla Oripov she’riyatiga ko‘chdi. Shunda Ibrohim shoirning bir necha she’rini yod o‘qidi. Oradan bir necha kun o‘tgach, Abdulla Oripovning she’riyati haqida kattagina maqola yozib, menga o‘qishga berdi. Bu ham ilmiy tadqiqot, ham estetik taassurot omuxtasi edi. Maqola menga juda manzur bo‘ldi. Men shu paytgacha Abdulla Oripov she’riyati shu qadar chuqur tahlil qilingan maqolani o‘qimagan edim. O‘yladimki, bu Ibrohim yoza boshlagan dissertatsiyaning biror fasli bo‘lsa kerak, deb. Lekin keyin bildim, Abdulla Oripov she’riyati uning “hobbi”si ekan. Ibrohimning asosiy maqsadi va hayotining o’sha davrdagi ma’nosi boshqa – Navoiy ruboilarini o‘rganish ekan”¹⁸.

“So‘z – ruhning qanotidir”, – deydi Ibrohim Haqqul. Zero, tasavvuf – go‘zallik, muhit, haqiqat va hol ilmidir. U ta’kidlaganidek, tasavvufning qudrati, shukuhi va ulug‘ligini his qilish uchun ijodkorning botini ham go‘zal

¹⁷ Ўша асар. Б-10.

¹⁸ Каримов Н. Иброҳим Ҳаққул феномени / Моҳиятга муҳаббат. Тўплам / масъул мухаррир Т.Мирзаев. – Тошкент: «Tafakkur», 2019. Б– 18.

bo‘lishi kerak. Bu xususiyatlar olimning o‘ziga ham tegishli. “E’tiqod va ijod” nomli kitobidan uning shu paytga qadar vaqtli matbuotda chop etilgan, turli yillarda shoirlar, adiblar, olimlar va jurnalistlar bilan qilgan suhbatlari o‘rin olgan. Undagi ham bir suhbat katta mahorat bilan yozilgan. Ilmiy tahlillarga boy. Bu suhbatlar rang-barang va sermazmun, betakror va o‘ziga xos, ilmiy farazlarga boyligi bilan ajralib turadi. Tilining soddaligi, uslubning ravonligi o‘quvchi e’tiborini tortadi. Kitob ikki fasldan iborat. Birinchi fasl “Moziy va zamon” deb nomlanib, unda Ibrohim Haqqulning tasavvuf adabiyoti, jumladan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi turkum suhbatlari o‘rin olgan. Ibrohim Haqqul tarixiga, ajdodlarimiz merosiga ulkan bir muhabbat bilan yondashadi. Ijodkor adibning ruhiyatiga chuqurroq kirib borishga harakat qiladi. Mavzuga bugunning talabi, davrning nigohi bilan qaraydi. Shu paytgacha hech kim e’tibor qilmagan, hatto arzimas bo‘lib ko‘ringan detal va faktlarni tahlilga tortadi. O‘ziga xos, hayratga soluvchi xulosalarga keladi. “Adabiyot xazinasini boyitadigan xazinalardan yana biri – tarix, – deb yozadi u bir suhbatida. Badiiy ijod bilan shug‘ullanadigan kishi tarixni bilmasdan turib dunyoning sobit haqiqatlarini mustaqil anglab, hayotning o‘tkir va keskin muammolarini o‘zicha hal qila olishiga men shaxsan inonmayman. Navoiy shaxsida shoir va faylasuf bilan yonma-yon bitta mutafakkir muarrixning yashagani bejiz deysizmi?”

Tarix faqat raqamlardan iborat emas, u ajdodlarimizning tushuncha va tasavvurlarini ham o‘zida mujassam etgan murakkab ijodiy jarayon. Ibrohim Haqqul bu san’atkorlar ijodi haqidagi izlanishlarida, eng avvalo, o‘zigacha e’tirof etilgan fikrlarni takrorlamaslikka harakat qiladi. Bu yo‘ldan ba’zi hamkasblari kabi chiqolmay qoladi emas, ongli ravishda ulardan qochadi. Ibrohim Haqqulning “Irfon va idrok” kitobi olim kuzatishlarining eng salmoqlisi sifatida o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi. Uning taniqli navoiyshunos, filologiya fanlari nomzodi Yoqubjon Is’hoqov ilmiy rahbarligi ostida 1976-yil yanvar oyida yoqlagan “O‘zbek adabiyotida ruboiy” (janr poetikasi va tarixi) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi qisqa muddatda – uch yilda yozib tugatildi. Shuning samarasi o‘laroq, 1981-yilda chop etilgan “O‘zbek adabiyotida ruboiy” monografiyasida e’lon qilindi. Unda “ruboyiyanri poetikasi, uning tarixi, yuzaga kelish asoslari, ruboiy qonuniyatları va adabiy jarayondagi o‘rnı ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etilgan va nazariy

fikrlar Navoiy hamda Bobur ruboiylari tahlili bilan dalillangan”¹⁹. Ayni jihatdan ustozning 1991-yilda chop etilgan “Tasavvuf va she’riyat” kitobida alohida ajralib turadi. Bu kitob o‘zbek adabiyotshunosligida katta inqilob yaratdi. Chunki unda tasavvufning xalqchil mohiyati, uning oddiy zuhd-u taqvo-yu toat emasligi, balki jamiyatni poklovchi, insonni kamolotga, komil insonlikka ko‘taruvchi buyuk ilmiy ta’limot ekanligini isbotlab berdi. Kitobda bundan tashqari, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Amir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrabning tasavvufiy she’riyati chuqur donishmandlik ila tahlil etilgan.

Ibrohim Haqqul ham boshqa navoiyshunoslar qatori ulug‘ san’atkor asarlarini targ‘ib etib, bu asarning mazmun-mohiyatini o‘quvchilar to‘g‘ri anglashi uchun ko‘plab sharh va tahlillar yaratdi. Olim dastavval “Xamsa” tarkibidagi ajib hikoyatlarni , “Mahbub ul-qulub”da ruboiy, qit‘a va ba’zi g‘azallarda ifoda etilgan g‘oyalar mohiyati, ulug‘ shoirning badiiy mahorati masalalarini tahlil etib, yosh o‘quvchilarga mo‘ljallab “Zanjirband sher qoshida” risolasini nashr ettirdi. Bu risola xususida shoirimiz Erkin Vohidov ijobiy xulosa bildirib shunday yozadi:

“Har bir narsaga yoshlikdan ko‘nikma hosil qilish kerak bo‘lganidek, Navoiyni o‘rganishga qancha erta bel bog‘lansa, shuncha ma’qul. Navoiyni, umuman, mumtoz adabiyotni bilish har bir o‘zbek farzandi uchun ham qarz, ham farzdir. Shu ma’noda iste’dodli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning qilgan mehnati tahsinga sazovordir. Bu kitob Alisher Navoiy iste’dodi orqali o‘quvchilarda she’riyatdan zavqlanish hissini uyg‘otish barobarida ularni ona tabiat sirlariga yaqinlashtiradi. Ona vatanga muhabbat, uning o‘tmishiga hurmat, ulug‘ ajdodlar ruhi oldida mas’ullik hissini tarbiyalaydi”²⁰.

Haqiqatdan ham, bu kitob o‘quvchida Navoiy dahosining qalb olamini ochishga, uning sirlaridan bahramand bo‘lishga imkon yaratadi. O‘quvchi o‘ziga ma’lum haqiqatlarni ulug‘ shoir so‘zlarini qudrati ila yana qayta taklif etadi. Bunda esa zukko olimning tahlillari, baytlar mazmuni xususidagi mulohazalari asosiy yordamchi bo‘lishi, shubhasiz.

O‘tgan asrning 90-yillariga kelib Ibrohim Haqqul bugungi kun navoiyshunosligini istiqbolini belgilab beruvchi dastlabki qadamlarni qo‘ydi.

¹⁹ Ҳаккулов И. Ўзбек адабиётида рубоий (жанрнинг поэтикаси ва тарихи). – Тошкент: «Фан», 1981. Б – 5

²⁰ Ҳаккулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. Б – 4 .

Mustaqillik va uning bosh g‘oyasini o‘zbek mumtoz adabiyoti tadqiqiga doir izlanishlarda o‘z ifodasini toptirdi. Shaxs va uning fikran, ruhan, jisman, ma’nani erkinligi g‘oyasini o‘z tahlillarida ilgari surdi. U olim bo‘lib, oddiylik – jo‘nlik yo‘lidan bormadi. Ayni paytda kitobxon – o‘quvchini bezdiruvchi murakkablik yo‘lidan ham bormadi. Oraliq tenglikni topa oldi. Har bir maqolasida yoinki suhbatlarida so‘zlardan marjon tergandek foydalandi. So‘zga ruh baxshida etgan Hazrat Navoiyning izdoshi bo‘ldi. So‘zga, ilmiy uslubga o‘zgacha jilo baxsh etdi. U bir suhbatida “Men kitobxonni ko‘z o‘ngimga keltirib, u bilan xayoliy suhbat olib borib asar yozaman”, – deb aytgan edi. Balki bu uning asarlarini o‘qishliligining bosh omilidir.

O‘zbek tasavvufshunosligi istiqlol tufayli qaror topdi. Uning tamal toshini qo‘yishda Ibrohim Haqqul va qator olimlarning hissasi beqiyos. Jumladan, Najmiddin Komilov, Botirxon Valixo‘jayev, Abdumutal Abdullayev, Ahmad Abdullayev, Elyor Karimov, Hamidxon Islomiy, Sadriddin Salim Buxoriy, Hamidjon Homidiy, Komiljon Rahimov tasavvuf va unga bog‘liq bo‘lgan masalalarga yangicha ruh bilan qaragan. Ibrohim Haqqul ushbu karvonning birinchi sarboni edi. Balki uning xizmatlarisiz bu karvon hali-beri yo‘lga chiqmas edi. Birinchi bo‘lgan odamga har doim qiyin bo‘lishi barchamizga a’yon. U shu yo‘ldan qaytmadi. Birinchilardan bo‘lib, yassaviya va uning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviyning asarlari nashrini amalga oshirdi. Qatag‘on siyosati qurboni bo‘lgan, ma’lum sabablarga ko‘ra, nomi oqlanishi kechikririlgan Abdulhamid Cho‘lpon sharaflı nomini adabiyotimizga qaytardi. “Bahorni sog‘indim” (1988) to‘plamini nashrga tayyorlab, salmoqli so‘zboshi yozdi. Buni o‘z davrida amalga oshirish katta jasorat edi. Olim nafaqat o‘zbek mumtoz adabiyoti, tasavvuf borasida, balki yangi o‘zbek adabiyoti tegrasida ham qalam tebratdi. Uning Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Jamol Kamol, Rauf Parfi, Usmon Azim, Xurshid Davron kabi o‘zbek shoirlari she’riyati yuzasidan qator maqolalari e’lon qilindi.

U 1995-yili tasavvuf haqidagi qarashlarini jamlab, “O‘zbek tasavvuf she’riyatining shakllanishi va taraqqiyoti” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Uning bu fundamental tadqiqoti o‘zbek tasavvufshunosligidagi katta kemtikning o‘rnini to’ldirdi.

Yarim asrlik ilmiy-ijodiy faoliyati davomida Ibrohim Haqqul samarali faoliyat olib bordi. U nafaqat o‘zi ulug‘ shoir ruhoniysi bilan birlashdi, balki

bu yo‘lda o‘zining izdoshlarini ham kamol toptirdi. Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan, Gulchehra Xo‘janova, Nasiba Bozorova, Dilorom Hamroyeva, Safiya Jumayeva, Sirdaryo O‘tanova, Zilola Amonova, Gulnoz Xalliyeva, Maqsud Asadov, Rashid Jumayev, Farrux Olimov, Zulayho Rahmonova, Hayot Latipov, Rayhon Saidova kabi olimlarni ham ilm deb atalmash cheksiz ummonning yuziga olib chiqdi. Bugungi kunda ular respublikamiz va xorijning turli hududlarida faoliyat olib bormoqda. Ibrohim Haqqul ijod xirmoniga nazar tashlasak, bugunga qadar 20 dan ortiq nomzodlik (PhD), 10 ga ortiq yaqin doktorlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilgan. Jumladan, Sayfiddin Rafiddinov “Atoyining poetik mahorati” (1994), Nodirxon Hasan “Sulton Ahmad Haziniyning “Javohir ul-abror min amvojil bihor” asari va uning yassaviyshunoslikdagi ilmiy-tarixiy qimmati” (1999), Gulchehra Xo‘janova “Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul - haqoyiq” asari poetikasi”(2002), Nasiba Bozorova “Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘ngil obrazi” (2002), Dilorom Hamroyeva “Boborahim Mashrab g‘azallari poetikasi (obraz, timsol, istiloh)” (2004), Safiya Jumayeva “O‘zbek mumtoz she’riyatida raqam ramzları va ularning ma’no talqinlari” (2006), Sirdaryoxon O‘tanova “Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simvolikasi” (2007), Zilola Amonova “Hurufiylik tariqati va 14-19 asrlar o‘zbek mumtoz adabiyoti” (2012), Maqsud Asadov “O‘zbek mumtoz she’riyatida rindona ma’no va lirik qahramon xarakteri” (2017), Rashid Jumayev “Masnaviy va “Lison ut-tayr”dagi hikoyatlarning qiyosiy talqini” (2018), Farrux Olimov “Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin” asari badiiyati” (2018), Hayot Latipovning “O‘zbek mumtoz adabiyotida ma’rifat talqini va orif obrazi (XIII- XVasrlar)” (2021) kabi nomzodlik ishlarga rahbarlik qildi. Shu bilan birgalikda, Gulnoz Xalliyeva “XX asr rus sharqshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyoti tadqiqi” (2016), Nodirxon Hasan “Yassaviyshunoslikka doir manbalar va “Devoni hikmat” (2017) kabi tadqiqotchilar ustoz – olim rahbarligida doktorlik ishlarini himoya qildilar. Bular uning rasman tasdiqlangan shogirdlaridir. Aslida, tasavvuvga, navoiyshunoslikka, boringki, adabiyotga qiziqqan kitobxon borki, Ibrohim Haqqul asarlari mutolaasidan so‘ng uning bevosita shogirdiga aylanadi.

Chunonchi, Ibrohim Haqqul ulug‘ shoirning tabiat haqida bitilgan go‘zal she’rlaridan tahlil etib shunday deydi:

“Alisher Navoiy asarlarida tabiat, eng avvalo, chinakam hurlik tayanchi, erk sultanati sifatida ulug‘lanadi. Ha, tabiat va insonni ajratib bo‘lmaydi. Biz bolalikda kun va tunlarimizni ona tabiat qo‘ynida o‘tkazishdan sira toliqmaymiz. Bolalikdagi tushlar bu ko‘pincha qushlar bilan bir tilda so‘zlashish, irmoqlar bilan barobar yugurish kattalarga atalmagan ho‘rsiniqli istaklarni daraxtlarga izhor etish demakdir.

Telbalik erkin qucharmen, bog‘ aro har sarvni,
Barisi ul sarv qaddi siyminbar bo‘lg‘aymu deb,

deydi Alisher Navoiy. Bu oshiqona fikr. Ammo boshqa jihatdan ham qimmatli. Bolalikda har kimning jimgina borib quchadigan daraxtlari bo‘ladi. Ularni kimdir quchoqlab quvongan, kimdir yig‘lagan. Bu daraxtlarni qaysidir bolakayning armonlari larzaga solgan. Ehtimol, norasida bir go‘dak shodliklari tufayli daraxt ildizi zaminga chuqurroq botgandir. Navoiyning so‘zları shular haqida ham o‘ylatadi”²¹.

Olim bunda ko‘rganimizdek, bayt mazmunini tahlil qilib o‘tirmaydi, balki uni oshiqona tarzda yozilganini e’tirof etadi, xolos. Biroq baytni o‘qiganda yuzaga keladigan holat, qalbda kechadigan kechinmani olim to‘g‘ri ilg‘ay olgan, sharhni o‘qish jarayonida o‘quvchi bir muddat bolalik olamiga beriladi. O‘sha damlar sog‘inchi bir lahma bo‘lsada qalbini to‘ldiradi. Aslida, Alisher Navoiy bu lahma haqida yozmagan, lekin olim tahlili orqali baytdan yuzaga keladigan taassurot o‘quvchida fikr uyg‘otadi. Bolalikda quchib yig‘lagan daraxti, Navoiy tasvirlagan oshiq yigit quchib yig‘lagan daraxt o‘rtasidagi bog‘liqlikni mushohada qiladi. Umuman olganda, Ibrohim Haqqulning “Zanjirband sher qoshida” kitobi bugungi kun o‘quvchilarining ong-u tafakkuriga moslab yozilganligi, Alisher Navoiy matnlari sir-u sehrini yosh kitobxon ochib bera olish jihatidan katta ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matnning kitobxon tomonidan o‘zlashtirilishi bir qancha muammolarni yuzaga keltirib chiqaradi. Mana shunday mushkulotlarni hal qilish, asar mazmuni, unda ifoda etilgan g‘oya, obrazlarni to‘g‘ri anglash har qanday kitobxon uddalay oladigan oson ish emas. Uning yana bir katta xizmati shunda ediki, buyuk san’atkor Hazrat Alisher Navoiyning g‘azallarida keltirilgan shoybaytlarini to‘pladi va nasriy bayonni amalga oshirdi. II tomlik “Shohbaytlar” nomi ostida kitobni chop ettirdi.

²¹ Ҳакқулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б–22 .

Ibrohim Haqqulni mumtoz g‘azallarga yozgan sharhlarini o‘qigan kitobxon, albatta, birinchi o‘rinda so‘zlar marjonidan benihoya go‘zal tasvir yarata olgan shoir mahoratiga so‘ng esa shu go‘zallik zamirida yotgan ma’nolarni to‘g‘ri talqin eta olgan olim iste’dodiga tahsin aytishi, shubhasiz. Olim g‘azallarga bitgan sharhlari orqali she’r ilmining bilimdoni ekanini to‘la namoyon eta olgan desak, xato bo‘lmaydi. Ibrohim Haqqul Navoiy g‘azallari tahlilida ma’noni ochuvchi “kalit” so‘zga e’tiborini qaratadi. Ba’zi asarlar tahlilidagi kalitni boshqa asardan izlab topadi. Masalan, “Xamsa” tahlilini “Mahbub ul - qulub”dan izlaydi. Ulug‘ shoirni anglash uchun quyidagi tavsiyalarni beradi: “Navoiy badiiy olamiga kirishda Sharq falsafasi, madaniyati, adabiyoti, mumtoz so‘z san’atining ijodiy metodi, obrazlar olami, o‘ziga xos ramz-tashbehlari, badiiy san’atlar, aruz vazni, arab yozuvi(harfiy o‘yinlarga asoslangan she’rlar, abjad-ta’rixlarni tushunish, muammolarni yechish uchun), eski o‘zbek tilini bilish, fors va arab tillaridan muayyan darajada xabardor bo‘lish talab qilinadi”²².

Ibrohim Haqqulning qator shogirdlari 2023-yilda uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida “Ibrohim Haqqul haqiqati” nomi ostida kitob nashr ettirdi. Unda Ibrohim Haqqulning umri davomida yozgan asarlarining eng sara qismlari tanlab olingan. Bunda tasavvuf, adabiyot, hayot, Hazrat Alisher Navoiy ijodiga doir talqin va tahlillarga keng o’rin berilgan.

Ibrohim Haqqul bahslarda bilim va beg‘arazlikni asos qilib oladi va muddaosi asl maqsadini, haqiqatni to‘g‘ri yoritish hamda ulug‘ shoirning fikr tuyg‘ularini o‘quvchiga to‘g‘ri yetkazishdir.

1.2. Alisher Navoiy ruboiylari Ibrohim Haqqul talqinida

Olim o‘zining “O‘zbek adabiyotida ruboiy” nomli tadqiqotida ruboiy janrining Alisher Navoiy ijodida o‘ziga xos o‘rin tutishi, bu orqali o‘zining falsafiy qarashlarini ifodalashda keng foydalanganligini yozadi. Ulug‘ shoir ruboiylarining mavzu ko‘لامи, mazmun-mohiyati xususida ma’lumot beradi.

Ma’lumki, mustaqilligimizga qadar mumtoz adabiy merosimiz ma’rifiy-diniy g‘oyalardan tamoman xoli holda o‘rganiladi. Bu o‘rganish Alisher Navoiy asarlarini ham chetlab o‘tmadi.

²² Ҳакқулов И., Очилов Э. Ишқ ва хайрат олами. –Тошкент: «Ўзбекистон», 2016. Б –3 .

Ibrohim Haqqul ham “O‘zbek adabiyotida ruboiy” monografiyasida davr siyosatiga yon bergen holda, Alisher Navoiy ruboilarining aksariyati “diniy- tasavvufiy mafkura bilan” mustahkam bog‘liq bo‘lganligini tilga olsa-da, namuna tarzida ularni shunday tahlil etmaydi. Olim bu ishda islam mafkurasiga tegishli ilg‘or tushunchalarni Navoiy falsafiy-axloqiy qarashlaridagi “zaif nuqtalar” sifatida e’tirof etadi.

Olim keyinchalik “Tasavvuf va she’riyat” risolasida bu fikrlari noto‘g‘ri, xato ekanini tan olib, Alisher Navoiy asarlarini irfoniy-ma’rifiy, diniy-axloqiy nuqtayi nazardan o‘rganishni eng to‘g‘ri yo‘l deb biladi va shunday yozadi:

“Alisher Navoiy ruboilarining tahliliga bag‘ishlab 30- yillarda yozilgan bir maqolada shoirning ishqiy she’rlarini ilohiy ishq yo‘nalishi deb talqin etganlar “panislomistlar”, “tuhmatchi, razillar” deb qoralaganlar va tahqirlangan. Albatta, “tuhmatchi, razillar” qatoriga qo‘silib qolishdan, Navoiy tasvirlagan haqiqiy ishq g‘oyalarini noto‘g‘ri va sayoz nuqtayi nazarlargacha izohlash oson hamda qulay edi. Keyinchalik, shoir lirikasidagi so‘fiyona qarashlar Navoiyning “haqsizlik, huquqsizlikning tub sabablarini” tushunib yetmaganligi bilan ham izohlanadigan bo‘ldi...”²³

Tarixiylik va haqiqat nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa, Navoiy ruboilarining o‘rganilishi va tahlillari ham qanoatlanarli emas.

“Xazoyin ul-maoni” devonidagi aksariyat ruboilyardagi bosh g‘oya: zoti mutlaq sevgisi, vahdati, jovidlik orzusi, hijron dardi, may va fanolikni ulug‘lashdir”²⁴.

Olim o‘zining ushbu risolasida ulug‘ mutafakkir ruboilarini o‘zgacha ma’no qirralarini, botiniy asrorini juda yaxshi yoritib bera olgan. U “Islam qomusi”da Sharq she’riyatining “vohid quyoshi” deya ta’riflagan quyoshini bu darajaga ko‘tarishga, unda diniy-falsafiy ma’nolarning keng va izchil ifodalanishi bilan bog‘liq ekanini Najmiddin Kubro, Abdulla Ansoriy, Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy ijodi misolida isbotlab berdi.

Ibrohim Haqqul Alisher Navoiyning ko‘p ruboilarida bir ma’no yashirinligini va uni kashf qilmoq uchun har bir to‘rtlikdagi ramzni belgi, ishorat, ohang va kechinma, taassurotlar ildizini to‘g‘ri anglay bilish lozimligini ta’kidlaydi. Uning yozishicha, “she’riy obraz so‘zining o‘zligini

²³ Ҳакқулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б-67 .

²⁴ Ўша асар. Б-69 .

tanishdir. Bunda so‘z o‘quvchini tinglashga tarixiy tushuncha, tasavvur bilan hisoblashish, so‘zning rang, ohang, ma’no qurollari bilan uyg‘un hukmlar chiqarishga majbur qiladi ”²⁵.

Olim Navoiy ruboilarini tadqiq qilishda ayni shu yo‘ldan boradi, unda tasvirlangan asosiy, botiniy mazmun, ilohiy-irfoniy tushunchalar ifoda etgan ma’nolarni tasavvuf lug‘atlari yordamida tahlil qiladi.

Jumladan, u barchamizga ma’lum va mashhur “G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish” misrali ruboysi tahliliga diqqatimizni qaratadi. Olim dastlab ushbu ruboyni maktab va oliy o‘quv yurtlari darsliklarida “vatanparvarlik va erksevarlik” g‘oyasi kuylangan she’r sifatida baholanganini, Navoiy ushbu she’rini goh Astrobodda, goh Balxda, goh Samarqandda yurib, o‘z vatanidan yiroqda yashagan ayriliq damlari ta’sirida yozilganini eslatib o‘tadi. U ruboyning yozilish tarixi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rgangan A.Hayitmetov, Y. Is’hoqov kabi adabiyotshunoslarning bu boradagi fikrlarini birma-bir keltirib, ular ushbu she’rning faqatgina tashqi, birinchi ma’no qatlami xususida bahs yuritganlarini ruboiydagi vatanparvarlik g‘oyasi esa tasavvuriy va xayoliy fikr ekanini qayd etadi.

Ibrohim Haqqul ushbu ruboyning asl mazmun-mohiyatini ochuvchi “kalit” so‘zlar g‘urbatda g‘arib kalimalarida deb biladi va butun e’tiborini shu so‘z, to‘g‘rirog‘i, obrazlar mohiyatini ochishga qaratadi.

U buning uchun Y.E. Bertels nashrga tayyorlagan “Mir’oti ushshoq” va Sayyid Sajjodiyning tasavvuf lug‘atlarida keltirilgan “g‘urbat” so‘zining izohlarini o‘rganadi va Navoiy ruboysida ilgari surilgan botiniy mazmun orifning g‘urbati haq talabi bo‘lib, u oxirat ahli orasida ham g‘aribdir, tasavvuf ta’limotida g‘aribning ilohiy erki – “Anal-haq”lik ekanligini ko‘rsatadi. Ana shu hurlikka yetishguncha, u g‘urbatda yashaydi, g‘urbatdan tinimsiz azob chekadi.

Olim Navoiy tilga olgan g‘arib tabiatini va g‘ariblik falsafasini ochishda birgina tasavvuf lug‘atlaridagi izoh bilan cheklanmaydi. U ulug‘ shoirning ayni shunday obrazlar, fikr-qarashlar ifoda topgan g‘azallariga murojaat qiladi, ulardagi mazmun bilan ruboiy o‘rtasidagi bog‘liqlikni qiyoslaydi. Olim o‘z fikrlarining tasdig‘i uchun yana g‘arib haqidagi hikoyatlardan, shayxlar hayotidagi rivoyatlardan unumli foydalanadi.

²⁵ Ҳаккулов И. Ўзбек адабиётида рубоий (жанрнинг поэтикаси ва тарихи). – Тошкент: «Фан», 1981. Б – 20 .

Chunonchi, “El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish” misrasini izohlashda shunday naql keltiradi: “Birov bir darveshning yoniga kelib: “Nechun yolg‘iz o‘lturibsen”, – debdi. Darvesh ayтиди: “Emdi yolg‘uz bo‘ldumki, sen kelding va menga Haqqa mon’e bo‘lding”.

Olim e’tiroficha , ana shu darvesh tom ma’nodagi g‘aribdir. G‘arib nima tilasa, ma’shuqi azaldan tilaydi.

Vujudi mutlaq – uning tanho do‘sti. “Begona el bila suhbat tuta” olmaslik g‘ariblikning xarakterli alomati. Shu bois el bu g‘aribga “shafiq va mehribon” bo‘la olmaydi.

Ibrohim Haqqul Alisher Navoiy ruboysiidiagi g‘urbat va g‘ariblik holi Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi tasvirlariga hamohang ekanini alohida qayd qiladi. Ulug‘ shoirning “G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish” fikri Ahmad Yassaviyning “G‘ariblig‘da g‘urbat ichra qoldim ma’no” degan qarashining yangicha tasviri va tasdig‘idir degan xulosaga keladi.

Xullas, olim ushbu ruboyni tasavvuf lug‘atlari, shoirning o‘z asarlaridagi shu kabi misollar, Ahmad Yassaviy hikmatlari, tasavvufiy rivoyat-u naqllari, xalq maqomlari, shoir Sayyodiy qalamiga mansub “Tohir va Zuhra” dostonidan olingan parchalar qiyosi orqali o‘rganib quyidagi yakunga keladi: “Qalbi vujudida siri ko‘nglida g‘arib bo‘lgan ana shu qahramon oliy orzu va samoviy tuyg‘ular og‘ushida yashaydi. U dunyoparast nojinslardan, imoni sust lainlardan “maxluq xizmatiga kamar” bog‘lagan tamagir va xushomadgo‘ylardan bezib uzlatga chekinadi. Lekin u bu cheksiz go‘zallikdan hayratlanish, ma’rifat bahriga cho‘kishdan chekinmaydi. Tasavvuf axloqida g‘ariblik tuyg‘usi shunday ichki “qal’a” durki, unga ishq, imon, poklik, g‘urur, donolik kabi o‘nlab kamyob insoniy xislatlar daxlsiz asraladi. Bu qal’a ko‘ngulni bid’at va xurofotdan muhofaza etadi.”

G‘arib tashqi dunyoga o‘z ichki imtiyozi va ehtiyojlaridan kelib chiqib nigoh tashlaydi. Uni hammadan ortiq “olam uyi”ning torligi va unda mayda g‘avg‘olarning ko‘pligi qiynaydi. Shu bois u jon qushini “dashti fano”ga sayr chog‘lab umri baqoni ko‘zlaydi.

Ibrohim Haqqulning ushbu ruboiy tahlili bilan tanishgan kitobxon shu to‘rt misralik she’r zamirida Alisher Navoiyning falsafiy-tasavvufiy, axloqiy-ma’rifiy qarashlari nechog‘li mahorat bilan obrazlar qatiga singdirilganini anglab yetadi.

Zukko kitobxon shu tahlil ta'sirida ulug' shoir asarlariga boshqacha nigoh tashlashi, ulardagi har bir so'zda yashirin ichki ma'nolarni topishga, uni o'zicha mushohada qilishga kirishishi, shubhasiz. Bu esa olimning izlanishlari samarasiz ketmagani, bil'aks ular ta'sirida qaysidir bir ko'ngulda ma'rifatga ishtiyoyq, havas uyg'onganidan dalolatdir.

Ibrohim Haqqul ijodini kuzatar ekanmiz, unda olimning Alisher Navoiyning ba'zi ruboiylariga qayta-qayta murojaat qilganini ko'ramiz. Dastlab asosiy mazmuni qisqagina sharhlagan ruboiylar keyinchalik alohida maqola sifatida keng va batafsil tahlil etilganiga guvoh bo'lamiz. Bu ruboiylar, balki olimning ko'ngliga juda ma'qul bo'lgandir, balki tasavvuf bilan chuqur shug'ullanish natijasida bu she'rlar zamiridagi ma'no-yu ohanglar yanada boshqacha tovlanib, olimni o'ziga jalg qilgandir. Nima bo'lganda ham, olimning keyingi tahlillarida she'rlarning dastlabki sharhlaridagi fikr-mulohazalar va qarashlar yanada to'ldirilgan, rivojlantirilgan va mukammallashgani kuzatiladi. Chunonchi, olim "Tasavvuf va she'riyat" risolasida Alisher Navoiyning shu vaqtgacha asl mazmuni to'g'ri talqin etilmagan quyidagi ruboysiiga e'tibor qaratadi:

Yo'q dahrda bir besar-u samon mendek,
O'z holig'a sargashtau hayron mendek.
G'am ko'yida xonumoni vayron mendek ,
Alqissa, aloxonu alomon mendek.

Bu ruboyni Hodi Zarif Navoiyning "qarigan chog'ida umrida ko'rmish ham kechirmishlariga yakun yasab, o'z davridan noroziliklarni, baxtsizlik va qayg'ularni ifodalagan ruboilyardan, deb e'tirof etgan edi.

Ibrohim Haqqul esa bu fikrga qo'shilmay, shoir ruboyni yoshlik yillarida yozgan, undagi "O'z holiga sargashta-yu hayronlik", davrdan norozilik ham, baxtsizlikni ham aks ettirmaydi, – deydi va ruboiy mazmuniga mos shoirning o'z g'azalidan bayt keltiradi:

Chorayi kor istabon bechoraliq ko'nglim tilar,
Xonumon tarkin qilib, ovoraliq ko'nglum tilar.

Olimning fikricha, ruboiyga izhor etilgan "besar-u somon"lik ayni shu bechoraliq va ovoraliq tilagining voq'e bo'lishidir. Uning fikriga aniqlik kiritish uchun rus faylasufi N.A.Berdyyayevning "Ilohiy-mistik idrok bu, bexushlik va voz kechish demak. Faqat aqldan begona kishilargina donishmand bo'ladilar. Faqat shulargina sirni anglab yetadilar. Devonalik va

tark qilishdan qo‘rqan donolar hech qachon ma’rifat cho‘qqisini egallab bilmaydilar”, – degan fikrini misol sifatida keltiradi.

Alisher Navoiy she’riyatida ishq mavzusi markaziy o‘rinda turishi barchamizga ravshan. Ulug‘ shoir ruboilarida ham ishq sirlari va haqiqatdan bahs yuritilgan holatlar juda ko‘p. Chunonchi, u bir ruboysida ishq “g‘avg‘o”larini shunday tasvirlaydi:

Ko‘nglumni g‘am-u dard ila qon ayladi ishq,
Ko‘z yo‘lidin ul qonni ravon ayladi ishq,
Har qatrani, bilmam, qayon ayladi ishq,
Bedil ekanim bo‘yla ayon ayladi ishq.

Olim “Navoiyga qaytish” risolasida ushbu ruboiydagi “Bedillik”ka tegishli e’tirof o‘quvchida fikr qo‘zg‘alishini aytadi. U ruboiy tahlili munosabati bilan Alisher Navoiy she’riyatidagi juda murakkab, manzarali va serqirra bo‘lgan ishq masalasi xususida fikr yuritadi.

Ibrohim Haqqul Alisher Navoiyni faqat majoziy yoki ilohiy ishq kuychisiga chiqarishni biryoqlamalik va mahdudlik, deb biladi. Olim “Ulug‘ shoir she’rlaridagi ishqni shu zaylda tahlil qilish – Navoiyni ulug‘lash emas, kamsitishdir”, – deydi.

Olimning e’tirof etishicha, Alisher Navoiyning ishq yo‘li – insoniylik mohiyati ilohiylik mohiyatidan ayri emasligini ta‘kidlagan. U o‘z fikrlarini davom ettirib: “Ilohiy sifatlarini zohir etish faqat insonga ato qilinganini anglashga xizmat qiladi, ulug‘ shoir asarlari, she’rlarida majoziy muhabbatdan balandga yuksalish haqiqiy ishqqa yaqinlashishi martabasi hisoblangan ruhoniy sevgini yuzaga keltiradi”, – deydi. Bunday “oshiqi zor”larning dini ham, e’tiqodi ham ishq va go‘zallikdir. Shu bois “bedil”lik ularga qismat erur.

Umuman, ushbu ruboiy tahlili orqali Ibrohim Haqqul buyuk Alisher Navoiyning ishqqa bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri hal etish usulini ko‘rsatib bera olgan. Olim bu maqolasida Ibn Arabiyning “Tarjimon ul-ashvoq” to‘plami va muallifining shu kitob uchun yozgan sharhlar asari haqida mavzuga mos tarzda ma’lumot berib o‘tganki, bu ma’lumotlar orqali o‘quvchilar mumtoz she’riyatimizda qalamga olingan “qosh”, “ko‘z”, “kiprik”, “yuz”, “ko‘z” kabi ramzlar mohiyati o‘zgacha ekanini bilib oladilar.

Adabiyotshunos ijodini tadqiq etish shundan dalolat beradiki, Ibrohim Haqqul Alisher Navoiy ruboilyari, ularning mavzu ko‘lami, obrazlar ifoda etgan mazmun xususida chuqur izlanishlar olib borgan olim ekanligi ayonlasha boradi.

Uning bir qator risolalarida ulug‘ shoirning davr mafkurasiga ko‘ra, talqin etilgan to‘rtliklari qayta ko‘rib chiqilib, ruboilar ifoda etgan asl maqsad, muddao oydinlashtirilib berilgan.

Olim ruboiy tahlili orqali Alisher Navoiyning umumshe’riyatiga xos falsafiylik, donishmandlik, teranlik so‘z va tasviridagi mohirlik kabi fazilatlar ijodkorning ruboilarida ham zohirligini ko‘rsatib bera olgan.

Ibrohim Haqqulning yuqorida nomi keltirilgan sarlavha ostida maqolasi ushbu jumlalar bilan boshlanadi: “Hayotdan marhamat kutish yaxshi. Uning marhamatsizliklarini “marhamat” o‘rnida qabul aylash undan ham foydali. Zero, xuddi shu marhamatsizlik odamlarni kuchli va kuchsiz, g‘ayratli va g‘ayratsiz, nekbin va badbin, qo‘rqoq va jasurga ajratadi.” Haqiqatdan, insonni jasur sifatida tarbiyalaydigan unsurlar bisyor. Jisman jasurlik birlamchi. Ammo ruhan jasurlik shaxs sifatida shakllanish uchun muhim. Ushbu maqolada Shaxs sifatida shakllangan, o‘z izidan qator yoshlarni, ziyolilarni ergashtira olgan ibratli umr yo‘liga ega Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir haqida fikr yuritiladi. Mavzu o‘z-o‘zidan Fitratning adabiyotshunoslik sohasiga qo‘shgan hissasiga borib taqaladi. Ma’lumki, Fitrat faqat shoir emas, ulkan she’rshunos hamdir. Ayni uning shu jihatni yoritiladi. “Adabiyot qoidalari”da tanlangan she’rlar, ularning tahlilining o‘zi Fitratning mahoratidan darak beruvchi unsurdir. Qo‘llanmada Hazratning g‘azal, tuyuq, tarjibandlari, “Mezon ul-avzon”, “Mahbub ul-qulub”, “Munshaot” asarlaridan ketma-ket namuna, iqtiboslar keltirilgan. Dastavval, daholik qanday belgilanadi, degan savolga javob izlanadi. Ibrohim Haqqul o‘zi izlayotgan masalaga quyidagicha izoh keltiradi: “Umuman, daholik qanday belgilanadi, mezonlari qanaqa va ularni kim qandoq qabul qiladi-bizningcha, bunda yagona fikr va qoida yo‘q. Bo‘lishi mumkin emas. Aks tarzda bir daho ikkinchi dahoni inkor etishiga tarix guvohlik bermasdi”²⁶. Biz Abdurauf Fitratning nafaqat o‘z davri, balki barcha davrlar uchun ibratli hayot yo‘li, ilmiy izlanishlaridan xabardormiz.

²⁶ Ҳакқулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б-32 .

Ammo ayni damda biz Fitratning “Adabiyot qoidalari” asaridagi ruju’ san’ati doirasida bildirgan fikrlariga to‘xtalmoqchimiz: “Navoyining:

Bo‘lmasa ishq, ikki jahon bo‘lmasun,

Ikki jahon demaki, jon bo‘lmasun –

deganidag‘i qaytish mana shunday keraksiz qaytishlardandir. Chunki bu ikki jahon bo‘lmasun deganiga rozi bo‘lmay, yo‘q, jon bo‘lmasun, deydir. Holbuki, ikkinchi fikri birinchi fikridan kuchsizdir”²⁷.

Bizningcha, Fitrat bu fikrlar orqali Navoiy shaxsiyati, uning uslubiga dahl qilishdan yiroq. Bizdan avval bu masalaga qator olimlar to‘xtalib o‘tgan. Maqolada Ibrohim Haqqul ushbu fikrga munosabat bildirgan olimlarning nomlarini sanab o‘tadi. Xususan, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida filologiya fanlari doktori Suvon Melievning “Hazillashmang daho bilan” maqolasidan iqtiboslar keltirilgan. Navoiyning buyukligini isbotlovchi “arzimas narsalar” orqali to‘la ochilishiga dalolat beradi. Jumladan, filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev Fitratning qo‘llanmasiga yozgan so‘z boshisiga fikr bildiradi: “Navoiy davrining nuktadon munaqqidlaridan biri – Zayniddin Vosifiyning naql qilishicha, hazrat Mir Alisher Navoiy “she’rshunoslikni shoirligidan ham ulug‘ sifat” deb qadrlagan ekanlar. Ushbu o‘rinda Ibrohim Haqqul Suvon Melining maqolasida keltirilgan fikrlarni yoqlaydi. Ammo A.Xolmurodovning fikrlarinini tanqid ostiga oladi. “Maqolaning qariyb yarmini tashkil etgan “Qirol Lir” tradegiyasidagi Masxara obrazi bilan bog‘liq mulohazalarning ahamiyatini ta’kidlar ekan, “Fitrat xuddi shunaqa she’rshunoslardan. Fitratning she’rshunosligi–mohiyatshunoslik, ruhoniyatshunoslik, nafosatshunoslik va mahoratshunoslikning uyg‘unlashuvidir. A.Xolmurod o‘z maqolasida “cho‘ng teosofik fikr” degan iborani ishlataladi. Ammo bu so‘zni ishlatalishini Ibrohim Haqqul tanqid ostiga oladi. “Modomiki, Navoiy va Fitrat bahs mavzusiga aylangan ekan, maqola o‘qib maqola yozishdek jur’atkorlikdan saqlanish zarur edi. Fikrimizcha, nafaqat doston, balki butun “Xamsa”dagi tayanch nuqtalardan biri bo‘lmish mazkur baytda ulug‘ shoir nega “jon”ni “ikki jahon”dan yuksak mavqe’ga qo‘ymoqda?”²⁸

²⁷ Ўша асар. Б–35.

²⁸ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б–118 .

Tasavvufda – ishq eng asosiy istiloh. Ishq bo‘lmasa, jon, ruh, jism keraksiz tushuncha. Bizningcha, ushbu bayt ishqning olamshumul mohiyatini anglash uchun aql emas, balki ko‘ngil qodirligi haqidadir. Aslida ishq va ko‘ngul haqidadir. Hazrat Navoiyning yuqoridagi baytini izohlashda Ibrohim Haqqul jon, ikki jahon tushunchalariga to‘xtalib o‘tadi. Olim ushbu istiloh bilan bog‘liq Fuzuliyning misralaridan foydalanadi. Maqola so‘ngida Ibrohim Haqqul Fitratning fikrlariga quyidagicha izoh beradi: “Eng asosiysi, kashf holatlarida qalam tebratgan san’atkor borki, aytarli hammasining ijodida tanqid qilishga til bormaydigan juz’iy nuqsonlar uchraydi. Bizningcha, Fitrat ham masalaga boshqa bir miqyos bermagan. Bor-yo‘g‘i birgina so‘z mazmuniga e’tiroz etgan, xolos.

She’r yaraldimi, uning tahlili ustida bahs-munoza bo‘lishi tabiiy. Adabiyotning qaysi yo‘nalishida qalam tebratishdan qat’iy nazar ijod ilohiydan keladi. Ilohnинг o‘zi yuqtirmasa, iste’dod bo‘lmasa, barcha urinishlar bekor. Bir ijod namunasi ustida ko‘pgina olimlar, munaqqidlar bahs qilganlari bizga ma’lum.

Alisher Navoiyning “G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas” deb boshlanuvchi ruboysi tahlili ustida ko‘pgina munozaralar, bahslar bo‘lgan. Avvalo, shoirning ushbu ruboysining yaratilishi, to‘liq matniga to‘xtalamiz. Bizdagi ma’lumotlarga qaraganda, ruboiy dastlab shoirning muxlislari tomonidan tartib berilgan “Ilk devon”iga kiritilgan va uning matni quyidagicha berilgan:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga rafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltun qadah ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikondek oshyon bo‘lmas emish.

“Xazoyin ul-maoniy”dagi variantda ikki so‘z o‘zgartirilgan. “Rafiq” so‘zi “shafiq”qa, “qadah” so‘zi “qafas”ga o‘zgartirilgan. Munozaralar xuddi ana shu o‘rinda boshlanadi. Ushbu ruboiy haqida yetuk adabiyotshunoslar Yevgeniy Eduardovich Bertels, Natan Mallayev, Omonilla Madayev, Yoqibjon Is’hoqov, Abduqodir Hayitmetov, Nusratulla Jumaxo‘jayev va qator olimlarning tahlillari mavjud. Shu bilan birgalikda, Ibrohim Haqqulning ham ushbu ruboiyga oid takrorlanmas tahlili e’tiborimizni tortdi. Olim dastavval o‘zigacha bo‘lgan ushbu ruboiy talqinlarini o‘rgandi. Bu o‘rinda mana shu mulohazalarni berishni joiz deb

bildik. Dastavval, N.M.Mallayevning oliy o‘quv yurtlari uchun yozilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida mazkur ruboiy “vatanparvarlik va erksevarlik” g‘oyasi ifodalangan she’r deyilgan. Hazrat Navoiyning umr yo‘llariga nazar tashlasak, haqiqatdan uning hayoti notinch va tahlikali o‘tgan. U goh Astrobodda, goh Samarqandda, goh Balxda yashashga majbur bo‘ldi. O‘z vatanidan ko‘p muddat judo yurdi. Shu sababli N.Mallayev ruboiy tahlilini vatandan uzoqda yurgan shaxsning kechinmasi deya baholaydi. Hatto yangi avlod maktab darsliklarida bugungi kungacha ushbu ruboiy tahlili xuddi shunday deb o‘quvchiga singdirilib kelindi.

Yana bir sabab o‘rtaga keladi. Navoiy nega aynan ikki so‘zni o‘zgartirdi? Tahrirning boisi nima edi? Y.Is’hoqov o‘z kitobida bu savolga javobni quyidagicha beradi: “Birinchidan, “rafiq” va “mehribon” so‘zлari uyushiq bo‘lak bo‘lib kelgan. Vaholanki, bu ikki so‘z ikki xil tushunchani bildiradi, uyushiq bo‘lak bo‘la olmaydi, balki “rafiqi mehribon” (mehribon o‘rtoq) tarzida izofa bo‘lishi mumkin. Shuningdek, rafiq (o‘rtoq) bo‘lmagan odamning mehribon bo‘lmasligi o‘z-o‘zidan ma’lum va bu taajjublanarli hol emas.” Y.Is’hoqovning ushbu fikrlariga Ibrohim Haqqul quyidagicha izoh beradi: “Olimning hukmiga ko‘ra, bir-biriga mos tushunchalarni, ifoda qiluvchi so‘zlarni uyushiq bo‘lak qilmaslik” avtor uslubidagi chalkashlik”dan iborat bo‘lib, u keyin tuzatilgan. She’r tarkibidagi so‘z o‘zgartirilishi o‘zini oqlagan, albatta. Lekin tahrirda Alisher Navoiy “uyushiq bo‘lak xususida o‘ylaganmikin?”²⁹ Olim Ibrohim Haqqul so‘zlar tahlilini g‘arib xarakterining ichki mantig‘idan izlashga undaydi.

Y.Is’hoqov o‘z fikrini dalillashda davom etadi: “Ikkinchidan, shoir o‘zining g‘ariblikdagi og‘ir hayoti, o‘z vataniga bo‘lgan ishtiyoqi va intilishini kuchaytirib berish maqsadida, qiyoslash sifatida, keyingi baytni keltiradi: vatandan judolikni bulbulning gulzordan ajralishiga o‘xshatadi. Ana shu baytdagi “oltun qadah ichra qizil gul butmoq” misrasi mubolag‘a sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, birinchi baytdagi mazmunni kuchaytirish, bo‘rttirishga xizmat qiladi: gul “oltin qadah” (tuvak, kosa) da o‘stirilgan hamki baribir bulbulga gulzordagi tikanlar kabi aziz va qadrdon bo‘lmaydi. Demak, g‘urbatdagi inson uchun o‘z vatanining bir siqim tuprog‘i har qanday

²⁹ Ҳаққулов И. Тасаввув ва шеърият. – Тошкент: «Ғ.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси», 1991. Б – 118 .

boylikdan aziz va qadrlidir”³⁰. Shu o‘rinda Navoiyni Vatan haqida yozgan baytlarini eslashni joiz deb bildik. Masalan, ustozi Said Hasan Ardasherga yozgan maktubida:

Ki bo‘lmoq vatan ichra dushvor edi,
Ko‘ngulga jafo daf’i ozor edi

Ushbu o‘rinda Ibrohim Haqqul Maqsud Shayxzodaning ushbu fikrlarini esga oladi: “Navoiy hatto Xuroson sultanatini yiroq viloyatlariga borganda ham, o‘zini “g‘urbat”da his etgan”. Haqiqatdan Hazrat Navoiyning 1465 - yilgacha hayotiga nazar tashlasak, o‘sha davrda u Mashhadda yashagan. Bir qarashda Y.Is’hoqovning tahlilida hech bir ikkilanish, shubha yo‘qdek tuyuladi. Bu haqida adabiyotshunos A.Hayitmetov: “Navoiyning o‘z tug‘ilgan ona shahri Hirotdan, qavm-u qarindoshlaridan uzoq Mashhadda kechirgan yillari ancha mashaqqatli bo‘lgan bo‘lsa kerak”, – deydi.

“G‘urbat” va “g‘ariblik” so‘zlarini Ibrohim Haqqul she’r yozilgan yil, makonni aniqlash uchun “ochqich” deb ataydi. “Vatandan judolik – g‘urbat. G‘urbatda yashash – g‘ariblik. Balki “g‘urbat” biz o‘ylagan judolik dardidan boshqa narsadir? “G‘arib” ham o‘zgacha maslakdagi g‘aribdir. Shunday bo‘lishi mumkinmi?”³¹ Mana shu o‘rinda Ibrohim Haqqul ruboyni o‘ziga xos tahlil etish yo‘lidan boradi. Tahlil etish jarayonida Y.E.Bertels nashrga tayyorlagan “Mir’oti ushshoq” lug‘atida keltirilgan “g‘urbat” so‘zining izohiga to‘xtaladi. Unda “g‘urbat – jonon haramidan dil-u jonning yiroqlashuvi; poklik olamidan ajralib nafs-u sharni yaqin bilmox”, – deb ta’riflangan. Shu bilan birga, Sayyid Sajjodiyning ham tasnifini keltirib o‘tadi:

“1.Vatandan judolik g‘urbati.

2.Johil va fosiq qavm orasida majburan, ya’ni g‘ayriixtiyoriy ravishda o‘tirgan odam g‘urbati.

3.”G‘urbat Haq talabi bo‘lib, bu – orifning g‘urbati, zero orifning himmati ma’rufdirki, u oxirat ahli orasida ham g‘aribdur ”

Ushbu manbaga asoslanib olim quyidagi xulosaga keladi. Uning nazdida, o‘z vujudini qafas sezgan aslida g‘arib, gunoh va musibatlarga to‘la

³⁰ Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. Тошкент: «Фан», 1965. Б – 133-134 .

³¹ Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: «Ғ.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси», 1991. Б – 120 .

olamni ruh bulbulning qafasi deb biladi. “Tasavvuf ta’limotida g‘aribning ilohiy erki –“Anal-haqlik”³². Fikrlarini yanada qaror toptirish uchun xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan ushbu maqolni ham keltiadi: “G‘aribning ko‘ngli – tangrining uyi”. G‘arb san’atkorlaridan biri she’r tahlillida uni dastlabki ma’nosini Janobi birinchi musofir, deydi. Olimlarimiz bahsiga sabab bo‘lgan ruboiy talqinlarida ayrim tadqiqotchilar musofirni, boshqa birovchlari shu musofirning ichki kechinmalarini hisobga olib fikr yuritishgan. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul o‘zigacha bo‘lgan tahlillarni inkor etmaydi. Ammo shunchaki “qo‘l siltab” ham qo‘ymaydi. U maqolasini quyidagi so‘zlar bilan yakunlaydi: “Shunday qilib, ruboiydagi ikkinchi ma’no qatlami birinchisidan farqlanadi, biroq uni inkor etmaydi. Alisher Navoiyning san’atkorligi ham ana shunda.”

Ibrohim Haqqul tahlillarini o‘qigan kitobxon, ulug‘ shoir dunyoqarashi va qalb olami bilan yaqindan tanishish, Navoiy she’rlaridagi har bir so‘z zamirida o‘zgacha mazmun mavjudligini o‘zicha mushohada qilishi shubhasiz.

1.3. Qit’a : g‘oya va talqin

Qit’a she’riy shakl sifatida qasida va g‘azaldan ham ilgariroq paydo bo‘lgan “Haft qulzum” muallifi Qabul Muhammad bu she’riy janr haqida shunday degan edi : “Qit’a lug‘atda narsaning parchasi bo‘lib , abyot qilingan vazni, qofiyasi, va matla’i bo‘lmaydi. Agar matla’yi bo‘lsa, 19 baytgacha g‘azalga, undan ziyoda bo‘lsa qasidaga aylanadi. Qit’aning me’yori 2 baytdir va ko‘pincha muayyan me’yori bo‘lmaydi ”³³.

Qit’a Sharq xalqlari adabiyotining eng ko‘hna she’riy janrlaridan biri hisoblanadi. Bu janrda turkiy she’riyatning Nasimi, Fuzuliy, Lutfiy, Ogahiy, Navoiy kabi ulug‘ san’atkorlari samarali ijod etganlar. Qit’aning paydo bo‘lish tarixi va poetik xususiyatlari uzoq asrlardan buyon olimlarning diqqatini jalb etib keladi. Ba’zi olimlar qit’ani mustaqil she’riy janr deb hisoblasalar, ikkinchi birlari qasida yoki g‘azalning parchasi, bo‘lagi sifatida qaraydilar. Qadimgi adabiyotshunoslardan Abdurahim Ibni Ahmadi Sur yozadi: “Qit’a bir necha baytli matla’siz she’r. U g‘azal yoxud she’rdan kesib olinadi”. Bu fikrdan xulosa chiqariladigan bo‘lsa, g‘azal yo she’rdan uzib

³²Уша асар. Б-121 .

³³Ҳаккулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 121 .

olingan har qanday parchani qit'a deyish mumkin. Bunday bir yoqlamalik boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ham uchraydi. Tojik adabiyotshunosi B.Sirus: “Mazmun jihatdan qit'a g‘azaldan kam farq qiladi” , – deydi. Holbuki, bunday emas. Qit'a turli tuman hayotiy masalalar, kundalik turmush bilan bog‘liq ma'nolarni tasvirlashga imkon beradigan janr. Bundan tashqari, qit'aning obrazlar olami o‘ziga xos. U badihabop she’riy shakl bo‘lgan. Chex olimi Yan Ripkaning yozishicha, badiha usulidagi she’riy musobaqalar, o‘siprin shoirlarni sinovdan o‘tkazish yoki turli maqsadlarda hukmdorlar huzurida uyushtirilgan mushoiralarda asosan qit’adan foydalanilgan. Qit’ada ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy maslalar ifodalalangan, shoirlar realistik qarashlari, davr va zamonga munosabatlarini aks ettirganlar. Shuningdek, marsiya, chiston, madhiya bitilgan. Mir Alisher Navoiyning qit’alarida tabiatdagi oddiy qurg‘oqchilik hodislaridan tortib, koinot sir-asrorlarigacha, chumolidan tortib, inson holati va qismatigacha, barcha-barchasiga munosabat bildirilgan.

Boshqa lirik janrlarga nisbatan qit’ada erkinlik ustun bo‘ladi. Unda g‘azal va boshqa she’riy janrlarda belgilangan talab va qonuniyatlar yo‘q. Qit’ada fikr lo‘nda, ixcham hikmatomuz tarzda ifoda etiladi.

Xo‘sh, Alisher Navoiy bu janrda barakali ijod qilgan ekan, daho san’atkorlarning o‘z qit’alarida ilgari surgan ijtimoiy- siyosiy, axloqiy qarashlari, ushbu she’riy shakldagi badiiy mahorati masalalarining olimlarimiz tomonidan o‘rganilishi qay darajada? Chunonchi, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug‘afurov, Yoqubjon Is’hoqov kabi olimlarimizning shu mavzuga doir maqolalarini eslash maqsadga muvofiq. Bu borada, ayniqsa, Ibrohim Haqqul izlanishlari alohida e’tirofga loyiq.

Ibrohim Haqqul boshqa navoiyshunoslarimiz kabi Alisher Navoiyning 5-10 ta qit’asining tahlili yoxud bu boradagi fikr-mulohazalarini bir-ikkita maqolada bayon etish bilan cheklanib qolmagan. U bu borada faol ish olib borib, “ Kamol et kasbim” risolasini nashr ettirdi. Unda ulug‘ shoir qalamiga mansub 114 ta qit’aning g‘oyaviy - badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Qit’alar tahlilian shu ayon bo‘ldiki, 114 qit’adan 20 ga yaqini bevosa tasavvuf bilan bog‘lanadi. Qolgan qit’alar bevosa ijtimoiy hayot, turmush tarzi, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda Navoiy o‘zining hayotiy qarashlarini mujassam etgan. Qit’alar mavzusi haqida fikr yuritganda shaxsni barkamollik darajasiga olib chiquvchi omillar sanab o’tiladi. Bundan

tashqari, olim o‘zining “Tasavvuf va she’riyat”, “Navoiyga qaytish”, “Ishq va hayrat olami” risolalarida ham bu boradagi qarashlarini bir necha fasllarda ifoda etgan.

Ibrohim Haqqulning fikricha, qit’a – turli-tuman hayotiy masalalar, kundalik turmush bilan bog‘liq ma’nolarni tasvirlashga imkon beradigan janr. Olim o‘z fikrini isbotlash maqsadida bir nechta manbalarga murojaat etadi. So‘ng so‘z Alisher Navoiyning qit’a yaratish mahorati haqida fikr boradi. Bundan tashqari, u qit’ada ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masalalar ifodalalangan, shoirlar realistik qarashlari, davr va zamonga munosabatlarini aks ettirganlar, shuningdek, marsiya, chiston, madhiya bitilganligiga e’tiborini qaratadi. Olimning fikrlariga ko‘ra, Mir Alisher Navoiyning qit’alarida tabiatdagi oddiy qurg‘oqchilik hodisalaridan tortib koinot sir-asrorlarigacha, chumolidan tortib inson holati va qismatigacha, barcha-barchasiga munosabat bildirilgan.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul- maoniy” devoni dagi 210 ta qit’adan qariyb 200 ga yaqini ikki, uch va to‘rt baytli. Ushbu hodisaga olim quyidagicha munosabat bildiradi: “Bu tasodifiy hodisa emas, albatta. Chunki klassik san’atkorlarimiz mumkin qadar ixchamlikka intilganlar”³⁴.

O‘zbek adabiyotshunosligida Navoiy qit’alari ancha vaqtlardan buyon o‘rganib kelinadi. Bu o‘rinda A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, P.Orzibekov, Y.Is’hoqov, I.Haqqul va boshqa olimlarning tadqiqotlarini eslash mumkin.

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlar singari Ibrohim Haqqul ham Alisher Navoiy qalamiga mansub ko‘pgina manbalarni o‘rganib, bizlarga ancha sharhlarni, sharh qilishga oid usullarni meros qilib qoldirgan. Shular jumlasidan, juda ko‘p izlanishlar natijasi, adabiyotimizning yana bir xazinasi bo‘lgan “Kamol et kasbkim” asarining nashr qilinishi tafsinga loyiqidir. Haqiqatdan ham ushbu kitobni o‘qir ekansiz, ko‘plab izlangan afsona, rivoyat, hikoyat, kuchli qalam sohiblarining so‘zлari orqali qit’alar ma’nosи juda ham chuqurroq qilib ochib berilganligining guvohi bo‘lasiz. Ushbu kitob 1991-yilda nashrdan chiqqan. Unda Alisher Navoiyning qator qit’alari sharhlangan. Kitob muqaddimasi Alisher Navoiyning quyidagi misralarini keltirish ila boshlanadi: “Ne nazmki o‘tlug‘ ko‘nguldin chiqordim”. So‘ngra har bir qit’a va uning sharhi keltirilgan. Kitob sarlavhasiga aylangan qit’a va boshqa mazkur janr namunalarini sharhini mazmuniga ko‘ra bir nechta

³⁴ Ҳаккулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 5 .

guruhlarga ajratdik. Ya’ni hikoyatlar hamda o’tkir qalam sohiblarining hikmatli so‘zлari vositasida ifodalangan sharhlarni tadqiq qilishga harakat qildik.

Ibrohim Haqqul o‘z kitobida ushbu qit’a tahliliga alohida e’tibor qaratgan:

Kimki maxluq xizmatig‘a kamar
Chust etar — yaxshiroq ushalsa beli.
Qo‘l qovushturg’ucha bu avlodur,
Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.
Chun xushomad demakni boshlasa kosh,
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.

Ushbu badiiyat namunasida Hazrat Alisher Navoiy insoniyat orasidagi mavjud bo‘lgan ayrim ma’naviy tuban va tamagir kimsalarning qilmishlari haqida fikr yuritgan. Qit’aning birinchi misrasidagi “maxluq” lisoniy birligi haqida shunday mulohazlar yuritgan: “Xoliq — yaratuvchi, ya’ni Xudo. Maxluq — yaratilgan. Odam ham maxluqlardan biri”³⁵.

Olimning fikricha, odamzod, eng avvalo, o‘zining Yaratuvchisini tanishi va bir umr unga xizmat qilishi lozim. Odamning odamga ta’zim qilib, manfaat va g‘araz yuzasidan unga xushomad qilishi insoniylikka butunlay ziddir. Olim bu o‘rinda maxluq so‘zining konnotativ ma’nosini ham ko‘rsatib o‘tadi. Odamlar yaramas xulqli, tuban kimsalarni ham maxluq deb ataydilar. Binobarin, qit’a muallifi bo‘lgan ulug‘ shoir xushomad qiluvchi va qo‘l qovushtiruvchi, manfaatparast kimsalarni mana shunday salbiy ma’no bildiruvchi so‘z bilan atagan. Bu haqida kitobdagи mana bu so‘zlar yuqorida bildirilgan fikrlarni isbotlashga xizmat qilishi mumkin: “Mir Alisher Navoiyning xushomad va tilyog‘lamalikka munosabati naqadar salbiyligini shundan ham anglash mumkinki, u kishi xushomadgo‘yni la’natgagina loyiq”, – deb hisoblay olmay, balki uning uchun qarg‘ish ravoligini ham ta’kidlagan.

Bunday teran tahlil ilmiy - ma’rify ahamiyat kasb etish bilan bir qatorda tarbiyaviy mohiyatga egadir. Demak, ushbu talqin va tahlilarni o‘qigan kitobxon qit’ada ulug‘ shoir ifoda etgan fikrlarni tushunish bilan bir qatorda hayotda xushomadgo‘ylikning nafratga loyiqligini ilg‘ab oladi.

³⁵ Ҳакқулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 5 .

Olim qit’alar tahlilida bir nechta yo‘ldan, bir nechta usuldan boradi. Qit’alar mazmunini yortishda bir o‘rinda turli hikoyat va afsonalardan namuna keltirsa, boshqa o‘rinda buyuk shaxslar so‘zlari hamda to‘rtliklari ila sharhlashga qo‘l uradi.

Quyidagi qit’alarning tahlilida olim afsona va rivoyatlardan
foydalangan.

Erur orifqa ganji fayz yetsa,
Ishi dam urmayin ani yoshurmoq.
Quyosh aksi tushub daryo ichinda,
Ne mumkindur aning suvin toshurmoq

“Erur orifqa ganji fayz etsa” deb boshlanuvchi qit’ a sharhida Ibrohim Haqqul ko‘zi ojiz inson haqida hikoyat keltiradi. Hikoyatda bir odamning ko‘zi ojiz bo‘lsa ham, zamonining eng donishmand kishisiga aylanganining sababini so‘rashibdi. Bunday oliy maqomga erishish hamda inson va hayot mohiyatni anglash uchun qalb ko‘zi ochiq bo‘lishi lozim bo‘ladi, bu hammaga ham nasib etavermaydi. Hikoyatda ana shunday fikr ustuvor. Mazkur sharhda Yunus Emro to‘rtliklari asosida lirik yaratmadagi asosiy fikr teran olib berilgan.

Qit’ada ulug‘ shoir orifni daryoga qiyoslaydi. Quyosh nurlari qanchalik daryoga tushmasin, daryo ko‘pirib toshmaydi. Adabiyotshunosning fikricha, shoir bu purma’no fikrlar bilan orif hech qachon o‘zligini yo‘qotmaydi, o‘z o‘zanidan uzoqlashmaydi, – degan g‘oyani ilgari surgan.

Jahon ganjig‘a shoh erur ajdaho,
Ki o‘tlar sochar qahr hangomida.
Aning komi birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho komida

Ushbu qit’ a mazmuni Ibrohim Haqqul tomonidan afsona orqali tahlil qilingan. Afsonalarning guvohlik berishicha, beba ho xazinalar yashirilgan joylarda ilon va ajdarlar o‘sha xazinalar yashirilgan joyda paydo bo‘larmish hamda xazinalarni poylab yotarmish. Mavlono Lutfiy ham shunday afsonalarga asoslanib quyidagi misralarni yozganlar:

Yuz uza zulfiq erur ganj ustida yotqon ilon,
Vah, o‘shul ganj orzusidir bizni vayron aylagan.

Olim o‘z tahlilida Mir Alisher Navoiy yozgan qit’ada afsona haqiqatga aylanganini aytib o‘tadi. Unga ko‘ra, ajdarho – shoh. Dunyo mol-mulkining

qo‘riqboni bo‘lgan shoh ajdarho misol shafqat neligin bilmaydi. Shohda ham, ajdarhoda ham g‘ayritabiiylik sezilmaydi. Hamma zamonda ham shohdanadolat kutiladi. Shuningdek, ular aytgan so‘z so‘z emas, balki o‘tga qiyos etiladi.

Bordilar yomg‘ur duosi qilg‘ali ahli riyo,
Men niyoz ahli edim, da’vi kamitin so‘rmadim,
Yomg‘ur ikkidur: biri ma’hudu ul bir ko‘z yoshim,
Ko‘z yoshim yo‘q erdi, to ul oyg‘a ko‘z oldurmadim.
Tengri yomg‘ur bermadikim, so‘zsiz erdi talab,
Manga kulgu keldi, ashkim yomg‘urin yog‘dirmadim³⁶.

Ushbu qit‘a tuzilishi, qofiyalanishi, hajm jihatdan ham oldingiqit‘alardan farq qiladi. Tahlil davomida olim “Sust xotun” marosimini ham esga oladi. Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tish kerakki, ushbu marosimni tadqiq etgan professor Bahodir Sarimsoqov “Sust xotun”ning quyidagicha amalga oshirilishiga to‘xtalib o‘tadi: “15-20 tacha kishi, asosan, erkaklar tunda bir yerda to‘planishar ekan. Ulardan ikkitasi eshak ustiga mindirilib, bir-biriga teskari qilib qo‘yilar ekan. Ularning orasiga esa 2 ta toshbaqani oyog‘idan bir ip bilan bog‘lab qo‘yishadi. Toshbaqalar tipirchilab yotadi. Bir erkakning qo‘liga suv solingan ko‘zacha, ikkinchisiga esa bir nechta qamish beriladi. So‘ngra ikkinchi odam qamishlarni suvli ko‘zachaga solib aylantira boshlaydi. Bular barchasi davomli bo‘ladi. Shunda ko‘zachadan ovoz kela boshlaydi. Ushbu ovozlarni go‘yoki, haligi qiynalayotgan toshbaqalarning ovozi deb qiyos etishadi. Shundan so‘ng eshak va uning ortidan barcha odamlar ko‘chalar bo‘ylab yurishadi hamda har bitta uy yoniga kelib “Sust xotun” qo‘shig‘ini aytishadi. Uydan chiqqan xonodon egasi, dastavval, eshakning ustidagi odamlarning ustiga suv sepib, so‘ngra ko‘nglidan chiqarib don, non, qo‘y, buzoq va shunga o‘xhash narsalar berib yuboradi”³⁷.

Alisher Navoiyning ushbu qit‘asi tahlili davomida muallif Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asariga murojaat qilgan. Unda Mahmud Qoshg‘ariy yomg‘ir chaqirish marosimini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligini, hatto bu marosimdan so‘ng yozda qor yog‘ganligini hayrat bilan tilga olgan. Yomg‘ir chaqiruvchilarni ulug‘ shoir Alisher Navoiy “ahli riyo” deb ataydi. Qit‘ani dastlab o‘qiganimizda, yuqoridagi ma’no

³⁶ Ҳаккулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 15 .

³⁷ Ҳаккулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б –105 .

anglashiladi. Ammo Ibrohim Haqqul hech qachon bitta yoki ko‘zga ko‘rinib turgan hodisot bilan ish ko‘rmaydi. Bu uning ham olim, ham kamolotga yetgan shaxs sifatida ko‘zga ko‘ringan jihatidir. Keyingi ma’noda yomg‘ir – insonning ko‘z yoshlariga qiyoslanadi. Hazrat Navoiy ko‘r-ko‘ronalik, yuzakilikni qattiq tanqid ostiga olib, hatto buni kulgili deb ham atagan. Haqiqatdan, insoniyat hayoti davomida shunday hodisotlar bo‘ladiki, ularni kuzatgan inson na yig‘lashni va ayni chog‘da na kulishni biladi. Aqli shoshib qoladi. Fikrimizcha, bu kabi holatlarda teran aql va yuksak mushohada barcha eshiklarning kaliti bo‘la oladi.

Yuqori o‘ltururni kim tilasa,
Kishilikdin ani yiroq bilgil,
O‘lturur safda yuqorilikdin,
O‘lturur safda yaxshiroq bilgil

Qit’ a mazmunini sharhlashda Ibrohim Haqqul qadim Xitoyda bo‘lgan hikoyatdan foydalangan. Hikoyat mazmuni esa quyidagicha:

“Qadimgi Xitoyda aka-uka ikki podshoh hukmronlik qilgan ekan. Ular uzoq vaqt bir-birlariga xalaqit bermasdan, birodarlikda davlatlarini boshqarishgan. Ammo katta shoh nihoyatda shuhratparast ekan. Shu sabab bo‘libdi-yu, o‘rtada nizo ko‘tarilibdi. Adovat qonli jangga aylanibdi. Oxiri, yoshi kichik podshoh og‘asini yengibdi. U akasidan so‘nggi tilagani so‘rabdi. Shunda u yengilganini aytib, inisi nimani xohlasa, barchasini olishi mumkinligini, barchasi uniki ekanligini aytibdi”³⁸. Faqat undan odamlardan yuqori turish va ularni boshqarish huquqini saqlab qolishni so‘raydi. “Yuqori o‘lturmak tilagi, ongli ravishda kimlarnidir o‘zingdan pastda ko‘rmoq rag‘batidir”, – deyiladi. Uning tilagi shu edi, xolos. Ibrohim Haqqul ushbu hirs bora-bora ko‘p pinhoniy zulmkorliklar, oshkora bepisandliklar va bag‘ritoshlikka olib kelishiga e‘tiborni qaratgan.

Ibrohim Haqqul ushbu masalaga shunday yondashadi: “Yaxshisi – oddiy odamlar qatorida bo‘lishda”³⁹. Chindan ham odamlar ustidan hukronlik qilish hissi insoniylikka zid. Hukmronlik qilish bilanadolat asosida hukronlikning farqi bor. Hukmronlik qilish faqat Yaratguvchiga yarashadi. Insonning inson ustidan hukmronlik qilishga ishtiyoqi balandligini hech nima bilan oqlab bo‘lmaydi. O‘zini o‘zgalardan yuqori qo‘yish – xudbinlik. Inson

³⁸Ҳаккулов И. Камол эт қасбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б –105 .

³⁹Ўша асар. Б–106.

xudbin bo‘ldimi, u na o‘zini, na Haqni taniydi. Ulug‘ shoir bu qit‘a orqali odamlarni bu yo‘ldan qaytaradi.

Tavozo’ yaxshi, ammo yaxshiroqdur
Agar da’b etsa oni ahli davlat.
Erur ham afv xo‘b-u xo‘broq ul,
Ki zohir bo‘lg‘oy el topqonda qudrat.
Ato ham turfa ishdur, turfaroq
Agar yo‘qtur oning yonida minnat,
Hakim insonni komil debtur oni.
Ki zotida bo‘lg‘ay bu necha xislat.

Ushbu qit‘a tahlilida ham Xusrav Parvez zamonida bo‘lib o‘tgan voqeа haqida so‘z boradi. Uning qisqacha mazmuni shunday:

Bir kuni Xusrav Parvez shikorga chiqadi, to‘s-to‘polonda uning tojidagi qimmatbaho tosh tushib qolganini hech kim payqamaydi. Saroya qaytgach, podshoh payqaydi va barchani toshni topishga otlanadiradi. Uning bahosi shu darajada ediki, bir toshning bahosiga mamlakatning bir yillik xirojini to‘lash mumkin. Topganga esa katta mukofotni va’da qilibdi. Shunda hamma qidirishni boshlabdi. Yo‘lda ikki insonga duch kelishibdi. Biri – g‘ofil, ikkinchisi – ogoh kishi ekan. G‘ofil inson manmanlikka berilgan, kibrli bo‘lib, ismi – Mudbil. Ogoh inson odobli va kamtarin bo‘lib, uning ismi – Muqbil ekan. Ular ko‘rishmoqchi bo‘lganda, Mudbil kibriligi uchun boshini egmabdi, gerdayib turaveribdi. Muqbilga kelganda, u egilib salom beribdi va to‘satdan yerda yotgan gavharga ko‘zi tushibdi. Shunda ular o‘z muammolarining yechimini Muqbil orqali topishadi. Muqbilni podshoh oldiga olib kelib, va’da qilingan mulkni podshoh Muqbilga beribdi. Mudbil esa hammomda go‘lax yoquvchi lavozimiga tayinlanadi. Ushbu rivoyat orqali tavoze’ning xususiyati haqida so‘zlanadi. Hazrat Alisher Navoiyning ushbu qit‘asi orqali tavoze’ni doimiy odatga aylantirish kerak ekanligini, u insonning bezagilagini Ibrohim Haqqul ta’kidlaydi.

Shah lutfi garchi bo‘lsa ko‘p qobil, topar nash’u namo,
Bevajhdur, bu nuktaga har kimsakim diqqat tutar.
Garchi quyoshtin parvarish olam yuziga omdir,
Sahroda qumg‘og‘u tikan, bo‘stonda sarv-u gul butar.

Quyidagi qit‘aning tahlilida Shayx Sa’diyning “Guliston” asaridagi hikoyatlardan biri keltirilgan. Uning qisqacha mazmuni esa quyidagicha:

Qaysidir podshoh o‘g‘lini bir olim tarbiyasiga keltirib topshiradi. Unga xuddi o‘zining farzandlariga berganday tarbiya, ilm berishini so‘raydi. Ya’ni xuddi o‘z farzandingday ulg‘aytirgin deb aytgan bo‘ladi. Yillar o‘ta boshlaydi, olim bolaga qancha ilm bermasin, bari zoye’ ketadi, ammo u qatori o‘zining farzandlari esa ilmi komil bo‘lib yetisharkan. Bulardan voqif bo‘lgan podshoh olimni yoniga chaqirib, va’daga vafo qilmaganlikda ayblaydi. Shunda olim shu tarzda javob beradi: “Ey malik, tarbiyaning rasm-u qoidasi bu yo‘sinda bo‘lur va lekin iste’dod turlichcha erur”⁴⁰. Endi yuqoridagi qit’ada aksini topgan falsafiy ma’no ham Shayx Sa’diy hikoyatidagi olimning hukmiga yaqin. Mamlakat hukmdori barchaga barobar yaxshilik, marhamat ko‘rsatdi, deylik. Bu lutfdan hamma ham teng bahramand bo‘la oladimi? Bu savolga Ibrohim Haqqul shunday javob yozadi: “Ha”, – deyish uchun isbot kerak. Hazrat Navoiy aynan mana shu dalillarni tamsil keltirish yo‘li bilan isbotlaydilar”⁴¹. Bu o‘rinda tabiat bilan bog‘liq tahlil ham beriladi. Quyosh butun yer yuziga birdek nur sochadi. Ammo sahroda tikan, bog‘da gul ko‘karadi. Ushbu qit’aning biz ilg‘amagan ma’nosiga olim qo‘shimcha izoh beradi. Insonning bag‘ri cho‘l-u biyobonga o‘xshab qaqrab yotgan bilan, unda shaxsiy fazilatlari shakllanmagan bo‘lsa noshudligicha qoladi. Bu toifalarni hech bir turtki, hech bir so‘z bilan o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Endi ikkinchi guruh, ya’ni buyuk shaxslar va ularning so‘zlari hamda to‘rtliklari ila sharh etilgan qit’alar mazmuniga to‘xtalib o‘tamiz.

Har imoratkim tugandi garchi sho‘xedur jamil,
Bo‘lsa koshi korlig‘ aylar jamolin birga o‘n.
Bu yaqindurkim, jamol ahli yolongliqdin base,
Yaxshiroqdur o‘lsa koshi naqshliq egnida to‘n.

Qit’a sharhi avval ta’kidlaganimizdek, akademik Ibrohim Mo‘minovning Amir Temur hukmronligi davrida Samarqandning tashqi chiroyi butunlay o‘zgarib ketganligi haqida aytgan so‘zlari bilan boshlanadi. Shundan so‘ng qit’a tahlilidan ayon bo‘lishicha, qurilgan va qurilajak imoratlarning shunchaki go‘zalligi shoirni qoniqtirmagan. Ibrohim Haqqul ta’biri bilan aytganda, “Imorat nozaninlarga o‘xshab chiroyli va ko‘rimli

⁴⁰ Ҳаккулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 132 .

⁴¹ Ўша асар. Б–132 .

bo‘lishi mumkin”⁴². Ammo “Bo‘lsa koshinkorlig‘ aylar jamolin birga o‘n”. Koshin – imorat g‘ishtlarining har xil rang va bo‘yoq berilib pishirilgani unga behad ko‘rk bag‘ishlaydi. Muallif sharhida koshin bilan naqshlash, bezakdorlik binoning bir jamoliga o‘n jamol qo‘sishi haqida so‘zlanadi. Chunki “jamol ahli” – husn-u latofat sohiblari ham egnidagi naqshli to‘nlari bilan jozibali ekanligi tahlil jarayonida oydinlashtirib beriladi.

Bizning imorat ichinda tuzilgan ikki manor
Ki qubbalaridin erurlar sipehr sonida.
Iki og‘a-inidur tav’amon gumon qilg‘il,
Ki farq yo‘q orada bo‘lsalar namoyanda.
Zamone zolini ko‘rkim ne nav bikr o‘lg‘ay,
Ki mundoq, ikki o‘g‘il andin o‘ldi zoyanda.

Tahlil uchun tanlangan qit‘a sharhi G‘iyosiddin Xondamirning Mir Alisher Navoiyning mansabdorlik paytlarida Xuroson atrofida ko‘p imoratlar qurdirganliklari haqidagi fikrlari bilan boshlangan. Tarixchi Xondamirning fikrlariga ko‘ra, Alisher Navoiy nafaqat binokorlik ishlariga homiylik qilgan, balki “ko‘pincha etakni bar urib, mardikorlar qatori”⁴³da mehnat qilgan. Odamlarga har jihatdan o‘rnak bo‘la olgan. Tahlil asnosida qit‘ada o‘sha imoratlardan birining ichida “tuzilgan ikki manor” ta’riflangani aytildi. Bu ikki minorning muhtasham qubbalari osmon qadar yuksalgan. Muallif sharh jarayonida ularni tav’amon – egizak deydi. Qit‘adan xulosa shuki, tuzishdan ko‘ra buzishni, obodlikdan ko‘ra xaroblikni istaydigan davr va zamonga munosabat bildirilgan.

Bashar xayli anga majbul erurlar,
Ki bo‘lg‘ay har biri o‘z ollinda mahbub.
Ajab yo‘q necha qilsa nomuloyim
Kishiga kelsa o‘z mahbubidin xo‘b.
Va lekin lozim ermas buki bo‘lg‘oy,
Aning marg‘ubi dog‘i elga marg‘ub,
Ham andohkim kishi farzandi bo‘lg‘oy,
Necha mankub esa ollinda matlub,
Kishiga ayta olg‘aymu ki bo‘lsun,
Sanga ham yoru matlub ushbu mankub,

⁴² Ҳаккулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 90 .

⁴³ Ҳаккулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 91 .

Hunar ahli ani degilki bo‘lg‘oy,
O‘zini qilsa o‘z ollinda ma’yub.
Chu o‘z aybig‘a vohif bo‘ldi aybin.
Nechuk qilg‘ay hunar o‘rnig‘a mahsub.

Ushbu qit'a ulug' shoir ijodxonasiagi boshqa qit'alardan tuzilishi jihatdan farq qiladi. Sababi Navoiy ijodida to'rt baytdan iborat qit'alar ko'p uchraydi. Ushbu qit'a bo'lsa hajman yirik, ya'ni o'n to'rt baytdan iborat. Ushbu qit'a tahlilida muallif insonlarning xislatlari va toifalari haqida aytib o'tadi. Bunda Alisher Navoiyning ushbu jumlalarini keltirish orqali sharh teran ifodalangan: "Xudparastdan budparastlik yaxshiroqdur. Butparast butga sig'inadi, xudparast esa o'ziga sig'inadi"⁴⁴. Bu – hayotdagi eng katta baxtsizlik ekanligi sharh davomida ohib berilgan. Ibrohim Haqqul qit'ada keltirilgan "hunar ahli" birikmasiga bilim, fazilat va iste'dod egasi deb ta'rif beradi. Ular xudbin, o'z manfaati yo'lida hech kim, hech nimani ayamaydigan kimsalardan ustun.

Shu bilan bir qatorda Ibrohim Haqqul qit'alar sharhida Ahmad Yassaviy, Ibn Sino, Suqrot, Konfutsiy, Ahmad Yugnakiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Ahmad Donish, Haydar Xorazmiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqa ko'plab o'tkir qalam sohiblarining so'zlari, asarlaridan iqtiboslar keltiradi. Bundan tashqari, olim tahlil jarayonida Qur'oni Karim, Hadisi Sharifdan olingan namunalardan foydalanadi. Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda, Hazrat Alisher Navoiy "g'azal mulkining sulton'i"dir. Bizningcha, ulug' shoir nafaqat g'azal, balki qit'a janrida ham o'z bayrog'ini o'rnatgan. Bu isbot talab etmaydigan aksiomadir.

Olim Navoiy qit'alarini o'rganar ekan, she'rda ifoda etilayotgan bosh muddao va uning qay darajada aniq va teran shaklda bayon etilgani, shoirning so'z va tasviridagi mahorati xususida o'z mulohazalarini izchil bayon etadi. U qit'alar tahlili jarayonida boshqa navoiyshunoslarning ham bu boradagi izlanishlariga to'xtalib, ularning fikricha o'z munosabatini bildirib o'tadi.

Chunonchi, Abduqodir Hayitmetov "Navoiy qit'alarining asosiy xususiyati shundaki, ular ko'proq traditsion mazmun va formalar bilan emas,

⁴⁴ Ҳаккулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 95 .

balki to‘g‘ridan to‘g‘ri hayot bilan, shoirning turmushi bilan bog‘langan” degan fikrni ilgari surgan.

Ibrohim Haqqul esa ulug‘ shoir qit’alarini faqat bir tomonlama tushunmaslikni, hayot va shoirning turmushi bilan bog‘liq “kundalik daftar”ni eslatadigan ushbu qit’alarda ham tasavvufiy mazmun mavjudligini ta’kidlaydi.

Olim o‘zining “Kamol et kasbim”, “Tasavvuf va she’riyat” risolalarida tahlil etilgan qit’alarning ba’zisiga “Navoiyga qaytish” kitobiga yana murojaat qilganini ko‘ramiz. Dastlabki tahlillar qisqacha sharh tarzida amalga oshirilgan bo‘lsa, keyingilarida tasavvufiy mazmun va atamalar mohiyati chuqurroq yoritilgan va ijodi ham ancha kengaytirilgan. Jumladan, ushbu tahliliga e’tibor qaratsak:

Fosiq men-u kofiri nihoni,
Ka’ba safari erur manga hayf.
O‘zni buki yaxshi ko‘rgazurmen,
Billohi, menga kaliso hayf.

Alisher Navoiy ushbu qit’ada fisq, kufr, riyo haqida so‘z ochgan. Ibrohim Haqqul ushbu qit’a xususida “Tasavvuf va she’riyat”da shunday deydi:

“Ka’ba safariga doir gap – vosita. Unga asoslanib fosiqlik, ya’ni zohiriy muslimonlik ortidagi nigohiy soflik fosh qilingan. Bunday riyokorlikning ildizi xudparastlik, o‘zini yaxshi ko‘rgazmak balosi. Oxirgi satrda xudparastlikdan budparastlik afzaldir degan mantiq o‘z aksini topadi”⁴⁵.

Olim bu qit’aga “Navoiyga qaytish” risolasida ham to‘xtalib o‘tgan. Bu kitobda qit’a mazmuni imkon qadar keng yoritilgan. Ibrohim Haqqul qit’ada ilgari surilgan fikr, avvalo, she’r sarlavhasidayoq namoyon bo‘lganini, ushbu lirk matn yashirinni oshkor qilish, oshkor qilganni esa e’tirof aylash ehtiyojidan tug‘ilganini qayd etadi. She’rning umumiylazmunitidan kelib chiqib, olim “Navoiy qit’asidagi lirk qahramon bu malomatiy qiyofasida paydo bo‘ladi”⁴⁶, – deydi.

Haqiqatan ham, she’rga diqqat qilsak, uning lirk qahramoni o‘z siyratiga mardonality bilan nazar tashlab, o‘z ustidan o‘zi hukm chiqaradi.

⁴⁵ Ҳаккулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 12 .

⁴⁶ Ўша асар. Б–112 .

U o‘zidagi nokas xislatlarni oshkor aylash bilan o‘zgalarni ogohlantirib bunday qusurlardan forig‘ bo‘lishga da’vat etmoqda.

Zero, malomatiylar yaxshi fazilatlarning ravnaqi bevosita yomon axloqni tanishga bog‘liq deb bilgan.

Shu bois, ular qanday fazilatlarga sohib bo‘lish haqida emas, asosan, qaysi qusur va noqisliklardan forig‘ bo‘lish xususida bahs yuritishgan.

Ibrohim Haqqul qit‘a lirik qahramoni fosiqlikning ildizini “o‘zini yaxshi ko‘rgazmoqlik xudparastlikda” deb bilishini alohida ta’kidlaydi. Lekin u ko‘pincha va ko‘p vaziyatlarda ujb va riyodan yuzaga keladi. Riyo joy topgan ko‘ngil borki, hech istisnosiz barchasi diniy tuyg‘u va sog‘lom e’tiqoddan yiroqlashadi. Aks holda Navoiy hazratlari : “Billohi menga kaliso hayf”, – deb yozmasdilar.

Xullas, olim ushbu qit‘ani birinchi tahlildan ko‘ra keyingisida ancha mukammalroq, chuqurroq va teranroq sharhlangan.

U she’r ifoda etgan mazmun va uning bugungi kunda ham nihoyatda ahamiyatli ekanini to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tgan. Umuman, bir qit‘aning sharhini o‘rganish orqali olimning vaqt o‘tgan sayin tasavvuf bilan chuqur shug‘ullangani, fikr- qarashlari va obrazlar mazmunini teran mulohazakorlik asosida hal qilishi yanada ortganini bilib oldik. Bu tahlillar Ibrohim Haqqulning Navoiy dahosi, uning ulkan qalbi, kechinmalari bilan dildan oshnolikni bir dam ham to‘xtata olmaganini, bil’aks u shu oshnolik zavqi ila ijod qalamini doimiy ravishda charxlab, ilmda olg‘a ilgarilayotganining dalilidir.

Alisher Navoiy qit‘alari orasida “Kamol et kasbkim” deb boshlanuvchi qit‘a juda mashhur. Mazkur qit‘a xususida olimlarimiz o‘z fikr-mulohazalarini bayon etishgan. Ibrohim Haqqul ham ushbu qit‘aga alohida e’tibor qaratgan. U hatto kitobxonlar orasida qit‘alar sharhi deb nomlangan. Qit‘a xususida so‘zlashdan oldin uning mazmunini yodga olsak:

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o‘lmaq‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih
Erur hammomdan nopol chiqmoq

“Badoye’ ul - bidoya” devoniga mansub ushbu qit‘ani Rahmonqul Orzibekov

“Dunyoga keldingmi, yaxshilab hunar o‘rgan, yo‘qsa, notamom, chala o‘tasan deya kishilarni ilm - hunar o‘rganishga chaqiradi”⁴⁷, – deb izohlaydi.

Natan Mallayev: “Inson hayotini o‘zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham foydali bo‘lgan xizmatga bag‘ishlashi, kasb-hunar o‘rganishi, ma’rifatli bo‘lishi, yaxshi fazilatlarni aytib”⁴⁸, – qit’aga misol tariqasida murojaat qilgan edi.

Abdurasul Abdug‘afurovning fikricha, “qit’ada shoirning kuzatgan asosiy maqsadi – mavjud nuqson, illatlarni fosh etish, qoralash emas, balki komil inson ideali nuqtayi nazaridan kishilarni yomon yo‘ldan, qaytarish va pand-o‘git bilan to‘g‘ri, halol bo‘lishga undash, kasb-hunar egallashga da’vat etishdir”⁴⁹.

Ibrohim Haqqul “Kamol et kasbkim” kitobida qit’ada o‘zlikni tanish, olamda g‘am va g‘aflatda tutqun yashashdan ruhni qutqarish, inson o‘zining yomon illatlardan poklab komillikka erishishga da’vat g‘oyalari ifodalanganini yozadi va “Mir Alisher Navoiy insonning jahon farzandi mavqeyiga ko‘tarilishini xohlaganlar. Xuddi shu mavqeni esa kamolotning olim cho‘qqisi deb bilganlar”⁵⁰, – deydi.

Ibrohim Haqqul “Tasavvuf va she’riyat” asarida ushbu qit’aga yana murojaat qiladi. Olim kitobida adabiyotshunoslarning qit’a haqidagi qarashlarini birma-bir keltiradi.

O‘rni bilan ularga munosabat bildirib o‘tadi. Jumladan, u mana bu tahlilga alohida to‘xtalib o‘tadi: “Ma’lumki, Alisher Navoiy saroy doirasini yaxshi bilar, ularning xulq-atvorini yaxshi o‘rgangan edi. Shoirning yuqoridagi 4 misra she’ridagi fikri, ya’ni hammomga tushib tozalanishning o‘rniga kir bilan hammomdan chiqish, turmushda bir kasbga ega bo‘lmaslik kabi fikrlarni xuddi ana shu saroy ahllariga qaratgan edi.

U saroy ahllarining mana shunday g‘ayriinsoniy xulq-atvorini jamiyat, xalq oldida ayamay fosh qildi”⁵¹.

⁴⁷Orzibekov R. O’zbek adabiyoti tarixi. nashriyoti – Toshkent: «O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi», 2006. Б – 12 .

⁴⁸ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи.– Тошкент: «Ўқитувчи », 1965. Б – 56 .

⁴⁹Абдурафуров А. Ўзбек демократик адабиётида сатира. – Тошкент: «F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти», 1961. Б – 118 .

⁵⁰Ҳаққулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 5 .

⁵¹Ҳаққулов И. Тасаввuf ва шеърият. – Тошкент: «F.Гулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси», 1991. Б – 8.

Olim Erkin Vohidovning “G‘azalning mazmunini jo‘n gapirib berish tahlil emas. Bu g‘azalni yechintirish. Uni shohona libosdan xoli qilib, ochiq tanasini ko‘rsatish. Bunday tahlil she’rxonni sovutadi, shoirni beobro‘ qiladi”, – degan fikrlarni keltirib, yuqoridagi “tahlil” da hatto qit’aning “tanasi” ham ko‘rinmaydi, eng yomoni, u o‘quvchining qiziqishini so‘ndiradi”, – deya kuyunib yozadi.

Ibrohim Haqqul qit’da haqida bildirgan jo‘n fikrlarni oqlamaydi. U hatto “Kamol et kasbkim” kitobidagi qit’da sharhida aytgan “Kamolotning oliv cho‘qqisi – jahon farzandi mavqeyiga ko‘tarilish” haqidagi fikrlarini ham noto‘g‘ri deb biladi.

Uningcha, qit’ada jahondin o‘zni to‘la ozod aylashga da’vat qilingan.

Ibrohim Haqqul “Tasavvuf va she’riyatda” qit’da sharhiga boshqacha yondashadi. U dastlab kasb so‘zining 2 xil:

- 1) o‘rganish, odat qilish, egallash;
- 2) hunar, bilim, mashg‘ulot ma’nolarini keltiradi.

So‘ng she’riy matn mazmunini ham 2 xilda talqin etadi.

Ibrohim Haqqul she’riy matnni anglash uchun undagi obrazlarga e’tibor qilmoq lozimligini ta’kidlaydi. Qit’ada keltirilgan “Olam uyi” haqida u shunday deydi: “Nega olamdan emas, Olam uyidin”. Bu obraz olamning uy qadar torligini aniq his qilgan ko‘ngildagina taassurot uyg‘otadi.

Obrazning mundarijasini chuqur bilmoq uchun esa olam va odam munosabati masalasini tasavvuf falsafasi kontekstidan ajratmaslik kerak.

Olim qit’ada keltirilgan “notamon” ham so‘z – obraz, deydi. Bu obraz mohiyatini ochish uchun u “Lison ut- tayr”ga, Ibrohim Adhamning “sulukin imtihon” qiluvchilar aytgan so‘zni yodga oladi:

Deydilar notamom ermish hanuz.

Imtihon qiluvchilar Ibrohim Adhamning ko‘ngliga mulki yodi saqlangani uchun uni notamom – hali “xom” deb hisoblashgan.

Shu mazmundan kelib chiqib, Ibrohim Haqqul “qit’adagi “notamom” ham – jahondan tamoman etak silkitmaslik noqisliklarini aks ettiradi. Dostonda ham, qit’ada ham “notamom” bir mohiyatda tatbiq qilingan. Lekin she’rdagi qiyosiy dalil yangi topilgan.

Olim: “Hammomin noplari chiqmoq” – “jahondin notamom o‘tmak”lik natijasini go‘yo reallashtiradi”, – deb yozadi.

Xullas, navoiyshunos talqinicha, insonni kamolot bosqichlarini egallashga, nafsga mag‘lub bo‘lib, dunyo ne’matlariga ko‘ngil qo‘ymaslikka, “ma’ni ahli” safida bo‘lishga, haqni sevish, o‘z noqisliklarini anglash, faqri fanolikka erishish zohiriy olamdan kechib, safar qilishga da’vat etgan.

Qit’ada ifoda etilgan bu mazmun bir o‘qishdayoq ayon bo‘lmaydi. Balki obraz mazmuni bir necha mutolaadan keyingina shoirning asl muddaosi ayonlashadi. Buni esa olim Ibrohim Haqqulning tekshirishlari ochiq ko‘rsatib turibdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Olim umri davomida izlanishdan, fikrlarini rivojlantirishdan to‘xtamadi. 2021-yilda “Kamol et kasbkim” asarini qayta ishlab “Kasbi kamol o‘zni tanishdir” nomi ostida chop ettirdi. Ikkala kitob orasidagi 20 yillik vaqt oralig‘ida Ibrtohim Haqqul uslubida nimalar o‘zgargani, sharhlarda qaysi o‘rinlarni to‘ldirishga ehtiyoj mavjudligiga guvoh bo‘lish mumkin. Dastlabki nashrda muallif qit’alar tahlilida ritorik so‘roqlardan foydalangan bo‘lsa, keyingi nashrda fikrni qat’iy, tugal tarzda bayon etgan. Jumladan, “Ne nazmiki o‘tlug‘ ko‘nguldan chiqardim”qit’asi tahlilida

“Shoirning “o‘tlug‘ ko‘nguldan” chiqqan she’rlarini “dog‘i o‘tqa” solmoqdin murodi ko‘ngul kamolotini ko‘zlashdir. O‘tning qaydin ko‘tarilganligi ayon: ko‘nguldan. U ko‘ngilga yo‘naltirilsa, yana ko‘ngilga qaytmog‘i shart. Demak, o‘t yana o‘tga tutashib, asliga qaytadi. Bu “olovxona” oshiq va orif shoirlar qalbidir”⁵². Asarning birinchi nashrida Ibrohim Haqqul bu qit’a tahlilini quyidagicha beradi: “Bu “olovxona” oshiq va orif shoirlar qalbimi? Yo‘q, Haq ishqisi cho‘g‘lanib yotgan orif she’rxonlar ko‘ngli hamdir. Zotan, oliy ishq dardiga mutbalo bo‘limgan ko‘ngil sovuq va so‘niqdir”⁵³. Asarning har ikkala nashri ham Hazrat Alisher Navoiy qit’alari tahlili, sharhi uchun zarur manba hisoblanadi. Ikkala nashrni ham mutolaa qilar ekansiz, olimning yillar davomida hayot tajribalari, ilmiy manbalarni yanada sinchkovlik bilan nazar tashlaganligiga guvoh bo‘lasiz.

Ibrohim Haqqul qit’alar tahlili orqali Alisher Navoiy inson xulqini bilish, uning holini, ahvolidagi o‘zgarishlarni yaxshi anglashini ta’kidlar ekan, ulug‘ shoir qit’a janridagi she’rlarida axloq-odob, ta’lim-tarbiya masalalariga diqqatni jalb etsa-da, aslida ularning aksariyatida holning sirlari, ijobjiy yoki salbiy hollarning aql va axloqqa ta’sirlari ham tadqiq etiladi,

⁵² Ҳаккулов И. Касби камол ўзни танишдир. – Тошкент: «Yoshlar matbaa uyi», 2021. Б – 256 .

⁵³ Ҳаккулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 236.

deydi. Olim sharhlari qit’alarda ilgari surilayotgan g‘oyalarning faqat o‘tmishgagina daxdorligini ko‘rsatmaydi, balki ular bugun uchun ham e’tiborli va ahamiyatlidir.

Ibrohim Haqqul filologiya fanlari nomzodi Ergash Ochilov bilan tasavvuf va irfoniy she’riyatini o‘rganish muammolari xususidagi suhbatda, “Men tasavvufshunos bo‘laman, deb tasavvufni o‘rganishga kirishmaganman. Tasavvuf adabiyotining sir-asrorlarini bilish istagi meni tasavvuf ta’limotini imkon darajasida kengroq o‘rganishga undagan. Hozir ham shu maqsadda tasavvuf va tariqatlarga doir asarlarini o‘qib boraman”⁵⁴, – deb aytgan edi.

Ibrohim Haqqul tasavvuf va Navoiy ijodiyoti xususida fikr yuritar ekan shunday deydi: “Tasavvufning eng katta xizmati ishqning inson hayotining tub asosi va inson ruhiyatining nuri deb e’tirof etganlidigadir. Alisher Navoiyga ham Agar ko‘ngilda ishq otashi yonmasa, kofirlik bilan musulmonlikda ham, zuhd-u taqvo ham quruq da’vodir.”

Tasavvuf haqiqatlari va atamalari ma’nosidan bexabar holda Navoiy asarlarining tub mohiyatini tadqiq etish befoyda. Biroq bunda Ibrohim Haqqul qayta qayta urg‘u bergenidek, ulug‘ shoir she’rlarining tasavvufiy qatlamenti belgilashda taxminbozlikka erk bermasligi lozim.

Ibrohim Haqqul Alisher Navoiyning tasavvufdagи munosabatini o‘rganishda birinchilardan bo‘lib fikr bildirgan olim sanaladi. Ulug‘ shoir ijodiyotini avvalo, tasavvuf mohiyatini anglab, so‘ng uning tasavvufiy jihatlarini to‘g‘ri yoritish mumkinligini o‘z tadqiqotlari orqali isbotlagan edi.

⁵⁴ Мохиятга мухаббат. Тўплам / масъул мухаррир Т.Мирзаев. – Тошкент: « Tafakkur », 2019. Б – 155 .

BIRINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR

Birinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Zahmatkash olimlarimizning sa'y-harakatlari tufayli Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Navoiyshunoslarimiz orasida shoir ijodiy merosini tadqiq va targ'ib qilishda adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning ham alohida o'rni bor. Ibrohim Haqqul mumtoz adabiyotni kitobxon ko'ngliga singdirish yo'li va usulini topdi. Uning muvaffaqiyati va kitoblarining shuhrati shunda edi.

2. Alisher Navoiyning hayoti, ibratli faoliyati, merosiga qiziqish XV asrdan boshlangan. Navoiy asarlari o'z tirikligida mashhur xattotlar tomonidan ko'chirilgan. Ammo navoiyshunoslik XX asrda o'zgacha shakllandi. Chunki Navoiy to'g'risidagi bahs yuritgan hech bir olim sho'ro mafkurasi tomonidan belgilangan chiziqdan chetga chiqa olgani yo'q. Shunday murakkab vaziyatda navoiyshunoslik sohasida yangicha yo'nalish, yangicha tahlil usulini, yangi so'zni qo'rmasdan ayta olgan olimlardan biri Ibrohim Haqqul edi.

3. Ibrohim Haqqul "O'zbek adabiyotida ruboiy" monografiyasida Alisher Navoiy ruboilarining aksariyati "diniy-tasavvufiy mafkura bilan" mustahkam bog'liq bo'lganligini e'tirof etsa-da, ularning mohiyatini to'lato'kis ochib berishga imkon topolmagan. Chunki o'sha davr siyosati bunga yo'l qo'ymas edi. Shunga qaramay, olim ruboilarini tadqiq qilar ekan, ulardada tasvirlangan asosiy, botiniy mazmun, ilohiy-irfoniy tushunchalar ifoda etgan ma'nolarni tasavvufga oid lug'atlar yordamida yoritishga harakat qilgan.

4. Adabiyotshunos Alisher Navoiy ijodiyotidagi lirik janrlarni yangicha badiiy tafakkur asosida o'rganib, sovet davrida bu asarlar talqinidagi bir yoqlamalik va yuzakilik illatlarini ilmiy dallillar asosida ko'rsatdi. Daho shoirning "G'urbatda g'arib" ruboysi va "Kamol et kasbkim" qit'asi sharhlaridagi jiddiy mulohazalari ushbu fikrga dalildir.

II BOB. OLIMNING TASAVVUF ADABIYOTI MUAMMOLARI TADQIQIDA MAHORAT QIRRALARI

2.1. Adabiyotshunos ishlarida tasavvuf tadqiqi

Tasavvuf sharq xalqlari dunyoqarashi va adabiyotiga chuqur ta'sir etgan ta'limotdir. Uning shaxs tarbiyasi va kamolotidagi xizmatlari beqiyos.

Sho'ro tuzumi davrida tasavvufning shaxsiy hayotidagi tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyati xususida so'z aytish mumkin emas edi. Aytilganda ham, davr siyosati, mafkurasiga moslab aytish shart edi. Bu muammoni to'g'ri o'rganishni boshlaganlardan biri Ibrohim Haqqul bo'ldi.

Bu haqida akademik To'ra Mirzayev shunday yozadi: "Ibrohimga o'xshagan adabiyotshunoslар ilgari deyarli o'rganilmagan yoki butunlay man etilgan mavzularni, jumladan, tasavvuf adabiyotini tadqiq qila boshladilar. Bu bir tomonidan ana shu ehtiyojini to'g'ri ilg'ab olgan avlodning yuksak iqtidori bilan bog'liq, deb o'ylayman"⁵⁵.

Professor R.Vohidov ham Ibrohim Haqqulning necha yillardan buyon tunganmas xazina – tasavvuf borasida ilmiy izlanishlar olib borib samarali natijalarga erishganini ta'kidlab, o'z maqolasida shunday yozadi: "Ibrohim Haqqulning ilmiy izlanishlarida yana bir o'zgarish sodir bo'ldi. U 80-yillarda o'zining tunganmas xazinasini kashf etdi. Bu xazina tasavvuf edi"⁵⁶.

"O'zbek adabiyotida ruboiy" (1981) nomli ilk monografiyasi bilanoq ilmga o'ziga xos yo'li, mustaqil fikriga ega olim kirib kelganligini amalda isbotlagan Ibrohim Haqqul o'tgan yillar mobaynida iste'dodining yangidan yangi qirralarini namoyon etib, qiziqish doirasi keng adabiyotshunos sifatida ham bo'yiga, ham eniga o'sdi – bir paytning o'zida ham mumtoz so'z san'ati, ham tasavvuf she'riyati, ham zamonaviy adabiyot masalalari bilan faol shug'ullanib, "Uvaysiy she'riyati" (1982), "Badiiy so'z shukuhi" (1987), "Zanjirband sher qoshida" (1989), "She'riyat – ruhiy munosabat" (1989), "Abadiyat farzandlari" (1990), "Kamol et kasbkim" (1991), "Tasavvuf va she'riyat" (1991), "G'azal gulshani" (Adabiy suhbatlar, 1991), "Xoja Orif Mohitobon" (1996), "Irfon va idrok" (1998), "Tasavvuf saboqlari" (2000), "Ahmad Yassaviy" (2001), "Kim nimaga tayanadi?" (2006), "E'tiqod va

⁵⁵ Моҳиятга мухаббат. Тўплам / масъул мухаррир Т.Мирзаев. – Тошкент: « Tafakkur », 2019. Б – 25 .

⁵⁶ Моҳиятга мухаббат. Тўплам / масъул мухаррир Т.Мирзаев. – Тошкент: « Tafakkur », 2019. Б – 58 .

ijod” (2007), “Navoiyga qaytish” (2007), “Abdulla Qahhor jasorati” (2007), “Taqdir va tafakkur” (2007), “Meros va mohiyat” (2008), “Ijod iqlimi” (2009) kabi mumtoz va zamonaviy adabiyotning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan yuzga yaqin yaqin kitoblar, minglab ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar e’lon qildi. Qator maqolalari rus, turk, uyg‘ur va tojik tillariga tarjima qilinib, Moskva, Istanbul, Urumchi va Dushanbedagi nufuzli nashrlarda bosilib chiqdi. Rus tilida nashr etilgan ikki jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi”ning mualliflaridan biri bo‘ldi. Alisher Navoiyning XX jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”ni nashrga tayyorlashda faol ishtirok etdi. Saksoninchi yillardagi zamonaviy she’riyat, to‘qsoninchi yillardagi mumtoz adabiyot va tasavvufni o‘rganish, matnshunoslik masalalariga bag‘ishlangan bahslar va davra suhbatlaridagi dadil chiqishlari aslida uni keng jamoatchilikka tanildi.

Nafaqat Sharq, balki G‘arb adabiyotining ham biror buyuk namoyandasini yo‘qki, uning ijodidan Ibrohim Haqqul bexabar bo‘lsa: u haqida fikr bildirmasa, ijodiga munosabatini ifodalab, asarlaridan misollar keltirmasa, go‘zal va teran hikmatlaridan iqtiboslar olib, mushohadalarini asoslamasa, Vilyam Shekspirning Jamol Kamol tarjimasidagi uch jildlik “Saylanma”siga yozgan salmoqli so‘zboshisi uning buyuk ingliz dramaturgi badiiy olamiga qanchalik chuqur kirib borgani, mahorati sirlarini qanchalik hassoslik bilan ochganining yorqin dalilidir. Yoki u Lev Tolstoy va Anton Pavlovich Chexov ijodini mana men degan tolstoishunos yoki chexovshunosdan kam bilmaydi. Onore de Balzak, Charlz Dikkens romanlari haqida yuritgan asosli mulohazalari uning G‘arbning yetuk romannavislari ijodidan ham bebahra emasligini ko‘rsatadi.

U shoir-u yozuvchilar ijodini turmush bilan bog‘lab tadqiq etadi, fikrlarini hayotiy misollar bilan asoslaydi. Bugina emas, u o‘z tadqiqotlarida “Avesto”, “Qur’oni Karim”, “Injil”, “Talmud” kabi diniy adabiyotlar, hadislar va boshqa turli diniy adabiyotlarga ham tez-tez murojaat qilib turadi. Tasavvufga oid manbalar, tazkira va manoqiblardan zarur iqtiboslar, shayx-u darveshlar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ibratli va qiziqarli hikoyat, rivoyat va naqllarni keltirish orqali maqolalarining o‘qishli va ta’sirchan chiqishini ta’minlaydi.

Ibrohim Haqqulning mumtoz adabiyotga doir tadqiqotlari uchun xos ikki, muhim jihat e’tiborga molik: birinchidan, u ajdodlarimiz merosiga

ulkan muhabbat bilan yondashib, shoir ruhiyatiga chuqurroq kirib borishga intiladi, ikkinchidan, mavzuga bugunning talabi, davrning nigohi bilan qaraydi. Chindan ham, olimning yutug‘i shundaki, u o‘tmish merosidan zamonga hamohang sadolar axtaradi, mumtoz so‘z san’atkorlari va tasavvuf namoyandalarini ham davrga xizmat qildiradi, ularning asarlarini bugungi kun bilan bevosita bog‘lab tahlil qiladi. Bu jihatdan taniqli adabiyotshunos Sultonmurod Olimning quyidagi e’tirofi diqqatga sazovor: “U kishi Navoiy ijodi haqida ham jo‘sib, bugungi hayotga bevosita bog‘lab yozish bo‘yicha biz bilan tengdosh navoiyshunoslarni o‘ziga xos tarzda ijodga chorlab turadilar. Chunki mening bir orzum bor: Navoiy haqida yozilgan narsa bugungi adabiyot va hozirgi kun to‘g‘risida bitilgan adabiy tanqid namunasi kabi qiziqish bilan o‘qilishi kerak. Shunday o‘qilmayotgan bo‘lsa, ayb Navoiyda emas, navoiyshunosda”⁵⁷.

Ibrohim Haqqul ijodi – o‘ziga xos ma’rifat chashmasi. Bu asarlar mutolaasi kishini ko‘p narsaga o‘rgatadi. Ularni o‘rgangan kishi, birinchidan, adabiyot olamining bepoyonligi-yu bu cheksiz olam oldida o‘z bilganlarining hech narsa emasligi, juda oz narsa bilishni o‘qiganidan o‘qimaganlari ko‘pligini teran his qiladi. Ikkinchidan, adabiyotning shunchaki ko‘ngilxushlik, zerikkanda ermak emas, bil’aks buyuk ma’naviyat ummoni, tengsiz murabbiy ekanligi, uni o‘qish boshqa-yu uqish boshqaligi, tug‘ma aqli, muayyan bilim zaxirasi, didi, farosati, maxsus tayyorgarligi bo‘lmagan kishining so‘z dardini his qilmasligi, so‘z zavqini tuymasligini tushunadi. Uchinchidan, insonni hayotning qadri, umrning mohiyati, vaqtning g‘animatligini his qilish va anglash sari yo‘naltiradi. Chunonchi, u maqolalaridan birida odam bolasi tug‘ilganidan boshlab qadamba-qadam o‘zining o‘limi sari boradiki, faqat tafakkur mevalari va mehnat samaralari bilangina umrga mazmun bag‘ishlash va boqiy hayotni ta’minlash mumkin degan bir achchiq haqiqatni ilgari suradiki, bu fikr bedor qalb, uyg‘oq tafakkur sohiblarini tinimsiz ter to‘kish, muttasil mutolaa qilish, fikrlashdan bir nafas to‘xtamaslikka undamasligi mumkin emas. Ibrohim Haqqulning o‘zi bir umr orom nimaligini, tinim nimaligini bilmagan bezovta qalb, jonsarak vujud, tug‘yonli tafakkur sohibi va asarlarini o‘qigan o‘quvchilarga ham bu dardlarni yuqtirishi tabiiy.

⁵⁷ Моҳиятга мухаббат. Тўплам / масъул мухаррир Т.Мирзаев. – Тошкент: « Tafakkur », 2019. Б – 89 .

Ibrohim Haqqulning deyarli biror maqolasi yo‘qki, shaxs va shaxsiyat tushunchalari tilga olinmagan bo‘lsa. Kuzatishlar uni Abdulla Oripov, Usmon Azim, Shavkat Rahmon ijodiga bag‘ishlangan ilk maqolalaridayoq bu masalaga e’tibor qaratganini ko‘rsatadi. U hech qachon adabiy asarni uning muallifidan, muallifni esa shaxsiyatidan alohida olib qaramaydi. Bu bejiz emas. Chunki shaxsiyat kuchli, shaxs qat’iyatli bo‘lmasa, iste’dod o‘zini to‘la namoyon qilolmaydi. Qachonki, iste’dod va shaxsiyat o‘zaro muvofiq kelsa, yaxlit butunlikka erishsa, o‘shandagina ijodkor o‘zidan yorqin iz qoldiradi. Shuning uchun ham olim ana shunday yorqin shaxsiyatlargacha alohida e’tibor beradi. Mansur Halloj, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Ahmad Donish, Sadreddin Ayniy, Oybek, Abdulla Qahhor kabi buyuk so‘z san’atkorlari va tasavvuf arboblari hayoti va faoliyati, ilmiy-adabiy merosini tadqiq etar ekan, ularga iste’dod va shaxsiyat uyg‘unligining yorqin timsollari sifatida qaraydi.

Odatda, yozganlarida muallifning shaxsi – aqli, ilmi, dunyoqarashi, ko‘ngli, tuyg‘u-kechinmalari mana men deb turadi. Binobarin, ijod mahsuli – ijodkor shaxsini bilish va anglash uchun o‘ziga xos ochqich. Shundan kelib chiqilsa, Ibrohim Haqqul tadqiqotlarini o‘qigan kishi ularda o‘ziga to‘la ishonch bilan gapi rayotgan qat’iyatli, teran bilim va katta tajriba bilan mushohada yuritayotgan donishmand, fikr-u mulohazalarini shirali til va hassos ruhda ifodalaydigan shoirona qalb sohibi bo‘lgan bir yetuk olimning ovozini eshitadi.

Albatta, adabiyotshunoslik ham – ilm. Binobarin, adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar ham nazariy fikrlarni ilmiy terminlar bilan ifodalagan holda akademik uslubda yozilishi kerak. Ibrohim Haqqul maqolalarini o‘qiganda esa teran tafakkur qudrati bilan birga, yoniq qalb haroratini ham his qilib turasiz. Uning yozganlari faqatgina aql va bilim mahsuli emas, ularga qalb qo‘ri va ruh quvvati ham omuxta qilib yuborilgan. U o‘lik til, siyqa uslubda yoziladigan adabiy maqolalarga o‘zining hassos ruhi qaynoq nafasi bilan jon va joziba baxsh etdi. Chunki hozirgi o‘quvchi jonli, qiziqarli, shirali til bilan yozilgan ommabop uslubdagi yangi ma’lumotlar, teran mushohadalar, nozik kuzatishlar, ohorli fikrlar, salmoqli xulosalarga boy maqolalarni o‘qishni istaydiki, Ibrohim Haqqul birinchilardan bo‘lib zamonning bu haqli ehtiyojini anglab yetdi hamda

adabiy-tanqidiy maqolaning jonli va o‘qishli chiqishi uchun izlandi. Shundan uning maqolalari masalaga yangicha va o‘ziga xos yondashuv, teran, nozik va kutilmagan mushohadalarga boyligi bilangina emas, balki kuchli ehtirosga yo‘g‘rilganligi, shiddatli ritmi bilan ham o‘quvchini o‘ziga tortadi. Ibrohim Haqqulning uslubi haqida fikr bildirganlar quyidagi xulosaga kelishadi: “Ayni jihatdan uni adabiyotshunoslarning shoiri deyish mumkin. Chunki uning shoirona ilhom va ehtiros, olimona shiddat va qat’iyat bilan yozilgan poetik jozibaga boy ta’sirchan maqolalari xuddi badiiy asarday o‘qiladi.” U maqola yozish mahorati va o‘quvchi ko‘ngliga yo‘l topish san’atini a’lo darajada egallagan. U tafakkur qudrati va qalbi haroratiga yo‘g‘rilgan shirali va samimiy til, jozibali va ravon uslubda yozilgan maqolalari bilan adabiyotshunoslik ilmining adabiy jarayondagi mavqeyini ko‘tardi, o‘quvchilar doirasini kengaytirdi. Ibrohim Haqqulni Ibrohim Haqqul qilgan asosiy omillardan biri aslida ana shu.

Aslida Ibrohim Haqqul uncha tushunarli va ommabop ham yozmaydi. Ba’zida u hatto xoslar uchun yozadiganday bo‘lib tuyuladi. Muayyan bilimi, maxsus tayyorgarligi bo‘lmagan o‘quvchi uning ko‘pchilik maqolalarini o‘qib tushunmaydi. Demak, olim o‘quvchilarining didi ancha baland va u ana shu adabiyotni nozik tushunadigan va so‘zni qadrlaydigan o‘quvchilarni ko‘zda tutib yozadi. U hech qachon o‘quvchi darajasiga tushmagan, balki hamisha keng o‘quvchilar ommasini o‘z orqasidan ergashtirib kelgan. Ma’lum bo‘ladiki, olimning o‘quvchi saviyasini ko‘tarish, didini tarbiyalash, ongini o‘stirish, qarashlarini yuksaltirishdagi xizmatlari katta. U davr talabiga mos ko‘plab maqolalari bilan keng kitobxonlar ommasini o‘ziga jalb etib, ergashtirib kelayotgan nuqtadan, hozirjavob va zahmatkash adabiyotshunoslарimizdan hisoblanadi.

Bu maqolalari uning mutafakkirlik xususiyatidan ham xoli emasligini ko‘rsatsa, yozganlarida muttasil ravishda naql-u rivoyatlarga murojaat etishi, o‘rni-o‘rni bilan lirik chekinishlar kishini, ayniqsa, keyingi yillarda e’lon qilgan “Ahmad kalla”, “Abdulla Qahhor jasorati”, “Shayton nega yig‘lagan?”, “Ilmni kim vositayi joh etar”, “Navoiyshunos qotili kim?” kabi qator esselari Ibrohim Haqqulning yozuvchilik iste’dodidan ham bebahra emasligini ko‘rsatadi.

Ibrohim Haqqul ko‘proq matn bilan ishlaydi va ularni har tomonlama keng va chuqrur tahlil qiladi. Matn tahliliga yuzaki qarashni, uni shunchaki

chetlab o'trishni, masalaning mohiyatiga chuqur yetib bormaslikni qattiq qoralaydi. Tahlillari mutolaasi davomida yuzakilikka toqatsizlik kayfiyati yaqqol sezilib turadi.

Ibrohim Haqqul tadqiqotlari uchun xos yana bir xususiyat shundan iboratki, u badiiy yoki ilmiy asarlar tahlili, olim-u adiblar hayoti va ijodi tadqiqi jarayonida Olloh va olam, olam va odam, shaxs va jamiyat, hayot mohiyati, umr mazmuni, insonlik qadr-qimmati, vaqtning g'animatligi kabi azaliy va abadiy mavzularga oid qurshab mushohada-mulohazalarini ham bayon qiladi, iymon-e'tiqod, vatan, erk, hurriyat, vijdon, shaxs va shaxsiyat, mardlik, saxovat,adolat, himmat, odamiylik, ishq, do'stlik, mehr-shafqat, vafo, sadoqat, yaxshilik, halollik kabi insoniy qadriyatlarni ulug'lab, ularga qarama-qarshi nafs, zulm, razolat, qo'rquv, xiyonat, e'tiqodsizlik, egrilik, tamagirlik, tuturuqsizlik, rivo, yuzsizlik, o'g'rilik, iste'dodsizlik, sayozlik, nodonlik, johillik kabi illatlarni muttasil ravishda mazamat qilib boradi. Shuningdek, uning tadqiqotlarida ko'plab obrazli iboralar, nozik va o'tkir lutflari uchraydi.

Ibrohim Haqqul filologiya fanlari nomzodi Ergash Ochilov bilan "Tasavvuf va irfoniy she'riyatini o'rganish muammolari" xususidagi suhbatda "Men tasavvufshunos bo'laman, deb tasavvufni o'rganishga kirishmaganman. Tasavvuf adabiyotining sir-asrorlarini bilish istagi meni tasavvuf ta'limotini imkon darajasida kengroq o'rganishga undagan. Hozir ham shu maqsadda tasavvuf va tariqatlarga doir asarlarini o'qib boraman", – deb aytgan edi.

Ibrohim Haqqul tasavvuf va Navoiy ijodiyoti xususida fikr yuritar ekan shunday deydi: "Tasavvufning eng katta xizmati ishqning inson hayotining tub asosi va inson ruhiyatining nuri deb e'tirof etganligidadir.

Tasavvuf haqiqatlari va atamalari m'nosida bexabar holda Navoiy asarlarining tub mohiyatini tadqiq etish befoyda. Biroq bunda Ibrohim Haqqul qayta - qayta urg'u bergenidek, ulug' shoir she'rlarining tasavvufiy qatlagini belgilashda taxminbozlikka erk bermasligi lozim.

Xullas, Ibrohim Haqqul Alisher Navoiyning tasavvufdag'i munosabatini o'rganishda birinchilardan bo'lib fikr bildirgan olim sanaladi. Olim ulug' shoir ijodiyotini, avvalo, tasavvuf mohiyatini anglab, so'ng uning tasavvufiy jihatlarini to'g'ri yoritish mumkinligini aytadi.

Ibrohim Haqqul Alisher Navoiy ijodini tadqiq va targ‘ib etishda, ulug‘ shoir ijodiyotining sir-sinoatini chuqurroq o‘rganishda respublikamiz va xorijda ko‘zga ko‘ringan yetakchi olimlardan biri edi.

Olimning qobiliyat va salohiyati bilim va dunyoqarashi aks etgan o‘z ilmiy uslubi mavjud. U har bir masalani yoritishda chuqur izlanish olib boradi.

Ibrohim Haqqul Alisher Navoiy ruboilyari, ularning mavzu ko‘لامи obrazlar ifoda etgan, mazmun – mohiyat xususida chuqur izlanishlar olib borgan olim. Uning bir qator risolalarida ulug‘ shoirning davrga ko‘ra mafkura nuqtayi nazaridan noto‘g‘ri talqin etilgan to‘rtliklari qayta ko‘rib chiqilib, ruboilyari ifoda etilgan asl muddao to‘g‘ri talqin etib borilgan. Olim ruboiy tahlillari orqali Alisher Navoiy umumshe’riyatga xos falsafiylik donishmandlik, teranlik, so‘z va tasvirida mohirlik kabi fazilatlar daho ijodkorning ruboilyarida ham zohirligini ko‘rsatib bera olgan.

Ibrohim Haqqul Alisher Navoiy g‘azallariga yozgan sharhlari o‘quvchiga chuqur ta’lim beradi. Bu sharhlari ulug‘ shoir fikr-u qarashlari, obrazlar ifoda etgan mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Qolaversa, tahlillar orqali turli tasavvufiy istilohlar ma’nosi, har xil qiziqarli rivoyat va naqlardan ham xabardor bo‘lishi mumkin.

Olimning har bir so‘zini teran mushohada qilish, g‘azalning botiniy sir – asrorlariga diqqat qaratib, undagi mazmunni ochish uchun turli manbalarga murojaat qilishi o‘quvchida zo‘r qiziqish uyg‘otish bilan birga so‘zga mas’uliyat bilan yondashish lozimligini o‘rgatadi. Umuman olganda, Ibrohim Haqqulning Alisher Navoiy g‘azallariga yozgan sharhlari uning saviyasi o‘tkir she’rshunos, g‘azal sirlarining bilimdoni ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Olimning g‘azal tahlillarini kuzatar ekanimiz, boshqa ijodkorga nisbatan Alisher Navoiy g‘azallariga ko‘proq murojaat qilganiga guvoh bo‘lamiz. U Navoiyning yuzlab g‘azallariga sharhlari yozgan. Bu sharhlari Ibrohim Haqqulning “Abadiyat farzandlari”, “She’riyat – ruhiy munosabat”, “Tasavvuf va she’riyat”, “Irfon va idrok” hamda “Navoiyga qaytish” kitoblaridan o‘rin olgan.

Ular ichida “Faqr-u fanolik”, “Sirning botin sirlari”, “Labingda xasta jonim” kabi sharhlarda shoirning ilohiy qarashlari juda chuqur yoritilgan. Olim sharhlari bilan tanishar ekanmiz, uning boshqa navoiyshunoslardan farqli ravishda g‘azallarning mazmun-mohiyatini obrazlari va u ifoda etgan

ma'nolarini yoritishda turli usullardan foydalanishi tasavvuf lug'atlaridan, ulug' shoirlar mashhur shayxlarning ibratli fikrlaridan yoxud shoirning shu mazmundagi baytlaridan keltirishini kuzatasiz. Olimning tahlillari turli soxta ilmiylikdan yiroq, ko'pchilikka mo'ljallangan uslubda yaratilganki, bu ularning zo'r qiziqish va ishtiyoq bilan o'qilishiga sababchi desak, xato qilmaymiz.

Olim she'r mazmunini, obrazlar ifoda etgan ma'noni yaxshi tushunadi. Shu bois olimning tahlillari o'quvchini har bir so'zga mas'ullik bilan qarashga, she'riy tizimdan so'zlar shunchaki ishlatmasligiga mushohada yuritishiga o'rgatadi. Masalan, olimning ulug' shoir qalamiga mansub "Do'star, mahram deb elga" deb boshlanuvchi g'azaliga sharhini ko'rib o'tsak. "Sir"ning botin sirlari deb nomlangan bu sharhning nomlanishiyoq o'quvchida qiziqish uyg'otadi. Olim g'azalni sharhlar ekan, dastlab uning shakliy jihatlari va shoir ijodining qaysi davriga oidligini ma'lum qiladi. G'azal shoirning keksalik chog'ida yaratilgan shu bois olim bunday izohlaydi:

"Ehtimol, shuning uchun ham g'azalning ilk misralarini o'zidanoq, she'rxon katta hayot tajribasiga ega donishmand o'gitlarini tinglayotganday bo'ladi va beixtiyor har kimga ishonib, har kimni dilga yaqin olib sirdosh bo'imaslik haqida o'ylay boshlaydi"⁵⁸.

Xususan, matladagi "boshingizga yuz balo kuch birla paydo qilmangiz", degan ogohlantiruvchi gap "mahram deb elga roz ifsho" aylashning oqibati xususida jiddiy o'ylashga undaydi.

Yuqoridagi g'azal tahlilida ham shu holni kuzatish mumkin. Olim g'azallarini tahlil etar ekan, baytlar silsilasidagi mazmun asosan sir va sir saqlash bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Shoirning sirni asrash uchun tilga ehtiyoj bo'lish lozimligi haqidagi o'gitlarni izohlaydi. Olim 3-bayt tahliliga o'tganda bu olam o'ziga xos bo'lgan ulkan sirxona ekani, kattadir, kichikdir, jonlidir, jonsizdir har bir narsaning bir olamda o'z sir – asrori borligini uqtiradi.

Olim tahlil jarayonida tasavvuf lug'atlaridagi sirga oid izohlarni keltiradi. Bu ma'lumotlar o'quvchida qiziqish uyg'otishi, qolaversa, tasavvufiy istilohlar mazmun-mohiyatini o'rganishlariga yordam beradi. Masalan, Abdukarim Qushayriyning yozishicha, ahli tasavvuf "sirning

⁵⁸ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б–55 .

ruhdan judo latif, ruhning esa qalbdan juda sharafli”ekanligiga ishonch bildirishgan⁵⁹.

Umar Suharavardiy esa o‘zining “Aorif – ul maorif” asarida shunday yozadi: “Nafs tasfiya va tazkiya etilgach, ruh, nafsning qorong‘ulik va yomonlikka yo‘naltiruvchi ta’siridan xalos bo‘ladi. Natijada Haqqa qarab qurbiyat maqomlariga yuksala boshlaydi. Shunda qalb ham mukammallahuvchi holatidan ajralib ruhga tomon yo‘nalar, undan keladigan amr va ishoratlarni qabul aylashga boshlar, o‘zining sifatlariga qo‘shimcha o‘laroq boshqa oliy sifatga yetishar. Qalbdan ham musaffo sifatni anglash qiyin bo‘lganligi uchun unga sir nomini berilmishdir”⁶⁰.

Mir Alisher Navoiy devonlarida shunday g‘azallar borki, g‘oya yoki fikr miqyosi, salmog‘i jihatdan hatto butun bir dostonni eslatadi. Ba’zan uzun bir masnaviy yoxud dostonga sog‘dirish qiyin bo‘lgan haqiqatni Navoiy g‘azalda shunday san’atkorlik bilan ifodalaydiki, bunday g‘azal necha qayta o‘qilmasin, ma’no-mohiyatini baribir to‘la-to‘kis anglab yetish mushkul bo‘ladi.

Ibrohim Haqqul tahlillari sizga ayni shu mushkulotni hal etishda ko‘maklashadi. Ulug‘ shoir g‘azallarini o‘qib o‘zingizga qandaydir xulosalar yaratishingiz tabiiy. Biroq olimning bu boradagi izlanishlaridan xabardor bo‘lish sizga g‘azal mazmunini yanada chuqurroq anglab she’rda ifoda etilgan mohiyatning yana boshqa qirralari borligi xususida fikr yuritishga undaydi.

Olimning ulug‘ shoirning “Ey ko‘ngul, kelkim” deya boshlanuvchi g‘azaliga yozgan sharhi ham sizga ko‘p narsani oydinlashtirishda yordam beradi. G‘azalni bir o‘qishdayoq kishida o‘zgacha holat paydo qiladi.

Chunki unda tilga olingan o‘z-o‘ziga “o‘lmastin burun motam tutmish”, jumlayi olamni tark etmis, olam ahlidan ko‘p ozor chekmish, biror marta ham vafo ko‘rmaslik shu bois “fano farishtasin mahkam tutmish” kabi g‘oyalar tushkun kayfiyatni tug‘diradi.

Ibrohim Haqqul Nusratulla Jumaxo‘jayevning “Balki matladagi ta’rif-u tavsifiga o‘n sakkiz yashar go‘zal qiz emas, barkamol bir o‘spirin tal’ati asos bo‘lgandir,” – deya olimning Navoiy yigit kishini vasf etgani haqidagi taxminga e’tirof bildirmaslik, bu hali ilmda o‘rganilmagan muammo ekanligi

⁵⁹ Имом Кушайрий. “Рисола”. –Байрут–Ливан.: “Дорул кутуб ал–илмийя”, 2001. Б – 5.

⁶⁰ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Ташкент: Фан, 2007, Б – 60 .

xususidagi fikrlarni keltirib, bu gaplar g‘azalning yaratilishini izohlaydi dalil-isbot bo‘la olmasligini qat’iy aytadi hamda “O‘n sakkiz ming olam”ning turkiy va forsiyyabon xalqlar tasavvurida tasavvuf allomalari, olimlar qarashlaridagi izohni bir-bir keltiradi.

Ibrohim Haqqul juda ko‘p manbalarni kuzatib bu bayt xususida shunday xulosa qiladi: “Shunday qilib, Navoiy g‘azalida ta’kidlangan o‘n sakkiz ming olam tasavvuf ta’limoti zamirida yuzaga kelgan bo‘lib, haq oshiqlarining siyrat olamiga, zohiriyligiga emas, botiniy olamga dahldordir”. “O‘n sakkiz ming olam” – tasavvuf she’riyatidagi poetik obrazlardan biri. Unga shunchaki turg‘un so‘z birikmasi deb qaralmasligi kerak⁶¹.

Ibrohim Haqqul ana “Terning siri” maqolasida Alisher Navoiyning mashhur “Qaro ko‘zum” g‘azalidagi bir bayt xususida bahs yuritadi. “Badoye’ ul- bidoya” devoniga mansub ushbu g‘azalning tahliliga tortilgan bayti maqtadan oldingi quyidagi bayt hisoblanadi:

Yuziga terni qurib o‘lsam, ey rafiqlikni
Gulob ila yuv-u gul bargidin kafan qilg‘il.

Olim ta’kid etganidek, kamdan kam shoir o‘limni eslab, hayot va tiriklik quvvatiga o‘quvchini iqror aylay oladi. Ehtimol, shu uchun ham “Qaro ko‘zum”ning ayrim sharhlarida ushbu baytga kengroq to‘xtalib, “yuz”, “ter”, “gulob”, “gul bargi” atrofida turli mulohazalar ilgari surilgan.

Ibrohim Haqqul bayt mazmuni xususida fikr bildirishidan oldin atoqli shoir E.Vohidov, professor N.Komilov va navoiyshunos N. Jumaxo‘jayevning “Qaro ko‘zum”ga oid tahlillarini sinchiklab o‘rganadi. Ularga munosabat bildiradi. Chunonchi, olim E.Vohidovning yuqorida keltirilgan bayt haqidagi mulohazalari xususida shunday deydi: “Tahlilda bayt mazmuni bilan bog‘lanmaydigan yoki ma’noni soxtalashtiradigan so‘z yo‘q. Ammo g‘azal qahramoni ko‘zlagan maqsad va mohiyatni yoritishda “Qo‘shib yozig‘i” bor. Zero, oshiqning “meni gulob bilan yuving, gul bargidan kafan qiling” degan iltijosi “So‘nggi yo‘limda yor hayoli menga oshno bo‘lsin” degani emas”.

Ibrohim Haqqul professor N. Komilovning “Qaro ko‘zum” talqiniga bag‘ishlangan “Ishqni olovlanligan suv” maqolasiga ham e’tibor qaratadi.

⁶¹ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б – 70 .

Olim N. Komilovning ushbu bayt tahliliga yor yuzidagi ter bilan aloqador hayotiy va majoziy haqiqatlar e'tiborga olingani, “ter”, “gulob” istilohlari mohiyatiga kengroq yondashganiga alohida urg‘u beradi. Biroq u N. Komilovning “ter” zamiridagi hikmat va majoziy haqiqatni komil insonlarga xos hayo holatiga muvofiqlashtirib bildirgan xulosalariga qo‘silmaydi.

Ibrohim Haqqul filologiya fanlari doktori N. Jumaxo‘jayevning ushbu bayt tahlilida gulob tayyorlash usuli-yu Navoiyning mahbub yuzini gulga o‘xshatib, uning hijolatdan yoki uyatdan terlagan paytini gulning gulob olishdagi terlashga o‘xshatish xususida fikrlarini keskin rad etadi va shunday deydi: “Bizningcha, Alisher Navoiy “ter”, “gul”, “gulob” haqida so‘zlaganda, na gulob tayyorlash “texnologiyasi”ni na gulni qandaydir bir idishga tiqib, tagida o‘t yoqib, uni bug‘latib, terlatishni va na pajmurda guldan tomchilagan gulni hayolga ham keltirmagan. Bunday hodisa Navoiyday hayotsevar, tiriklik ruhi va go‘zalliklariga behad sodiq shoirni ilhomlantirmasligiga shubhalanmaslik lozim”.

Ibrohim Haqqul Alisher Navoiy g‘azaliyotida o‘nlab she’riy timsollar qatori “ter”, “gul”, “gulob” ham turli ma’nolarda talqin etilgan, deydi. Olim ulug‘ shoir ijodiyotidan o‘z fikrlarining tasdig‘i uchun baytlar keltiradi so‘ng o‘sha baytdagi “ter”dan ko‘zlangan muddaoga o‘tadi.

U “ter” “tarixi”ga nazar tashlab “Muhammad alayhisalomning mo‘jizalari” kitobidan shunday iqtibos keltiradi:

“O‘n ikkinchi mo‘jiza; muborak peshonalari erdiki, andin terlari tomog‘dan erdi, darhol ul tikan gul bo‘ldi. On hazrat sallolohi alayhis salomning terlarini as’hob yuzlariga surtur erdilar, toki hushbo‘y bo‘lg‘aylar”⁶².

Maqola so‘ngida olim shunday xulosaga keladi: “ter” bir ramzdurki, u orqali ma’naviy-ruhiy mohiyat ilgari surilgan. Navoiy baytida esa komillik holi va jozibasiga ishorat etilgan bo‘lib, Hazrati Muhammad alayhissalom haqidagi yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ham inobatga olingani ehtimoldan yiroq emas”⁶³

Xullas, Ibrohim Haqqul adabiyotshunosligimizda, xususan Alisher Navoiy ijodiyotiga doir turli yolg‘on-yashiq “falsafiy mulohazalar”

⁶² Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б – 70 .

⁶³ Ўша асар. Б – 75 .

to‘qishlarga jim qarab turmaydi. U o‘zining bilim qudrati, iste’dod kuchi va o‘tkir tig‘li qalami bilan ularga qarshi turadi. Olim bahslardan cho‘chimaydi, bil’aks mulohaza va munozara insonni chuqurroq o‘rganishga izlanib intilishga undashini yaxshi biladi.

2.2. Olimning so‘fiy shoirlar ijodi haqidagi ishlarida hazrat Navoiyga murojaat

Ma’lumki, Ibrohim Haqqul butun umri, faoliyati davomida tasavvuf bilan shug‘ullandi. Tasavvuf bilan bog‘liq yirik tadqiqotlar yaratdi. Jumladan, “Tasavvuf va she’riyat”, “Ahmad Yassaviy”, “Taqdir va tafakkur”, “Tasavvuf saboqlari” asarlarida so‘fiy shoirlar, ularga hazrat Navoiyning munosabati bilan bog‘liq fikrlar jamlangan. Olimning bu boradagi ishlarini ikkita katta guruhga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:

1. Alisher Navoiy va tasavvufga munosabat;
2. Tasavvuf va so‘fiy shoirlar ijodida Navoiyga munosabat;

Biz ushbu faslda Ibrohim Haqqulning so‘fiy shoirlar va hazrat Navoiy ijodi orqali ularga munosabatni yoritishga to‘xtalib o‘tamiz. Ibrohim Haqqulning qator asarlarida Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Sulaymon Boqirg‘oniy, Atoiy, Boborahim Mashrab singari allomalarining asarlariga murojaat qilinadi.

Ibrohim Haqqul qaysi bir shoir, ijodkor yoki qaysi bir masalaga munosabat bildirsa uni albatta, Navoiy shaxsiyati, ijodi, g‘oyasi bilan bog‘laydi. Shu o‘rinda “Tasavvuf va she’riyat” kitobida Ahmad Yassaviyning faoliyati haqida fikr yuritar ekan, bevosita Navoiyning unga murojaatiga ham to‘xtalib o‘tadi. “Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham hokim ruh – nasihat ruhi. Lekin shoirning deyarli barcha pand-nasihat so‘zları bitta maqsadga qaratilgan. Bu mutlaq haqiqatni bilish, haqni sevish-chunki “Haqni suygan oshiqlar” yo‘ldan ozib, nafs-u dunyo uchun iymonsotarlik qilmaydilar”⁶⁴. Balki Navoiy va boshqa ijodkorlarni ham Yassaviy bilan bog‘lab turgan jihat ham shudir. Navoiyning nafshi tiyish, Haqqa erishish bilan bog‘liq misralarini Yassaviydan ilhomlanib yozgani aniq. Ahmad Yassaviy barcha hikmatlarida Haqdan najot kutish, zolimga bosh egmaslik

⁶⁴ Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: «F.Гулом номидаги Нашиёт-матбаа бирлашмаси», 1991. Б – 35 .

haqida aytadi. Navoiy ham Yassaviyga izdoshlik qilib ushbu fikrlarga tayanadi. Bu haqida Ibrohim Haqqul: “Navoiy ham Yassaviyga izdoshlik qilib maxluq, ya’ni yaratilgandanmas, Xoliq-xudodan madad va najot so‘rashni targ‘ib etgan.

Hech ish o‘lmas ayr-u xoliq amridin,
Iltijo maxluqqa keltirma ko‘p”⁶⁵.

Haqiqatdan ham bu dunyoda biror bir bandadan najot kutish yaramaydi. Iltijo ham, najot ham, darddosh va dardkash yagona Yaratgandir. Shu azaliy haqiqatni Yassaviy o‘z hikm atlarida mujassamlashtirgan. Navoiy va u kabi boshqa ijodkorlar undan ilhom olgan. Shu o‘rinda Ibrohim Haqqul polifonik tafakkurga ham to‘xtalib o‘tib, uni Yassaviydan Navoiyga qadar tadrijiy takomillashib bordi deb aytadi. Bunda avvalo, polifonik tafakkur degan istilohning mazmunini yoritib o‘tsak. Ibrohim Haqqul ta’biri bilan aytganda, polifoniya – ko‘pohangli, ko‘pma’nolilik degani. Shu paytga qadar polifonik tafakkur xususida jiddiy o‘ylab ko‘rilmagan. Nafsni tiyish-ulug‘ kurash deyiladi. Bu kurash hech qachon tunganmasdir. Inson toki yashar ekan, bu kurash davom etadi. Bu kurashda yengmoq mushkul. Chunki odamzod hayotidagi eng yoqimli narsalar, chegarasiz ehtiyojlar nafsning xurujidan kelib chiqadi. Ibrohim Haqqul Ahmad Yassaviyning

Zolim agar jafo qilsa ollo degil,
Ilking ochib zore aylab bo‘yin sung‘il
baytiga Navoiyning quyidagi misralarini tenglashtiradi:
To nafs-u havo qasri yiqitmaguncha,
El shod o‘lmas, mamlakat obod qasr.

Chindan ham, nafs bir ulkan qasr, imorat. Unda tashqi tomondan qaraganda, go‘zalliklar mujassamdek. Uning eshigi har doim uning (nafsning) qullari uchun ochiq. Bu eshikdan bir kirildimi, yo‘lni topib chiqmoq dushvor. Tasavvufning birinchi sharti-nafsn yengish. Manbalarda ayttilishicha, nafsn o‘ldirib bo‘lmaydi, uni aynan yengib bo‘ladi. Inson va nafs o‘rtasidagi kurashda yo g‘oliblik, yo mag‘lublik bo‘ladi. Nafsn zanjirlab bo‘ladi, tarbiyalab bo‘ladi. Lekin o‘ldirish aslo mumkin emas. Yuqoridagi fikrimizni takror aytamiz. Inson zoti toki tirik ekan, nafsi u bilan

⁶⁵ Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: «F.Гулом номидаги Нашиёт-матбаа бирлашмаси», 1991. Б – 46 .

birga tug‘iladi, yashaydi, tarbiyalanadi. Qachonki, inson so’nggi nafasini olsa, nafsi ham u bilan birgalikda so’nggi nafasini oladi.

Yassaviyning g‘oyaviy-badiiy qarashlari o‘zi tug‘ilib, ijod qilgan zamon uchun tegishli bo‘libgina qolmay, barcha zamonlar uchun dahldordir. Asl ijodkor o‘z zamonasi uchun dahldor bo‘libgina qolmay, o‘zidan keyingi zamonlarni, vaqt va makonni ko‘ra olish tafakkuriga ega bo‘ladi. Voqeotlarni xayoliy tasavvuriga keltiradi. Bizningcha, Yassaviy va Navoiy dahosini birlashtiruvchi uyg‘unlik ham shunda. Bu ikki dahoning fikrlarini umumiylashtiruvchi Ibrohim Haqqul ham xuddi shu xususiyatlarni kasb etgandek, go‘yo. Yassaviy g‘oyalari Navoiy, Mashrab, Maxtumquli, Yunus Emro ijodi bilan hamohang. Ularning fikriy dunyoqarashi Yassaviyning ijod mакtabidan oziqlanadi.

E’tiborimizni keyingi masalaga qaratar ekanmiz, bu o‘rinda Alisher Navoiyning “Nasoyim ul – muhabbat” asarida Ahmad Yassaviy haqida bildirilgan fikrlariga to‘xtalamiz: “Xoja Ahmad Yassaviy – Turkiston mulkining shayx - ul mashoyixidir. Maqomoti oliv va mashhur, karomoti matavoliy va nomahsur emish. Imom Yusuf Hamadoniyning as’hobidindur”⁶⁶. Shu o‘rinda qator olimlar tomonidan Yassaviy hikmat yozmaganmi? Yozgan bo‘lsa Navoiy nega o‘z tazkirasida bu haqida fikr bildirmagan degan o‘rinli savollar tug‘iladi. Ushbu masalaga Ibrohim Haqqul “Nasoyim ul-muhabbat”da keltirilgan Yassaviyning muridi bo‘lgan Hakim ota haqidagi fikrlarga tayanadi. Tazkirada Alisher Navoiy Hakim ota haqida fikr yuritar ekan, uni hikmatidan namuna keltiradi: “Oti Sulaymondur va Xoja Ahmad Yassaviy q. s. ning murididur. Hamonoki bir kun Xoja tabxe buyurg‘ondurlarki, mutbixe o‘tun yetmaydur, deb kelgandur. Alar ashobg‘a degandurlarki, yozidin o‘tun terib kelturung! Va ul zamon yog‘in yog‘adur ekandur. As’hobkim o‘tun teribdurlar, alar xizmatig‘a kelguncha yog‘in jihatidin o‘tunlar xo‘l bo‘lg‘ondur. Hakim ato tergan o‘tinlarni to‘nig‘a chirmab, quruq kelturgandur. Xoja Hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va alarg‘a bu laqab ondin qolg‘ondur va Hakim atog‘a hikmat tili go‘yo bo‘lubdur. Andoqki, oning favodi atrok orosida mashhurdur. Ul jumladin biri budurkim:

Tiki turg‘on butadur,
Borgonlarni yutadur.

⁶⁶ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 17-жилд. –Тошкент: «Фан», 2001. В – 413 .

Borg‘onlar kelmas bo‘ldi,
Magar manzil andadur”⁶⁷.

Ushbu fikrlar bilan Yassaviyning muridi bo‘lgan Hakim ota bevosita ustozи Yassaviyga ergashganini ichki mantiq asosida anglashiladi. Yassaviy yashagan davrda hikmatlar tili sodda ekanligiga tasdiq beradi. Bu misol orqali Yassaviyning shaxsiga, ijodiga munosabat oydinlashadi, qora bulutlar o‘z-o‘zidan tarqaladi.

Keyingi o‘rinlarda Ahmad Yassaviy va Hazrat Alisher Navoiy ijodida nodonlikdek nuqsonni qattiq qoralash, bu borada ularning fikrlaridagi mushtaraklikka to‘xtalishni joiz deb bildik. “Adabiyotimiz tarixida nodonlik atalmish ofatdan Ahmad Yassaviychalik ranj chekkan shoir bo‘lmasa kerak. Nodonlik – xalqning kulfati, Nodonlik–o‘ziga xos yovuzlik”⁶⁸. Yassaviy o‘nlab hikmatlarida nodonlardan uzoq yurmoq haqida fikr bildiradi:

Duo qiling nodonlarni yuzun ko‘rmay,
Haq taolo rafiq bo‘lsa bidad ko‘rmay,
Bemor bo‘lsa nodonlarni holing so‘rmay,
Nodonlardin yuz ming jafo ko‘rdum ma’no.

Darhaqiqat, nodonlik – dushmanlikdan ham xavfliroqdir. Nodon kishi qay yerda, qay tarzda fikr bildirmoqni, foyda va zararini bilmaydigan toifadir. Bu toifa kishiga biror nimani uqtirmoqni Alisher Navoiy “ko‘r odamning yo‘lini sham ila yoritmoqqa” qiyoslaydi. Yuqoridagi hikmatning mazmuni Navoiyning quyidagi misralarida o‘z ifodasini topgandek, go‘yo:

“Nodonlig“ erur elda malolatg‘a dalil,
Dono ulus ollida xijolatg‘a dalil,
Beasl ishi-bo‘lmadi adolatqa dalil,
Donolig‘ erur elda asolatg‘a dalil”⁶⁹.

Tahlil jarayonida Ahmad Yassaviyning fano, saodatga yetishmoq haqida hikmatlari e’tiborimizni tortdi. Bu haqida Ibrohim Haqqul o‘z fikrlarini shu tarzda bayon etadi: “Ahmad Yassaviy uchun saodat va haqiqat ashyoviy narsalarga ega bo‘lishmas. Bular hatto maqsad ham emas. Uningcha, haqiqat Yurakda. Haqiqat– Ruh. Borliq – olam bilan ruhan uyg‘unlikka kirishishi – oliy saodat. Saodat – ma’rifat nurlaridan ong va dilni

⁶⁷ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 17-жилд. –Тошкент: «Фан», 2001. В – 414 .

⁶⁸ Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: «Ғ.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси», 1991.Б.

46 .

⁶⁹ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. –Тошкент: «Фан», 1999. В – 207 .

tiniqlashtirish”⁷⁰. Ahmad Yassaviyning hayotiy qarashlari haqida bildirilgan ushbu fikrlarda Ibrohim Haqqul bevosita Mansur Halloj va uning “Anal – haq” degan so‘zlariga to‘xtaladi. Bir qarashda Halloj xudolikka da’vo qilgandek tuyulsada, aslida u ibrohim Haqqul ta’biri bilan aytganda, ruhiy kamolotga erishishiga ishongan. Yassaviy ijodi orqali komillikka erishmoqni bir nechta bosqichlarini sanab o‘tishimiz mumkin. Bunda “Buyuklik zaminini – Xoksorlik poyasi”, – deya talqinlaydi. Ayni shu bilan Yassaviy ijodida tuproq obrazi va Navoiy ijodida buning ta’siriga to‘xtalishni joiz deb bildik. Eng avvalo, Yassaviy ijodida tuproq-poetik obrazining qaysi ma’nolarda qo’llanilishi bilan bog‘liq hodisalarni keltirib o‘tamiz:

Tufroq bo‘lg‘il, olam sani bosib o‘tsin.

Ushbu misralari bois Yassaviy ko‘p malomatlarga qolgani, o‘z zamonida dindorlar, xalq tomonidan tanqid qilingani haqida yuqoridagi boblarda to‘xtalib o‘tgan edik. Ayni faslda biz Yassavviy ijodidagi obrazlarning Navoiy ijodiga bevosita ta’siri haqida sanab o‘tamiz. Avvalo, Yassaviy ijodida tuproq-badiiy o‘xshatmasi qaysi ma’nolarni kasb etadi degan savolga javob izlaymiz. Bu o‘rinda Ibrohim Haqqul insonning yaratilishi va to‘rt unsurni sanab o‘tadi.

“1.Tuproqdan sabr, umid (xudoning marhamatiga), ezgu xulq va muruvvat;

2.Suvdan quvonch, saxovat, nazokat, birlik;

3.Shamoldan yolg‘on, ikkiyuzlamachilik, sabrsizlik, tantiqlik;

4.Olovdan nafs, kibr, tama, hasad”⁷¹.

Ushbu fikrlarga asoslanib, Yassaviy o‘z hikmatida tuproq bo‘lib, asliga, yaratilishiga qaytmoqni, Haqqa erishmoqni nazarda tutgandir, balki?! Yassaviyning ushbu poetik obraziga Ibrohim Haqqul Navoiyning quyidagi misralarini keltirib o‘tadi. Hamohang mushtaraklikni uyg‘unlashtiradi:

Bu qadar manzilat-u qurbi buyuk poya bila,

O‘zini tutquvchi tufrog‘ ila hamvor qani?

Yana bir o‘rinda Navoiyning bir g‘azalidan parcha keltiradi: “Bevafolar o‘t, vafo ahli erur tufrog“”. Shu o‘rinda keltirilgan “o‘t”, “tufroq”

⁷⁰ Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: «Ғ.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси», 1991. Б – 184 .

⁷¹ Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: «Ғ.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси», 1991. Б – 60 .

so‘zlarining ikkalasini ham olim poetik obraz deb ataydi. Yassaviyning “Tufrog“ bo‘lg‘il” deyishini Navoiy quyidagicha izohlaydi:

Ey Navoiy, o‘zni maqbul istasang,tufroq bo‘l,

Kim erur mardud, ulkim boshida pindori bor.

Yuqoridagi misralarda ikki daho ijodida ham tuproq poetik obrazi kamtar bo‘lish – Haqqa yetishishning eng asosiy yo‘li anglashiladi. “Biz hali Yassaviyning “Tufrog”” obrazini to‘laligicha mundarijasini tuzganimiz yo‘q”, – deydi Ibrohim Haqqul. Olim ushbu obraz haqida yana shunday deydi: “Tuproq – Vatan”⁷². Bu o‘rinda Yassaviyning Navoiydan tashqari boshqa ijodkorlarga ta’siri haqida to‘xtalib o‘tadi. Ularning nomlarini birmabir sanab o‘tadi. Ishimizning o‘rganilish doirasi cheklanganligi uchun shu misollar bilan chegaralandik. Tariqatning ikki yo‘nalishiga mansub ikki ijodkorni nima bog‘laydi? Shu o‘rinda bahsli fikr o‘rtaga tashlanadi. Akademik Ibrohim Mo‘minov: “Naqshbandiylik “tarki dunyo” qilishga, dunyo ishlaridan voz kechishga qarshi chiqdi, real hayotning noz ne’matlaridan foydalanish to‘g‘risida maslahat berdi va mehnat qilishga, bilim olishga chaqirdi. Uning bu ijobiy tomoni O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati hamda adabiyotning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi”⁷³”, – degan edi. Ushbu fikrlarga hamohanglik Vohid Zohidovning “Ulug‘ shoir ijodining qalbi” asarida ham uchraydi. Tashqaridan qaraganda, ikkala olimning fikrida jon bordek. Vohid Zohidov bu ikki tariqat, ya’ni naqshbandiylik va yassaviylikni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Aslidachi? Bu masalaga Ibrohim Haqqul quyidagicha mulohaza bildiradi: “Go‘yoki Yassaviyning “tarkidunyo” chiligiga Naqshbandiyning dunyosevarligi zid bo‘lgan ekan. Holbuki, bunday qarash va talqinlar tarixiy haqiqatga xilofdir”⁷⁴ . Xo‘sh, Ibrohim Haqqul ayni o‘rinda qaysi tarixiy haqiqatni nazarda tutdi? Biz bunga javobni mashhur turk olimi Muhammad Fuod Ko‘prulizodaning ilmiy xulosalariga tayangan holda izlaymiz. Uning fikrga ko‘ra, “suluk silsilasi” jihatidan Xoja Ahmad Yassaviya mansub ikkita tariqat belgilangan. Biri – Naqshbandiya, keyingisi – Bektoshiya. Shu o‘rinda Ibrohim Haqqul bu turk

⁷² Ҳаққулов И. Тасаввув ва шеърият. – Тошкент: «F.Фулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси», 1991. Б – 161 .

⁷³ Ўша асар. Б – 74 .

⁷⁴ Ҳаққулов И. Тасаввув ва шеърият. – Тошкент: «F.Фулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси», 1991. Б – 74 .

olimining “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” nomli asariga murojaat qiladi. Ushbu asarda Muhammad Fuod Ko‘prulizoda bu ikki tariqat bir-birini taqazo etuvchi, biri ikkinchisi inkor etmasligini isbotlaydi. “Haqiqatda, Xoja Bahovuddin Naqshbandiyning ma’naviy tarbiyasi Abduxoliq G‘ijduvoniydandur. Bu sababdan uni Xojagon silsilasidan atamak siri anglish bo‘lmaydi. Ammo naqshbandiylik bir yondan Qusam Shayx va Xalil ota vositasila yassaviylik ta’sirida bo‘lganidek, boshqa tomondan, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy Yusuf Hamadoniyning Ahmad Yassaviydan keying xalifasi ekanligi jihatidan, tabiiy o‘laroq, bir qancha xususiyatlarda yassaviylikka o‘xshashdir. Xoja Bahovuddindan so‘ngra naqshbandiylik Movarounnahr va Xuroson turklari orasida keng yoyilib, yassaviylikning nufuz maydonini bir muncha toraytirdi. Lekin naqshbandylikning umumiyo yo‘nalishi, e’tibori ila yassaviylikdan ko‘p farqi yo‘qligi va O‘rta Osiyoda qisqa muddat orasida keng tarqalganligi, avvaldan hozirlangan zamini oldidagi uning burchini ham istisno etmaydi”⁷⁵. Olim Ibrohim Haqqul ushbu bahsli mavzuga Hazrat Alisher Navoiyning “Nasoyim ul - muhabbat” asarida Bahovuddin Naqshband haqida keltirilgan so‘zlar bilan izohlaydi. Bizningcha, Navoiy ham bu ikki tariqatning bir o‘zandan tashkil topganligiga ishora qilgandek. Haqiqatdan ham islom dunyosida insonning yaralishi ham yagona Odam alayhissalomga borib taqalganidek, tariqatlarning yuzaga kelishi ham ayni shu davrga tegishli. Tariqat nima? Aslida tariqat nega tanlanadi? Ibrohim Haqqulning “Tasavvuf saboqlari” asarida tariqatga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Tariqat – yo‘l”⁷⁶. Tariqatga Usmon Turar “Tasavvuf tarixi” asarida shunday ta’rif beradi; “Tariqat – arabcha “yo‘l” degan ma’noni bildirib, tasavvuf adabiyotida Allohga yaqinlashmoq va Uning roziligidagi erishish maqsadida yurish kerak bo‘lgan yo‘l demakdir”⁷⁷. Ayni tasavvuf haqidagi ko‘plab manbalarda ushbu istilohni Allohga yetishish uchun yo‘l degan ma’noni kasb etadi. Unda nega biz osonni murakkabga, murakkabni osonga aylantirish yo‘lidan boramiz? Navoiy naqshbandiylik tariqati vakili bo‘lib, nega yassaviylik tariqati asoschisi Ahmad Yassaviyning fikrlariga murojaat qildi? Nega o‘z asarlari uning g‘oyalarini ilgari surdi? Bizningcha, buning

⁷⁵ Кўпрулизода.Ф.М.Турк адабиётида илк мутасаввуфлар. –Анқара: 1984. Б – 110 .

⁷⁶ Ҳакқулов И. Тасаввуф сабоқлари. – Бухоро: «Бухоро давлат университети », 2000. Б – 80 .

⁷⁷ Турар Усмон. Тасаввуф тарихи.-Тошкент : « Истиқлол », 1999. – Б 61 .

sababi tariqatlar, maslaklar boshqa-boshqa bo‘lgani bilan maqsad yagona. Allohga yetishish, Haqni tanish. Avvalo, o‘zlikni bilish. O‘zini bilgan – Haqni taniydi. O‘zini anglagan – Haqni taniydi. Nafsi jilovlagan – Haqning haqiqatiga erishadi.

Ibrohim Haqqulning asarlarini tadqiq etar ekanmiz, bir hodisotga guvoh bo‘ldik. Mutasavvuf shoirlar haqida tadqiqot olib borar ekan, albatta, ularni Hazrat Alisher Navoiyga yoki Alisher Navoiyning ularga ta’siriga to‘xtalib o‘tadi. Bu masala albatta, vaqt, zamon, makondan kelib chiqqan holda hal etiladi. Olimning “Ijod iqlimi” asarida bir qancha mutasavvuf va so‘fiy shoirlar haqida fikr yuritiladi. Asar mundarijasiga ahamiyat bersak, unda Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy, Boborahim Mashrab, Yunus Emro kabi mutasavvuf shoirlar ijodiga bir nechta qismli maqolalar bilan e’tibor qaratgan. Yuqorida fikrlarimizni davom ettirgan holda navbatda Farididdin Attor va Hazrat Navoiyni bog‘lab turgan rishtalarni ochiqlashga jazm qildik. Bunda ham ilk masala Attorning o‘ziga xos dunyosi haqida so‘z boradi. Ibrohim Haqqul ta’biri bilan aytganda, “Attor – ishq va irfon, xayol va hurriyat shoiri. Ishq ilohiyot, ruhoniyat sirlarini yoritish – Attor uchun eng muhimi va qiziqarlisi ana shu. Bu degani-Attor voqelikdan ajralib, hayot va turmush muammolaridan hech babs yuritmagan degani emas, albatta. Qay shoirki, inson haqida o‘ylab, uning dardi bilan kuyib-yondimi, demak, u zarur narsani o‘laydi”⁷⁸. Umri davomida sermahsul ijod etgan shoir g‘oyalari nafaqat o‘z zamonida, balki boshqa zamonlarda ham osonlikcha qabul qilinmadni. Uni va u kabi fikrlovchilar o‘z zamonasi uchun bitta-bitta bo‘lib tug‘iladi. Hamfikrlari, maslakdoshlari bo‘lganda, balki ijodkor ahli ruhan yakkalanib qolmasmadi? O‘z o‘y-xayollarini uni anglaguvchi, tushunguvchi, barcha sir-asrorlarni bilguvchi Haqqa bu qadar intilmasdi, balki?!

Ibrohim Haqqulning Attor haqidagi “Attor kashf etgan asror” maqolasida dunyo haqida fikr borar ekan, uni sir-sinoatga boyligiga tashbeh beradi. Din, dunyoqarash, turli - tuman nazariya va ta’limotda farqlanishlar haqida so‘z boradi. Ayni mana shu nuqtada insoniyat o‘rtasida adovat paydo bo‘ladi. “Dunyoning eng yashirin, eng nozik sir-asrorini faqat odam kashf aylashga qodir. Xoliqni bilish va tanishga layoqatlari yakka-yu yagona jonzot insondir. Uning zimmasiga favqulodda mas’uliyatli vazifa yuklatilgan: O‘zni tanish orqali Haqqa yaqinlashish. Shu maqsadda yo‘l axtarilgan, ko‘p fikr-

⁷⁸ Ҳаккулов И. Ижол иклими. Тошкент: «Фан», 2009. Б – 27.

mulohazalar bildirilgan. Natija qanoatlanarli bo‘lman. Maslak, e’tiqod, mafkura jabhasidagi tortishuv va ixtiloflar kuchaysa, kuchayib borganki, pasaymagan”⁷⁹. Insoniyat tarixidan ma’lumki, olomonga qarshi chiqib fikr bildirish hech qachon o‘z zamonida ijobiy qabul qilinmagan. Bunga G‘arbda ham, Sharqda ham yetarli asos bo‘luvchi voqealar mavjud. Sharq adabiyotida Mansur Halloj-u Nasimiyni eslaylik. G‘arbda ilk uyg‘onish davridagi ilmiy kashfiyotlarning asoschilari ne ko‘yga tushdi?

Shu o‘rinda Attorning “Mantiq ut-tayr”da yaratgan Shayx San’on obrazini eslaylik. O‘z zamonida ham, afsuski, hali-hanuz Shayxning olami to‘laligicha izohlanmadni. Izohlanganda ham to‘liq qabul qilinmadni. Sabab – o‘sha. O‘z-o‘zini oqlovchi, o‘z-o‘zini haq qilib ko‘rsatishga urinuvchi ta’limotlar, maslaklar. Shu kabi fikrlarni Ibrohim Haqqul o‘rtaga tashlar ekan, Husayn Jovidning “Shayx San’on” asarini esga oladi. Attorning na bu, na boshqa asarida insonni kamolotga yetishuvida islomni chetlab o‘tib amalga oshirish haqida hech qanday gap aytilmagan. Olim Hazrat Navoiyning quyidagi baytini keltiradi:

So‘zungniki, yaxshi ko‘rarsen o‘zung,
Ko‘runmas yomon, chun erur o‘z so‘zung.

Darhaqiqat, Hazrat Alisher Navoiy siymosi, dahosini qad rostlashida Attor va uning “Mantiq ut - tayr”ini o‘rni beqiyos. Bu oshiqlik Navoiyni umri davomida tinch qo‘ymadi va “Lison ut-tayr” dostonini yozdi. Dostonda Attorning asarlari nomini birma-bir tilga oladi:

“Nazm-u nasridinki tahrir aylabon,
Vahdad asrorini tafsir aylabon.
Chun “Musibatnoma”sin aylab bayon,
Yuz musibat nafsqa aylab ayon,
Har musibatdin ko‘ngulga sur o‘lub,
Kim ko‘ngul ul surdin masrur o‘lub.
Chun raqam aylab “Ilohiynoma”ni,
Vahyiga aylab muharrir xomani.
Sharhi asrori ilohi aylabon,
Xalq aro sharhin kamohi aylabon.

⁷⁹ Ўша асап. Б – 17 .

Chunki “Ushturnoma” aylab oshkor,
Nuktasi buxtilarin tortib qator.
Nasr ila chun “Tazkira” mavjud etib,
Avliyo arvohini xushnud etib.
Bir taraf borig‘a otin-u sharaf,
“Mantiq ut-tayr”g‘a otin bir taraf”⁸⁰.

Navoiy ustozini ham bir asarini o‘z xususiyatini, birini ikkinchisidan ajratib turuvchi belgisi bilan tilga oladi. Uni nafaqat tazkira ilmida, balki g‘azal, ruboiy, nasrda ham tengsiz ekanligini yodga oladi. Shu o‘rinda Ibrohim Haqqul “vahdat asrori”, “vahdat sharhi” kabi ikki tushunchaga to‘xtalib o‘tadi. Bu ikki istilohning Attor va Navoiy ijodida o‘rniga e’tibor qaratadi. Ayni paytda bu istilohlarni mazmunini yoritishga dalil izlaymiz. Najmiddin Komilov o‘zining “Tasavvuf” nomli asarida Attor haqida quyidagi fikr bildiradi : “Attor asarlarida ham “har ikki olam”, “bu dunyo” kabi urf bo‘lgan iboralar uchrab turadi. Lekin buni shoirning e’tiqodi ifodasi deb qaramaslik kerak. Attor uchun olam yagona, bir butunlikdan iborat cheksiz- chegarasiz borliq. Hatto yer bu cheksizlik uqyonisida bir dona xas misolidir. Inson, demak, undan ming chandon kichik mavjudot. Cheksiz kattalik va cheksiz kichiklik, kenglik va torlik, yoyilish va yig‘ilish, muxtasarlik va mufassallik, zarar-u naf, yaralishva yo‘qolish, berklik va oshkorolik, kullu juz’, qotish va suyuqlanish, tug‘ilish va o‘lish, tortilish va uzoqlashish va hokazolar, bularning muvozanati, ziddiyatlari haqida, tazodiy hodisa-voqealarning “jang-u sulhi” ulardan inson aqli, shuuri va ruhida paydo bo‘lgan o‘zgarishlar xususida yozadi”⁸¹. Olloh bilan birlikni ko‘zlagan insonga bu dunyo va u dunyoning ahamaiyati ham, hech qanday moddiyatdan ham umidvorlik bo‘lmaydi. Yakka-yu yagona Yaratuvchisini visoliga umidvorlik uning bosh maqsadi bo‘ladi. “Vahdad ” ning asl ma’nosи ham “birlik” degan ma’noni anglatadi. Ibrohim Haqqul ta’biri bilan aytganda, Koinotda Birdan boshqasini ko‘rmaganlar, vahdat daryosida cho‘mganlar va ishq olovida yonganlar hisoblanadi. Attor shaxsiyatida ham xuddi shunday o‘xshashlik ko‘zga tashlanadi. Xuddi shu kabi masalalar Attorning “Ushturnoma” asarida tilga olinadi. Xuddi shu kabi asarlar Navoiy lirikasining kamol topishida, uning tasavvuf bilan bog‘liq o‘y-xayollarini

⁸⁰ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 12-жилд. –Тошкент: «Фан», 1996. Б – 27.

⁸¹ Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори. – Тошкент: «Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат » ҳамда «Ўзбекистон» нашриётлари, 1999. В-51

kurtak yozishida zamin hozirlagani, shubhasiz. Ibrohim Haqqulning boshqa tadqiqotlariga tayangan holda Navoiy dahosi o‘z-o‘zidan bir kunda, bir yilda shakllanib qolmadi. Uning o‘z davrida yashab, ijod etishi, ijod etganda ham turkiy adabiyotni o‘xhashi yo‘q adabiyotga aylantirishi odatiy hol emas. Buning uchun ijtimoiy muhitdan tashqari ruhoniy tayyorgarlik kerak edi. Xuddi shu ruhoniy tayyorgarlik, tasavvuf bilan bog‘liq tushunchalarni bulutlar ortidan ko‘rinishiga Navoiygacha bo‘lgan mutasavvuf shoirlarning o‘rni alohida. Bizningcha, Hazrat Alisher Navoiy Xoja Ahmad Yassaviydan nafsn ni zanjirlashni, tarbiyalashni o‘rgandi. Farididdin Attordan ikki dunyoda sayr etmoqlikni, Alloh bilan birlik yo‘lidagi – vahdatni o‘zida kamol toptirdi. Navoiy o‘zidan keyingi mumtoz adabiyot vakillariga o‘zigacha bo‘lgan ijodkorlar silsilasini davom ettirish uchun ko‘prik bo‘ldi. Ko‘prik bo‘lganda ham, o‘z nomi, sha’niga munosib mustahkam bo‘ldi. Uning ustunlari Qur’oni Karim oyatlari bilan mustahkamlangan. So‘fiy, mutasavvuf shoirlar ijodidan bahramandlik, chin ma’noda muxlislik Navoiy dahosini yuzaga keltirdi.

Hazrat Navoiy haqida ko‘p gapishimiz mumkin. Chunki bu daho merosining adog‘i yo‘q. Ammo ilm-fanimizda Alisher Navoiy haqida eng kerakli gapni o‘z vaqtida aytgan olim – Ibrohim Haqqulning mehnati tahsinga loyiq.

2.3. “Navoiyga qaytish” asarida tasavvufga munosabat

Olim zamonaviy adabiyot ilmida birinchilardan bo‘lib tasavvuf va she’riyat munosabatlarining o‘zbek adabiyotida namoyon bo‘lish darajasini tadqiq etdi. “Tasavvuf she’riyati insonning ruhiy hayoti, yuksak va murakkab psixik holatlarini chuqur tadqiq etgan she’riyat” degan xulosaga keladi. Tasavvuf allomalari ijodi tadqiqiga to‘xtalganda, olimning yassaviyshunoslik taraqqiyotiga qo‘sghan ulushini ta’kidlash joiz. Uning Mustaqillik yillarida yassaviyshunoslikning yuqori bosqichlarga ko‘tarilishi uchun amalga oshirgan ishlari e‘tiborga loyiq.

Ustoz Ibrohim Haqqul “Navoiyga qaytish” kitobida “Navoiyni anglash mashaqqati”, “Navoiyga qaytish”, “Tasavvuf va Navoiy she’riyati munosabatiga doir”, “Ishq va komillik jazbasi”, “Mansur Halloj va Navoiy”, “Oqillik va g‘ofillik”, “Teranlik sadosi”, “Ma’ruf va orif” va qator g‘azallar tahliliga to‘xtalib o‘tadi.

“Navoiyga qaytish” kitobining dastlabki boblarida Navoiy g‘azallarida nafs, oriflik, qora rang, muhabbat va ishqning farqi, ishq va komillik jazbasi, Mansur Halloj va Alisher Navoiy, ma’ruf va orif, terning siri, oqillik va g‘ofillik haqida fikr yuritiladi. Ibrohim Haqqul uslubidagi xoslik shundaki, u ma’lum bir tushunchani yolg‘iz o‘zini emas, bir nechta bir-biriga bog‘liq tushunchalar bilan solishtirib, qiyoslab tahlil qiladi. Ma’lum bir voqeа haqida fikr bildirmoqchi, tahlil qilmoqchi bo‘lsa, uzundan uzoq teoremalar, qoidalardan ko‘ra hayotiy misollardan foydalanadi. Olim tahlilning eng sodda yo‘lidan boradi. Maqsad – mohiyatni anglatish. Navoiy yoki boshqa qay bir ijodkor, uning ijodiga fikr bildirar ekan, avvalo, o‘quvchini qarshisida turgandek, u bilan suhbat qurgandek qalam tebratadi. Jumladan, “Navoiyga qaytish” kitobining dastlabki maqolalarida shunday deydi: “Navoiy xoslar shoiri”, degan bir fikr aytilgan edi. “Xoslar” – alohida toifa demak. Odatda ahli tasavvufga xoslar deyiladi. “A’xos” – xoslarning xosi, “xos” – saralangan kishilarning jamoasi, “avom” – savodsiz yoki savodi past oddiy xalq, “a’vom” – darajasiga ham ko‘tarilmaganlar guruh. Navoiy shohning ham, gadoning ham, oshiqning ham, orifning ham, hamma-hammaning shoiri. Navoiy she’riyatidan kim nimani axtarsa, shuni topadi”⁸². Ushbu jumlalarga tayanadigan bo‘lsak, Ibrohim Haqqul ham yillar davomida Navoiyning chin muhibi bo‘lib, undagi uslub, shaxsiyatni ham o‘ziga singdirdi. Uning haqiqiy muxlisiga aylandi. Shu muxlislik bilan uning asarlarini tahlil qildi, o‘quvchiga mavzu, ruh, g‘oya, shaxs sifatida yaqinlashtirdi. Navoiyni bizdan turli sabablar bilan uzoqlashtirishgan edi. Ammo ko‘p adabiyotshunos va navoiyshunoslar xizmati bilan Navoiy o‘z asliyatiga qaytmoqda.

“Navoiyga qaytish” birinchi kitobining ikkinchi qismida Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”dagi devonlardan o‘rin olgan 20 dan ortiq g‘azallarning tahlili berilgan. Jumladan, Ibrohim Haqqulning qator kitoblarida she’r va uning tahlili turkumi ostida g‘azal sharhlari berilgan.

Badiiy so‘z san’ati taraqqiyotini adabiy aloqa va o‘zaro hamkoriksiz tasavvur qilish qiyin. Xususan, Mustaqillik yillarida qardosh xalqlar adabiyotini o‘rganish, tahlil va talqin etish jarayonlarida ham yangi bosqich boshlandi. Olim bu borada ham samarali ishlar olib bordi. Aksariyat

⁸²Хаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б-12 .

maqolalarini olim epigraf bilan boshlaydi. Bu uning uslubiga xos bo‘lgan xususiyatdir.

Sharq mumtoz adabiyotining yetuk ijodkorlari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy munosabatlari jahon adabiyotshunosligida ham, o‘zbek adabiyotshunosligida ham atroflicha o‘rganilib, tadqiq etilgan. Bu borada, ayniqsa, tojik olimi A. Mirzoyevning “Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy”, rus sharqshunosi Y. Bertelsning “Navoiy va Jomiy” kitoblari, eron olimi Ali Asg‘ar Hikmat, o‘zbek olimlari A. Qayumov, R.Vohidov, D.Salohiylarning tadqiqot va maqolalari ahamiyatli. Shunday bo‘lsa-da, bu masalaning hali o‘rganilmagan, ikki daho ijodkor shaxsiyatiga doir ochilmagan qirralari juda ko‘pligini adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning bir qator maqolalarida Jomiy va Navoiy munosabatlari, ular shaxsiyati va ijodidagi mushtarak jihatlarini yoritishida ko‘rish mumkin. Qaysi fan doirasida bo‘lishidan qat’iy nazar, ko‘pincha har bir olimning o‘zi qiziqadigan sohasi bo‘ladi. Ibrohim Haqqulni eng ko‘p qiziqtirgan muammolar hazrat Navoiy ijodi va tasavvuf edi.

Adabiyotshunosning ilmiy tadqiqotlari doirasi nihoyatda keng. U Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiydan boshlab Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Jamol Kamol, Rauf Parfi, Usmon Azim, Xurshid Davron kabi o‘zbek shoirlarining she’riyati bo‘yicha tadqiqotlar yaratgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotini tadqiq etish Ibrohim Haqqulning faoliyatini muhim yo‘nalishi va u mumtoz adabiyot vakillari ijodini o‘rganish, tahlil qilishning yangicha tamoyillarini boshlab berdi. O‘zbek mumtoz adabiyotini Mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan tadqiq etish, sho‘ro mafkurasi ta’sirida yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni tuzatish, kamchiliklarni to‘ldirish, shoirlar ijodining asl mohiyatini ochib berishda o‘ziga xos yondashish tamoyillariga tayangan holda faoliyat olib borishdan iborat.

Ibrohim Haqqulning mumtoz adabiyot janrlarini (g‘azal, ruboiy, qit’a, fard) tadqiq etgan ishlarini ham, tasavvuf ta’limoti va adabiyotini o‘rganish yo‘lidagi izlanishlari ham, zamonaviy adabiyot haqidagi suhbat va maqolalari ham takror-takror Navoiy ijodiga murojaatini ko‘ramiz.

Ibrohim Haqqul o‘quvchiga Alisher Navoiyning shoir, mutafakkirligidan tashqari yana bir muhim jihatini tanishtiradi. Ushbu jihat – tarixnavislik. “Zanjirband sher qoshida” risolasidan keyin Navoiy asarlarini sharhlash, talqin etish, badiiy matn sir-asrorlarini ochish, tafsirlash zarurati

yanada oshganligi va shu ehtiyojni anglagan navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul mustaqillik arafasida xayrli ishga qo‘l urdi. Shoир qit’alarini o‘rtayoshli maktab o‘quvchilariga moslab tahlil qildi. “Kamol et kasbkim” kitobini nashr ettirdi. Eng avvalo, qit’aning janriy xususiyatlari, uning eron, tojik, turk va boshqa xalqlar olimlari tomonidan berilgan ta’riflari, muxtasar ma’nolariga, “Xazoyin ul-maoniy”dagi 210 qit’aning shoир she’riyatida katta o‘rin tutishiga e’tibor qaratdi. Ibrohim Haqqulning tadqiq etishicha, o‘zbek mumtoz adabiyotida qit’aning to‘rt baytdan ortiqlari kam uchraydi. “Gadoiy, Lutfiy, Bobur, Ogahiy, Miriy va boshqa klassik shoirlarimizning qit’alari ikki, uch, to‘rt baytlidir. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonidagi 210 ta qit’aning 200 ga yaqini ikki, uch, to‘rt baytli. Bu tasodifiy hodisa emas, albatta. Chunki klassik san’atkorlarimiz mumkin qadar ixchamlikka intilganlar”⁸³. Alisher Navoiy qit’alarini tahlil qilishda Ibrohim Haqqul yana o’sha o‘zi tanlagan soddalik va qiziqlarlilik yo‘lidan boradi.

Shoirning “Kamol et kasbkim” qit’asini talqin etishda olim, avvalo, so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga e’tiborini qaratadi. Shu o‘rinda, qit’a matnini keltirishni joiz deb bildik:

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih
Erur hammomdin nopok chiqmoq⁸⁴

Kamol kasb etmoq degani behad keng va teran tushuncha. Qit’ani o‘qiganda, avvalo, mana shu to‘g‘rida mulohaza yuritish kerak, deb hisoblaydi olim. “Lison ut-tayr”dagi to‘rt unsurga to‘xtaladi. “Hazrat Navoiy “Kamol et kasbkim” deya da’vat qilganlarida komillik uchun zarur juda ko‘p xususiyatlarni nazarda tutganlar. Kishi o‘zini hirs, tama, nafs, g‘aflat, nodonlik singari mayllaridan poklamasa, u hech payt komil bo‘lолmaydi. Komillik uchun ulkan insoniy qalb, uni nurlantiruvchi so‘nmas ishq va keng qamrovli tafakkur zarur ”⁸⁵, – deb yozadi.

Shu o‘rinda bir jihatdan e’tiborni tortadi. Olim “Tasavvuf va she’riyat” kitobida o‘zining oxirgi bir fikriga qarshi chiqadi. U “Kimki o‘zlik imoratin

⁸³ Ҳаққулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 6 .

⁸⁴ Ҳаққулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. Б – 23 .

⁸⁵ Ўша асар. Б – 23 .

buzdi” deb nomlangan maqolada Navoiy va tasavvuf masalasiga to‘xtalar ekan, tahlil jarayonida “Kamol et kasbkim” qit’asi tahliliga yanada chuqurroq yondashadi. Tahlil va talqin imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. R.Orzibekov qit’aning axloqiy-ta’limiy mag‘zi kuchliligi, shoir kishilarni ilm-hunar o‘rganishga chaqirishi haqida to‘xtalar ekan, rostdan ham she’rda shunday talab va chaqiriq bormi, deb o‘z oldiga savol qo‘yadi. Bunga javob qaytarish uchun boshqa olimlarning mulohazalariga murojaat etib, bir qator tahlillarni ko‘zdan kechirdi, ayrim tahlillarning Navoiy ko‘zlagan maqsaddan ancha yiroqligi olim e’tiroziga sabab bo‘ladi. Ularga munosabatini Erkin Vohidovning Navoiy g‘azallarining ayrim tahlillari haqidagi so‘zlarini keltirish orqali ochiq-oydin ko‘rsatadi: “G‘azalning mazmunini jo‘n gapirib berish – tahlil emas. Bu g‘azalni yechintirish. Uni shohona libosdan xoli qilib, ochiq tanasini ko‘rsatish, xolos. Bunday tahlil she’rxonni sovutadi, shoirni beobro‘ qiladi”⁸⁶. Ushbu qit’aning tahliliga Ibrohim Haqqul teran yondashadi. Aslida, “insonning jahon farzandi mavqeyiga ko‘tarilishi, xuddi shu mavqe’ esa kamolotning oliv cho‘qqisi” emas. Olim tasavvuf ta’limotini teran o‘rganishi va Navoiyning ushbu qit’asida mazkur ta’limot yolqinlari akslanganini anglashi natijasida “qit’ada jahondan o‘zni to‘la ozod aylashga da’vat qilingan. Bu – tasavvufdagi bosh masala”, – deya xulosa qiladi. Qit’alar tahlilida Ibrohim Haqqulning tafakkuri kengligi, muammoni teran anglagan holda tarixiylik tamoyilidan mohirona foydalanishi yaqqol namoyon bo‘lgan.

Alisher Navoiy asarlarini boshdan-oyoq bir marta o’qib chiqqan kitobxon katta ma’naviy boylikka ega bo‘ladi. Shu sabab ulug’ shoir asarlarini satrma - satr mutolaa qilib, ularning mohiyatini kitobxonga anglatish kabi ezgu ishlarni amalga oshirayotgan Ibrohim Haqquldek zahmatkash olimlar mehnati e’tirofga loyiq.

“Navoiyga qaytish” – taniqli navoiyshunos Ibrohim Haqqulning turkum kitoblari. Bu to‘plamlar navoiyshunoslikning dolzarb masalalari, ulug’ shoir ijodini yangicha nuqtayi nazaridan o‘rganish, asarlarining g‘oyaviy asoslari va badiiyati sirlarini ochish kabi mavzulardagi maqolalar, so‘z saltanatining sultonи hayoti va ijodini o‘rganish bilan bog‘liq adabiy suhbatlar va buyuk so‘z san’atkorining g‘azal, qit’a, ruboiy, fardlari

⁸⁶ Ҳакқулов И. Тасаввув ва шеърият. – Тошкент: «Ғ.Фулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси», 1991. Б 135 .

sharhlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, 1-kitobda “Navoiyni anglash mashaqqatlari”, “Navoiyga qaytish”, “Tasavvuf va Navoiy she’riyati munosabatiga doir”, 2-kitobda “ Badiiy matn va tahlil muammolari”, “Navoiy she’riyatida so‘z va ma’no”, “Navoiyning vahdat tushunchasi va panteizm”, “Navoiy she’riyatida fano talqinlari”, 3-kitobda “Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati”, “Navoiy va yunon falsafasi”, “Alisher Navoiy va Abusaid Mirzo”, “Navoiy she’riyatida Haq va shaxs talqini” kabi navoiyshunoslik rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dasturulamal xarakteridagi maqolalar o‘rin olgan. “Navoiyga qaytish” nomi ostida chiqqan 4 - kitobda navoiyshunoslikdagi bahs-munozaralar, ularga olimning fikrlari, ochiq xatlari o‘rin olgan. Ibrohim Haqqul tadqiqotlarining yaqqol ajralib turadigan jihatlaridan biri shundaki, u aksariyat shoirlar ijodini Navoiyga qiyosan tekshiradi. Navoiy go‘yo shoirning shoirligi, adabiyotdagi o‘rni, asarlari badiiyati va umrboqiyligini o‘lchaydigan o‘ziga xos tarozi. Ibrohim Haqqul-matnshunos sifatida ham e’tiborga sazovor ishlarni amalga oshirdi. U birinchi bo‘lib taniqli turk olimi Kamol Eraslan 1983-yilda Turkiyada chop etgan “Devoni hikmatdan sochmalar” to‘plami hamda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan Ahmad Yassaviy hikmatlari nusxalari asosida ulug‘ tariqat pirining “Hikmatlar” devonini nashr ettirdi. Sharhnavislik – olim ijodining alohida yo‘nalishini tashkil etadi. U sharhnavislik faoliyati bilan bir umr shug‘ullanib, Atoiy, Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Furqat kabi so‘z ijodkorlarining ko‘plab g‘azal, ruboiy, qit’a va fardlar sharhlangan. Ibrohim Haqqul keng doiradagi o‘quvchilar qalbiga yo‘l topgan olim. Ibrohim Haqqul yo‘li aslida To‘xtasin Jalolov, Vohid Zohidovlar boshlab bergen ehtiros bilan qiziqarli va ta’sirchan yozish yo‘lining mantiqiy davomidir. “Inson badiiy tafakkurni qotib qolgan narsa emas, – deb yozadi olim. U zamon va davrlar o‘tishi bilan o‘sib, o‘zgarib, yangi sifatlar bilan boyib boradi. Bularning hammasi u yoki bu tarzda she’riyatda ham o‘z ifodasini topadi. Demak, adabiy hayotda sodir bo‘lgan g‘oyaviy-badiiy tendensiyalar mohiyatini ko‘rsatishda janr o‘ziga xos bir ko‘zgu vazifasini o‘tashi tabiiy.” U birgina ruboyni tadqiq qilmadi, balki, mumtoz adabiyotda janrlarning paydo bo‘lishi, taraqqiy etish qonuniyatları haqida keng fikr yuritdi. Jabbor Eshonqul ta’biri bilan aytganda, Ibrohim Haqqul olimlarning shoiridir. “Olim Alisher Navoiyni turkiy so‘z lashkarining mislsiz sultonii”, “San’atkorlikning

buyuk maktabi. Haqiqiy mezoni, “O‘zbek adabiyotining poytaxti”, deb ataydi. Bu shoirlik emasmi?”⁸⁷

Olim Navoiyning tasavvuf bilan bog‘liq fikrlarini tahlil etishda eng avvalo, Navoiyning tasavvufiy bilimlari qaysi manbalarga asoslanganini o‘rganadi. Jumladan, Navoiy inson ruhining sir-asrorlarini kashf etishda tasavvufdan ko‘p narsani o‘rgangan. Bu haqiqatni to‘la iqror etish uchun hgech bo‘lmaganda, Navoiy o‘qigan tasavvufga doir ilmiy, tarixiy, adabiy manbalar bilan tanishmoq lozim. Jumladan, “Xamsat ul-mutahayyirin”ning xotimasida Navoiy ustozи Abdurahmon Jomiy xizmatida bo‘lgan yillarida o‘ndan ziyod kitob ro‘yxatini keltiradi. Ularning aksari tasavvuf haqida. Bular: “sufiya mashoyix istilohida bitilgan” “Lavoeh” va “Lavome”, “Sharhi ruboiyot”, “Nafahot ul-uns”, Xoja Muhammad Porsoning “Qudsiya”si, Xoja Abdulloh Ansoriyning “Ilohiynomasi”va boshqalar.

“Navoiyga qaytish”ning bir faslida quyidagi fikrlar o‘z aksini topgan: “Tasavvufga bag‘ishlangan mo‘tabar kitoblarda takror-takror keltiriladigan bir hikoyat bor: naql qilinishicha, Shayx Sam’unning majlisida bir odam uning yoniga kelib o‘tirib undan “Muhabbat nedur?” – deya so‘rabdi. “Bugun bu masalani tushunmoqqa qodir biror-bir kimsa yo‘qdir”, – debdi Sam’un. Shunda uning yoniga bir qush kelib qo‘nibdi. Shayx qushni tizzasiga olib, “Muhabbatni anglagan biror jonzod bo‘lsa, mana shu qush erur”, – debdi-da, unga yuzlanib so‘z boshlabdi: “So‘fiylar ishq va muhabbatda shu, shu darajaga yuksaldilar. Shunday sirlarni mushohada etdilar” singari bir qancha gaplarni aytibdi. Sam’un ishq haqida shu qadar ta’sirli gapiribdiki, bir payt uning tizzasidagi qush o‘lik holida yerga qulab tushibdi. Va bu hol majlis ahlini hayron-u lol etibdi. Hazrat Alisher Navoiyning ayrim g‘azallarini o‘qiganimda, mana shu hikoyat tez-tez yodimga kelaveradi. U g‘azallarning sir va ta’sir quvvatini ta’riflash qiyin. Ba’zan ularning bashar xayliga mo‘ljallanganligiga aql ham bovar etmaydi. Chunki Navoiyning aksariyat g‘azallari, aqlusti bir tuyg‘u va zavqi ruhoniylila bitilgan”⁸⁸. Ijod ahlini, umuman olganda, qalbiga qaysi bir yo‘l ila ishq kurtak yozgan inson borki, Yaratganni taniydi, o‘zini taniydi. Ishq – insonlarni qalban birlashtiruvchi rishta. Ishq orqali fikrlar teranlashadi,

⁸⁷ Моҳиятга муҳаббат. Тўплам / масъул мухаррир Т.Мирзаев. – Тошкент: « Tafakkur », 2019. Б – 126 .

⁸⁸ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б –17 .

ravshanlashadi. Hazrat Navoiy va Ibrohim Haqqul shaxsiyatini, ruhoniyatini azaliy va abadiy bo‘lgan ilohiy ishq birlashtirdi. Hazratning sirxonasidan gavharlarni tizimga terish uchun albatta, Yaratgan eng avvalo, o‘zi yo‘l berishi kerak. Ne ajabki, tadqiqotimizda bir daho orqali ikkinchi daho ijodkor-olim shaxsiyatini anglasak, tahlil qilsak. Bugungi kun o‘quvchisiga azaliy va abadiy tuyg‘ular haqida mulohazalarimizni bildirsak. Mumtoz adabiyotning bosh va asosiy mavzusi – Ishq, Ishq va yana ishq. Ishqsiz yashab bo‘lmaydi. Aslidaki, yashashni iloji bor, ammo bu insoniy yashash emas.

Navoiy she’rlarini kishi qancha ko‘p va xo‘p o‘qisa, ma’no-mohiyatini qancha ko‘proq anglay boshlasa, fikr-mushohada doirasi kengayaveradi. “Navoiyga qaytish” asarining 1-bobining 5-faslida shoir Sobir Abdullaning bir turkum she’rlari tilga olinadi. Mana o‘sha she’r:

“Bilmak Navoiyni – bu zo‘r ma’rifat nishoni,
Bilmak Navoiyni – bu yuksakka eltar oni.
Bilmak Navoiyni – bu o‘z naf’i, yo‘q ziyoni,
Bilmak Navoiyni – bu oynayi jahoni.”

Navoiyni o‘rganish uchun ma’lum yoshga to‘lishni, vaqt o‘tishini kutish shart emas. Yoshga yosh qo‘shilsa, mumtoz adabiyotni tushunaman, degan fikr ham xato, nazarimda. Hazratning ijod olamining chirog‘ini yoqish uchun kuchli tafakkur, qalbda ilohga va unga shukronalik hissining o‘zi yetarlidir, balki.

Navoiyni anglash darajasiga, Ibrohim Haqqul ta’biri bilan aytganda, “maqomi”ga yetish saodatdir. Bu jarayon nihoyatda sekinlik, ko‘p o‘qish, mushohada yuritish, ma’lum bir hayotiy tajribaga ega bo‘lish bilan amalga oshiriladi. Navoiy ijodidan tasavvufni axtarish, uni tasavvufga bog‘lash shart emas. Ular shoir ijodiyotining o‘zida mavjud. Shoir ijodining negizi tasavvuf irmog‘idan suv ichadi.

Asarning keying qismlarida vaqt, umr haqida qimmatli fikrlar o‘z ifodasini topgan. “Inson umri vaqtning bir qismini va parchasi. Vaqt aslidagi deyarli barcha mavjudlik shu so‘ngsizlikka tobe, uning murosasiz hukmiga taslim”⁸⁹. Haqiqatdan olimning fikrlariga teran nazar tashlansa, vaqt birligi, vaqt chegarasi va mezoni hech bir insonni quvontiradigan hodisa emas. Vaqtning eng kichik birligi – insonning umridir, balki. Shu umrda abadiy va

⁸⁹ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б – 32 .

so‘nmas ilohiy tuyg‘ular tajassumi ila yashamoqni shoir aytmoqchidek, go‘yo. Hazratning ijod iqlimidagi fasllarda toblangan olim Ibrohim Haqqul ushbu asarni (“Navoiyga qaytish”) yozishni nega maqsad qildi? Nega uni tahlil qilishda eng sodda, ammo shoirona uslubni tanladi? O‘rni kelganda sof ilmiy, o‘rni kelganda Hazrat olamidan ilhomlanib nasrda shoirona o‘xshatishlar qildi.

“Ishq va komillik jazbasi” maqolasida javonmardlik, tasavvuf, malomatiylik kabi qator tushunchalar tahlili o‘rin olgan. Ushbu qismda Najmiddin Kubroning “Favoih ul-jamol” risolasidagi quyidagi fikri o‘rtaga tashlanadi: “Faqat qalb va ruh – yolg‘iz ana shu ikkalasi Haqni izlagan. Unga osiy bo‘lmagan va uning amriga zid bir ish qilmagan, Haq talabiga kuch sarf etgan ikki haq erur”⁹⁰. Ushbu bobda olim asosiy muammoni o‘rtaga tashlaydi. Navoiy ijodini talqin qilishdagi xatoliklar, noto‘g‘ri yo‘nalishlar, tasavvuf tarixining o‘rganilishi bilan bog‘liq muammolarga va ularning yechimlariga izoh berib o‘tadi. “Bugun hammaga ma’lum sabablarga ko‘ra, sho‘ro zamonida tasavvufni erkin va zarur darajada o‘rganishga imkon bo‘limgandi. Mustaqillikdan keyin ahvol butunlay o‘zgardi. Endi tasavvufni ham, tasavvuf adabiyotini ham dalilroq o‘rganayotirmiz. Biroq dalillik, tezkorlik bo‘lsa-yu, bilim, ko‘nikma, malaka, mas’uliyat yetishmasa, bu ham yangi muammolar, yangi-yangi kamchiliklarni yuzaga keltirar ekan. Mumtoz adabiyotimiz, jumladan, Alisher Navoiy ijodiyotini tekshirishdagi ahvol hozir taxminan ana shunday”⁹¹. Ibrohim Haqqul quyidagi fikrlar orqali tasavvuf tarixini o‘rganishidagi ko‘zbo‘yamachiliklarni qattiq qoralaydi. Hatto ushbu jarayonni dastavval poygaga, keyinchalik kulgili holatga yo‘yadi. Har bir mumtoz adabiyotimizning vakillari bo‘lgan ijodkorlarning, ijod mevalarini mag‘zini chaqishni murakkablashtiranimiz ham aslida o‘zimiz, deydi. Ushbu bema’ni poyganing zarari albatta, bizni Navoiydan, uning izdoshlari, mumtoz adabiyotimizdan uzoqlashtirdi. Besh, o‘nta tasavvufiy istilohni topib olib aylantiraverish bilan, uni qator-qator maqolalar uchun mavzu qilish bilan ish bitmaydi. Aksincha, mumtoz adabiyotni uzoqlashtiranimiz qoladi. Har bir she’rga Ibrohim ustoz ta’biri bilan aytganda, tasavvuf “libosi”ni kiydirish bilan ish bitmaydi. Bularning barchasi behuda chiraniш, ilmiy daraja olish, dong taratish uchun bajarilgan zo‘rma-

⁹⁰ Нажмиддин Кубро . Тасаввуфий ҳаёт . Истамбул: 1996, Б – 123 .

⁹¹ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б – 41 .

zo'raki "tadqiqot"lardir. Ushbu hodisani bartaraf qilish uchun qator yechimlarni ham sanab o'tadi. Avvalo, tasavvuf va tariqatlar tarixi, tasavvuf falsafasini, nazariyasi va estetikasidan yaxshi xabardor bo'lmoqlik haqida fikr yuritadi. "Tasavvufga – tasavvuf, adabiyotga – adabiyot deb qarash oddiy ishmas"⁹². Tasavvuf haqida haqiqiy tasavvur paydo qilishga ko'mak beruvchi manbalarni sanab o'tadi. Shu bilan birgalikda, tasavvuf adabiyotining bir nechta sanoqli vakillari borligini sanab o'tadi. Unda Mashrabning o'rnini hech qaysi ijodkor bilan tenglashtira olmaslikni nazarda tutadi. Tahlillar davomida "Nasoyim ul-muhabbat"da uchraydigan "majzub" degan istilohning ma'nosiga to'xtaladi. "Majzub – jazba odami. Jazba so'zining lug'aviy ma'nosi – jazb etish, tortish, jalb qilish demak. Istilohiy ma'nosi esa Haqning qulini o'zi tomonga tortishi, ilohiy tajallilarga sayri suluksiz yetishdir"⁹³.

"Navoiyga qaytish"ning keyingi maqolasidagi bosh mavzu Mansur Halloj va Alisher Navoiy masalasiga ko'tariladi. Alisher Navoiyning Halloj asarlari bilan bevosita tanishligi, ularni to'liq shakllarda o'qigan yoki o'qimaganligi haqida qat'iy bir gapni aytish qiyin. Ammo Halloj haqida bahs yuritilgan, fikr bildirilgan asarlardan xabardor ekanligi, shubhasiz. Hali yoshlik chog'alaridanoq Hujviriy Mansur Hallojning hayoti, shaxsi, va hol-sirlari bilan qiziqqan. Uning maktub va she'rlarini to'plagan. "Navoiy va Mansur Halloj haqida ko'p yuksak baho va e'tiroflar mavjudligini bilgani holda hech bir o'rinda, jumladan, "Lison ut-tayr"da ham o'zining axloqiy-ma'rifiy pozitsiyasini o'zgartirmaydi, va unga kiritilgan hikoyatda Hallojning shon-shuhrati, tasavvuf olamidagi mavqe'iga muvofiq bir voqeа tasvirini beradi. Uning muxtasar mazmuni shunday: Mansur Halloj tavhidda baland bir martabaga ko'tarilgach, tez-tez "Anal-haq" so'zini takrorlaydi. Din arboblari buni "ahli yaqin" shevasiga to'g'ri kelmaydi, deb unga nasihat qiladilar. Suluk ahli ham unga e'tirozlarini izhor aylaydi. Ammo u bularga parvo qilmaydi."⁹⁴

Qora rang talqini to'g'risida olim bir nechta asarlarida "Zanjirbad sher qoshida" va mazkur asarda to'xtalib o'tilgan. Ranglar talqini badiiy adabiyot, o'zbek folklori bilan bog'liq ravishda tahlil maydoniga tortiladi. Ayrim maqola va fikr-mulohazalar hisobga olinmaganda, o'zbek mumtoz

⁹² Ўша асар. Б – 42 .

⁹³ Ҳакқулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б – 43.

⁹⁴ Ҳакқулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б – 59 .

she’riyatida rang ramzlari va ma’nolari muammosi hali maxsus tadqiq qilingani yo‘q. Ranglar va ularning ramziy ma’no-mohiyati haqida fikr yuritish oson emas. Asardagi tahlilga ko‘ra, qadimda turkiylarning dunyoqarashi va fikr olamida oq rangga qaraganda qora rang e’tiborliroq mavqe’ga ega. Rus olimi A. Kononov qora so‘zining ma’nolarini tadqiq etgan. Unga ko‘ra, “katta, yirik, muhtasham, ulug‘, qudartli, kuchli, pokiza, musaffo, quruqlik, yer, zulmat ko‘ki, shimol” kabi ma’nolarini ko‘plab misollar vositasida izoh bergan⁹⁵. Shu bilan birgalikda, rang ma’nolarining tahlilida olim “Kitobi Dada Qo‘rqu”, “Dalli”, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” asarlari qahramonlari haqidagi fikr-mulohazalarga to‘xtalib o‘tadi.

“Navoiyga qaytish”ning ikkinchi kitobida buyuk mutafakkir hayoti, asarlarining yozilish tarixi bilan bog‘liq yangi fakt va tahlillar, ulug‘ shoir ijodini to‘g‘ri tadqiq etish yo‘lidagi metodologik yondashuvlar aks etgan maqolalar, g‘azal, ruboiy, qit‘alar talqini, sharhi, navoiyshunoslikning dolzarb muammolari o‘rin olgan. Ushbu asarni olim Ibrohim Haqqul ramziy ma’noda barcha filologlarga ustoz bo‘lgan Abdurauf Fitratning aziz xotirasiga bag‘ishlaydi. Asar uch yirik qismdan tashkil topgan. Dastlabki qismi “Mohiyat va anglash ziyosi” deb ataladi. Ushbu qismda olimning navoiyshunoslik sohasida dolzarb masalalar yoritilgan maqolalari o‘rin olgan. Ikkinchi qismda “Xazoyin ul - maoniy” devonidan o‘rin olgan o‘ndan ortiq g‘azallar tahlili mavjud. Tahlil orqali Ibrohim Haqqul Hazratning shaxsiyatini anglash yo‘lini ko‘rsatib beradi. Unda Navoiyning eng mashhur baytlari va “tesha tegmagan” she’rlari tahlil maydoniga tortiladi. Xotima qismi “Adabiy suhbatlar” deb nomlanishining o‘zi bu qism haqida dastlabki xulosani beradi. Ibrohim Haqqulning qaysi bir mavzudagi asari bo‘lmisin, unda albatta mohiyatga yaqinlashish, uni anglashga erishish yo‘lidan boradi. O‘z maslagidan qaytmagan insonning nafasi ufurib turadi. Navoiy baytlarining o‘zgacha ovozi, haqqulona ohangrabosi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Biz ham mavzu mohiyatidan uzoqlashmagan holda, dastlab e’tiborimizni navoiyshunolikning tarixi, bugungi kun navoiyshunosligi, tadqiqi, yutuq-kamchiliklari, navoiyshunoslikda Ibrohim Haqqulning o‘rni haqida fikr yuritishni joiz deb bildik. Dastavval, o‘zbek mumtoz adabiyotiga,

⁹⁵ Кононов А.Н. Семантика цветообозначений в тюрских языках// Туркологический сборник. Москва , 1978. С – 161-170

umuman Sharq adabiyotiga munosabat, G‘arb adabiyotiga taqqoslov haqida masalaning yechimiga javob izlasak. Zamonasining alg‘ov-dalg‘ov yillariga qaramasdan shuhrat qozona olgan ijodkorning juda oz. Shunday ijodkorlardan biri – Hazrat Navoiy! Yillar o‘tgan sayin navoiyshunoslik rivojlandi. Ammo o‘quvchidan Navoiy dahosi uzoqlashdi. To‘g‘rirog‘i, noto‘g‘ri talqin va tahlillar, mavzuni zo‘rma-zo‘raki boshqa mavzuga ulashlar, behuda chiranish asosida amalga oshirilgan “tadqiqotlar” ahvolni ancha salbiy tomonga burdi. Faqat va faqat mustaqillik shabasi esgach, bu sohada ham siljishlar amalga oshirildi. Navoiy ijodini, uning adabiy merosini qanchalik puxta bilsak, insoniy fazilatlarni shu qadar teran anglashimizga yangi qit‘a ochiladi. Qalbiga Navoiy so‘zлari o‘rnashgan odam, o‘zi xohlas-xohlamasa odamiylik mulki bilan bezanadi. Dastlab, Navoiy ijodini, umuman Sharq adabiyotini nuqul ishq-muhabbatni kuylab, ayolni osmoni falakka ko‘tarishga qaratilgan noto‘g‘ri fikrdan voz kechishimiz zarur. Zarur bo‘lganda ham dolzarb muammoni hal etish yo‘li. Bu xususda, Ibrohim Haqqulning quyidagi so‘zлari e’tiborimizni tortdi: “Darhaqiqat, nuqul ishq-muhabbatni kuylab, yuzing oy, ko‘zlarining yulduz, o‘zing quyosh deya ayolni osmon-u falakka ko‘tarib madh etilsayu, lekin ichkaridagi ahvol ruhiyasi, hasrat va armonlari bilan umuman qiziqilmasa, buni qanday izohlash mumkin?”⁹⁶ Haqiqatdan, qal’a ham ichdan yemiriladi degan gap bor. Bu bilan Ibrohim Haqqul ayol, uning siymosi, Sharq adabiyotidagi o‘rni haqida to‘xtalmoqchidir?! Uning o‘y-xayollari, shoир-u yozuvchilarga ilhom manbayi bo‘lishining asl sababini Navoiy ijodidan izlaydi. Navoiy turli janrdagi so‘zlarida nafs, ruh, ko‘ngil, aql haqida keng fikr yuritadi. Navoiy butun ijodiyoti mobaynida millat va Yurt dardi bilan yashagan xalq qahramoni, erk va hurriyat kuychisi, har sohaning yetuk bilimdoni sifasida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Xo‘s, uni o‘rganishga nima to‘sinqilik qildi? So‘zimiz boshida ijodkorning suv yuzasiga ko‘tarilishi uchun yaxshi muhit bo‘lishi haqida to‘xtalgan edik. Navoiy ham tasodifan dunyoga kelmadi. Buning uchun har tomonlama yaxshi shakllangan ijtimoiy muhit kerak edi. Temuriyzoda Husayn Boyqaro va so‘z san’atkori Navoiy orasidagi munosabat alohida ahamiyatga ega. Shu sababdan Navoiy ijodini tahlil qilganda, tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish maqsadga muvofiq. Shu o‘rinda navoiyshunoslikdagi yana bir masalaga e’tiborimizni qaratsak. 1983-

⁹⁶ Ҳакқулов И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007, Б – 9 .

2003-yillar davomida Hazratning XX tomlik asarlarining mukammal to‘plami nasr qilindi. Bu navoiyshunoslikdagi eng katta meros va yutuq edi. Ushbu asarlarni nashrga tayyorlashda qator adabiyotshunoslarning mehnatlari singgan. Hazratning ilk marotaba asarlari to‘liq holida nashr etilishi navoiyshunoslik sohasidagi eng katta yutuq edi. Ammo bu to‘plam imkoniyati nisbatan cheklangan edi. Cheklanganligi nimada edi? Mustabid Sho‘ro tuzumining ta’siri yaqqol sezilib turadi. Asarlarda ma’lum qisqartirishlar mavjud edi. Ammo endi bu — tarix. Uni o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Mukammal matnni Ibrohim Haqqul tabiatga qiyoslaydi. Undan o‘quvchi nimaniki qidirsa, topadi. Mukammal tadqiqot ham xuddi shunday. Undan o‘rtaga tashlangan mavzuning mohiyatiga yetishish sezilib turishi kerak. “Badiiy matn va tahlil muammolari” maqolasida ham xuddi shu mavzuda so‘z boradi. “Quruq inkorchilik, yoqimsiz bir chechanlik bilan ilmda hech nimaga erishib bo‘lmaydi”⁹⁷. Mukammal badiiy asar yo‘q joyda – adabiyot hech qachon bo‘lmaydi. Ibrohim Haqqul ham umri davomida mukammal matn, uning tahlili uchun kurash olib bordi. Insonning shaxsiyati, hayotning mohiyati haqida qayg‘urdi. Olim haqiqiy ma’noda Navoiy shaxsiyatining muhibi edi. Navoiy she’riyatining tahlili to‘g‘ri amalga oshirish haqida Ibrohim Haqqulning shunday jumlalari bor: “Navoiyda shunday g‘azallar va:

Ko‘ngul ichra g‘am kamligi asr- g‘amdur,
Alam yo‘qlug‘i dag‘i qattiq alAMDUR, –

Kabi yuzlab baytlar borki, ularning to‘g‘ri tahlil va talqini uchun hatto tasavvuf lug‘atlari ham yordam berolmaydi. Boshqa chora, boshqa yo‘l topishni Navoiyning o‘zi ko‘rsatadi. Biz esa Navoiyning o‘ziga qattiq suyanib Navoiy she’rlarini talqin qilishga hamisha ham amal etolmaymiz”⁹⁸. Navoiy asarlarining tadqiqining to‘g‘ri va xolis amalga oshirilishi uchun eng avvalo, tarixga murojaat – eng zarur omil. Tarixni puxta o‘rganish va tadqiq etish matn ustidagi eng oliy hakamdir.

“Men Navoiyni daryoga qiyosladiim va dedimki, bizning ayrim olimlarimiz uning sohillarida taxta qayiqlarda suzishni xohlaydilar. Mening o‘ylashimcha, bu muazzam daryoga zamonaviy ilm va madaniyat asosida

⁹⁷ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 2 -китоб. – Тошкент: Фан, 2011, Б – 13 .

⁹⁸ Ўша асар . Б – 19 .

yasalgan muhtasham bir kema bilan kirish lozimdir”⁹⁹. Ibrohim Haqqul o’sha o’zi barpo etgan kemaning yo‘lboshchisi edi. Bu kema bilan sayohatda sokinlik ham, to‘fonlar ham bo‘ldi. Ammo bizningcha, u o‘z kemasini manziliga yetkaza oldi.

Ulug‘ shoirning g‘azallaridan birida “Ko‘nglum ichra dard-g‘am avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas” degan. Oshiq g‘amga, g‘am esa oshiqqa talpinadi. Zero, iztirob – oshiqni oshiq maqomiga ko‘tarilishi uchun asosiy unsur. Navoiyshunoslikda masalaning aynan shu jihatni hisobga olinmay tahlil va talqinga berilishi mavjud. Navoiyning irfoniy g‘azallarining tahlili shu sababdan g‘alat tarjima qilindi. Ushbu jarayonni Ibrohim Haqqul “sinfiylik va partiyaviylikka berilish” deb baholadi.

“Navoiyga qaytish” turkumi ostida nashrdan chiqqan kitoblarning 3-qismida asosan diniy manbalarga murojaat, tasavvufga turli tomondan munosabatga kirishilgan. “Shaxsiyat va ijod muammolari” bobida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Agar Navoiy ijodiyotidagi islomiy tushunchalar talqini soxtalashtirib yoki sayoz tarzda ko‘rsatilsa, shoirning asl qiyofasi xiralashib ketadi.” Muhammad Payg‘ambar (s.a.v) bir hadislarida : “Yolg‘on ilmdan saqlaning!” – deya marhamat qilganlar. Biz ham Hazrat Navoiy ijodiga, bu orqali mohir munaqqid, yetuk navoiyshunos Ibrohim Haqqul xizmatlariga har tomonlama xolis baho berishga jazm qildik.

Ibrohim Haqqul ta’biri bilan aytganda, tasavvuf – sabr-qanoat, zahmat, riyoza bilan poklangan ruh va vujudni Ollohol ishqiga bag‘ishlab, yurakni mosivodan butunlay xalos aylab, faqri fano, zavq-shavqi bilan yashash demak. Navoiy ijodiyotini tasavvufdan ayricha holda tasavvur qilish, tahlil maydoniga tortishni o‘zi xato. Navoiyshunosligimiz tarixida Navoiyni mutasavvuf yoki so‘fiy degan bahs-munozalar bo‘lib o‘tgani barchamizga ayon. Adabiyotshunos olim Muhammad Fuod Ko‘prulizoda “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” maqolasida Navoiyni so‘fiy shoirlar sirasiga kiritadi. Navoiy mutasavvuf yoki so‘fiy degan savolga Ibrohim Haqqul quyidagicha javob bergan: “Hamma bir ovozdan Navoiyni so‘fiy deya e’tirof etdi deylik. Navoiyning shaxsida, ijodida hanuzgacha yashirin yotgan nima ochilib, favqulotda yorishib ketadi? Chalg‘ish, cheklanish, tarixiy haqiqatni buzishdan o‘zga hech nima”¹⁰⁰. Ibrohim Haqqul “Tasavvuf saboqlari”

⁹⁹ Nagiyeva J. Ozarboyjonda Navoiy. Baku: 2001. Б – 244.

¹⁰⁰ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 2011, Б – 81 .

asarida dastlab ushbu iboraga berilgan qator ta’riflarni keltirb o’tadi. O’nlab mutasavvuflarning asarlarida keltirilgan “so‘fiy” istilohiga ta’riflarni beradi. Ibn Xaldin, Ibn Taymiya, Abul fath-Bustiy, Abu Nasr Sarroj, Hasan Basriy, Husayn Voiz Koshifiy, Said Sajjodiy, Shahobiddin Suhravardiyalarning fikrlariga to‘xtalib o’tadi. So‘fiyga berilgan boshqa nomlar haqida namunalar beradi. Namunaga ko‘ra, so‘fiyning Oshiq, Eran, Miskin, G‘arib, Juniya, Ubbod, Baqqoun, Qussos kabi ma’nodoshlarini borligini izohlaydi. Eng so‘nggida o‘z hukmini oshkor etadi. “Bizning nazarimizda, so‘fiy so‘zining kelib chiqishini suv, mazmunini esa soflanish bilan bog‘lagan tadqiqotchilarning fikrlari haqiqatga yaqindirki, qat’iy xulosa uchun masalani ancha chuqur tadqiq etish lozim”¹⁰¹. Olim keyingi yaratilgan asarlarida tasavvufiy istilohlarning mazmuniga batafsil to‘xtalib o’tdi.

Najmuddin Komilov “Tasavvuf” nomli asarida “so‘fiy” istilohiga quyidagicha izoh beradi: “So‘fiy so‘zining lug‘aviy ma’nosi jun va jundan to‘qilgan matodir. So‘fiylar ko‘p hollarda jun chakmon yoki qo‘y terisidan tikilgan po‘stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni jun kiyimlilar (forschasi pashminapo‘sh), ya’ni so‘fiy deb yuritganlar. Bizningcha, shu keyingi etimologik ma’no haqiqatga yaqinroqdir. Zero, so‘fiy so‘zining «suf» so‘zidan yasalishi arab tili qonun-qoidalariga mos keladi”¹⁰².

Xo‘sh, agarda Navoiy so‘fiy bo‘lsa hirqa kiyib, qachon tarki dunyo qilib o‘z vatanini tark etdi?! Ushbu bahslarda ham Navoiyni o‘zidek anglashdan yiroqlashish ko‘zga tashlanadi. To‘g‘ri, dunyoda bir xil fikr, bir xil dunyoqarash bo‘lmaydi. Falsafa kategoriyalariga ko‘ra, har bir umumiyligliki xususiyligi bo‘ladi. Hech kim biror dahoni xuddi o‘zidek to‘laligicha anglashning imkoniy yo‘q. Lekin Navoiy dahosi, umuman olganda, biror hodisot haqida noto‘g‘ri qaror chiqarishga ham haqqimiz yo‘q.

N. I. Konrad hamda V.M.Jirmunskiylar Renessans va Navoiy ijodiyoti haqida bir muncha mulohalarni bildirib o‘tishgan. U Navoiy tug‘ilib o‘sgan yurt Hirot bilan Italiyadagi uyg‘onish davrini solishtirgan. Xo‘sh, eng avvalo, makon va zamon orqali ajralib turuvchi ikki joy nomini Navoiy dahosi birlashtirb turadi. Navoiy birgina turkiy yoxud forsiylarning shoiri emas. U butun bashariyat uchun dunyoga kelgan. Shu orqali umuminsoniyatga dahldor. Fuzuliyni ozariylar, Maxtumqulini turkmanlar, Yunus Emroni

¹⁰¹ Ҳаққулов И. Тасаввув сабоқлари. – Бухоро: «Бухоро давлат университети», 2000. В – 35 .

¹⁰² Комилов Н. Тасаввув. Биринчи китоб. –Тошкент: «Ёзувчи», 1996. Б – 7.

turklar sevib mutolaa qiladi. Ammo Navoiy dahosiga qiziqish uyg‘onganiga, uni o‘rganishga havas oshganligiga ancha yillar bo‘lgan. Bu mulohazalarimizning mantiqiy davomi Ibrohim Haqqulning “Navoiy ijodiyotining olamshumul ahamiyati” maqolasida o‘z aksini topgan.

“Navoiyni asl Navoiydan yiroqlashtiruvchi ishlar, xususan, sho‘ro zamonida ko‘p yozilgan. Buning tub sababi va asoslarini shartli ravishda mana bunday tasniflashtirish mumkin:

1.Siyosat va mafkura talabi tufayli to‘qilgan yolg‘on hamda g‘ayriilmiy mulohazalar;

2.Tarix,din, tasavvuf, falsafani va eski falsafani bilishni istamaslikdan yuzaga chiqqan uydirmalar;

3.Did, saviya va dunyoqarashning past hamda sayozligidan tug‘ilgan tamalsiz fikr-mulohazalar;

4.O‘ziga o‘zi hisob bermaslik, ya’ni omiyona o‘zboshimchalikka berilish mahsuli o‘laroq ilgari surilgan yasama gaplar¹⁰³.

Hazrat Navoiyning asarlari yozilgan yillar, sanalar, hududlar haqida ham turli haqiqat va uydurmomalarga asoslangan voqealarga tafsilotlar ko‘zga tashlanadi. Tarixni bilmaslik, noto‘g‘ri talqin qilish, ataylab buzib ko‘rsatish, turli davrlaga moslash, noxolis baho berish – eng oliy gunoh. Chunki tarix bizga ajdoddlardan qolgan-omonat. Omonatga xiyonat aslo kechirilmaydi. Tarixni kimnidir nigohi bilan ko‘rish va ko‘rsatish ham haqsizlik. Ma’lumki, “Badoye’ ul-bidoya” devonining yaratilishi, debochasidagi ayrim mulohazalarga tayanib, Y.E.Bertels, S.L.Volin ushbu devonni 1469-1482-yillar oralig‘ida tuzilgan deyiladi. Ammo ushbu masalaga jiddiy yondashgan olim – Hodi Zarifning shunday so‘zları bor: “Badoye ul-bidoya”ning tuzilishi va unga “Debocha”ning yozilishi 1471-yil bo‘lmog‘i kerak, degan fikrdamiz. Devonni Sulton Husayn uchun ko‘chirilishiga ham bir necha oy ketganligini inobatga olib, balki 1472-yilga ham to‘g‘ri keladi, degan bir fikrni bildirish u qadar qiyin bo‘lmasa kerak”¹⁰⁴.

Shunday ijodkorlar borki, she’rlarini olam ahli biladi, o‘qydi. Har bir yozgan bayti shohbaytga teng. Ammo shunday ijodkorlar ham borki, ming-mingdan ziyod bayti bor. Ammo ijod xirmonini ko‘tarsa shohbayt darajasidagi misralarni uchratmaymiz. Ibrohim Haqqul Alisher Navoiyning

¹⁰³ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 3-китоб. – Тошкент: Тафаккур, 2016, Б – 43.

¹⁰⁴ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш. 3-китоб. – Тошкент: Тафаккур, 2016, Б – 43.

shohbaytlarini yig‘ib, ikkita kattagina kitoblarni nashrdan chiqardi. Bu olimning fanimiz oldidagi xizmatlaridan biridir. “Shohbayt – eng porloq bayt”, – deydi olim.

“Navoiyga qaytish” kitobining 4-qismida navoiyshunoslik sohasidagi bahs-munozaralar, yechimini kutayotgan masalalar yuzasidan maqolalar o‘rin olgan. Ushbu asar 4 qismdan iborat. Ular “Mohiyat manzaralari”, “Matn va tahlil mas’uliyati”, “Adabiy suhbatlar”, “Izlanish va yangilanish ehtiyoji” tarzida sarlavhalangan. Dastlabki maqola “Alisher Navoiy taxalluslarining ma’no qirralari haqida” deb nomlanadi. Unda taxallus va uni tanlash haqida Ibrohim Haqqulning mulohazalari mavjud. Maqola “Majolis un-nafois” tazkirasidagi keltirilgan ma’lumotlar bilan boshlanadi. Mulohazalar davomida Rayhoni, Mavlono Joniy, Mavlono Kavkabiy, Mavlono Zuloliy, Vafoiy kabi shoirlarning taxalluslarining ma’no qirralari haqida to‘xtalib o‘tilgan. Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiyning turkiy asarlaridagi taxallusining o‘n beshga yaqin ma’nosini borligi izohlangan.

Har bir sohada bahs-munozalar bo‘lgani kabi adabiyot, navoiyshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas. “Navoiyga qaytish 4” asaridan adabiyotshunos olimlar orasida turli yillarda bo`lib o`tgan o‘zaro bahslar, ochiq xatlar o‘rin olgan. Jumladan, “Ma’no boshqa-yu, da’vo boshqa”, “Badiiy matn daxlsizligi va nashr muammolari”, “Bahs ehtiyoji bilish va izlanishdir”, “Oldinga undashmi yoki...” kabi maqolalar navoiyshunoslар o‘rtasidagi fikrlar kesishmagan nuqtalarmavjudligini ko`rsatadi. Ushbu bahslar Hazrat Alisher Navoiy asarlarining nashr muammolari bilan bog‘liq. Olimlarning munozalari nashrlardagi tafovutlar, ulug‘ shoir ruhoniyatini o‘quvchiga to‘g‘ri yetkazishni maqsad qilinganidan paydo bo‘lgani tabiiy hol. Shu nuqtayi nazardan Ibrohim Haqqulning ham ilmdagi yo‘li tekis va ravon ketmaganligidan dalolat beradi. “Haqiqat – bahsda tug‘iladi”, – degan gap bor xalqimizda. Bizningcha, har bir olim o‘z haqiqati uchun kurashgan.

Olim asarlarini tadqiq etar ekanmiz, undagi bosh g‘oya Navoiy asarlarini umuman, mumtoz adabiyotimiz vakillarining asarlarini to‘g‘ri va haqqoniy tahlil qilishga yondashilgan. Fikrlarimizni umumlashtirsak, olim o‘quvchiga tahlil uchun to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

IKKINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR

1. Ibrohim Haqqulning “Navoiyga qaytish”, “Tasavvuf va she’riyat” , “Ijod iqlimi”, “Taqdir va tafakkur”, “ Tasavvuf saboqlari”, “Mushohada yog‘dusi”, “Irfon va idrok” kabi asarlari olimning tasavvuf bilan bog‘liq qarashlari o‘z ifodasini topgan.

2. Olimning “Tasavvuf va she’riyat” asari Mustaqillikning dastlabki yilida yaratilgan shu mavzudagi tadqiqotlar sirasida muhim voqeа bo‘ldi. Bu ishda tasavvufning o‘zbek adabiyotiga ta’siri masalasi ilm va haqiqat mezonlari asosida o‘rganilgan.

Kitobda Hazrat Alisher Navoiy va so‘fiy shoirlarning o‘zaro adabiy aloqalari, bir-biriga ta’siri haqida fikr yuritilgan. Ahmad Yassaviy, Mavlono Rumiy, Farididdin Attorning Alisher Navoiy shaxsi, ijodi kamol topishida o‘rni haqida mulohazalar bildirilgan. Sho’ro davrida yo‘l qo‘yilgan qator kamchiliklar ko‘rsatilgan. Hazrat Navoiy ijodini to‘g‘ri talqin qilishning bosh mezon ko‘p mutolaa va mushohada qila olish deb ta’kidlangan.

3. Adabiyotshunos Alisher Navoiy ijodini chuqur va ilmiy haqiqat mezonlariga muvofiq o‘rganish uchun tasavvufni o‘rgangan. Aynan mazkur ma’rifiy sohani o‘zlashtirish unga mutafakkur shoir ijodining ichki-botiniy qatlamlarini kashf etish imkoniyatini yaratib bergen. Natijada u ulug‘ ijodkor qalamiga mansub bo‘lgan bir qancha asarlar mohiyatini terak tadqiq etishga muvaffaq bo‘ldi.

4. Ibrohim Haqqul deyarli barcha asarlarida u yoki bu masala bo‘yicha Alisher Navoiy shaxsi yoki uning asarlariga murojaat qiladi. Bu esa uning so‘z sohibqironiga bo‘lgan e’tiqodi va ehtiromi alomatidir. Uning Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Atoiy, Mashrab haqidagi tadqiqot yoki mulohazalari davomida shunday xususiyatni ko‘rish mumkin. Bu o‘zbek adabiyoti qurilmasini tashkil etgan barcha rishtalar bevosita yo bilvosita Navoiy dahosiga borib tutashishini yaqqol isbotidir.

III BOB. NAVOIYSHUNOSNING FIKR AYTISH MAHORATI, ILMIY MEROSINING LINGVOPOETIK VA USLUBIY JIHATLARI

3.1.“Zarjirband sher qoshida” kitobida fikr aytish mahorati

Ibrohim Haqqul, uning uslubi, olim sifatida faoliyati haqida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, tadqiqotchi Nasima Qodirova “Ilmiy-adabiy tafakkur va uslub muammolari (Ibrohim Haqqul ijodi misolida)” nomli dissertatsiyasida olimning bir nechta asarlarini muayyan masalalar bo‘yicha tadqiq etgan. “Ibrohim Haqqul badiiy matnning bir qismini tahlil qiladimi, har bir asarga birlik sifatida yondashadimi, estetika qonuniyatlaridan kelib chiqib, turli metodlardan foydalanib, o‘zining ilmiy-nazariy qarashlarini ilgari suradi. Ibrohim Haqqul badiiy matn tahliliga kirishar ekan, salmoqli ilmiy fikrlarini o‘quvchiga yetkazishda aksariyat hollarda zerikarli bo‘ladigan akademizm usulidan bormaydi, o‘quvchi huzur qilib o‘qiydigan, zerikmaydigan o‘ziga xos qiziqarli uslubiy yo‘nalishdan boradiki, bu yo‘nalish Ibrohim Haqqulgagina xos bo‘lgan mahorat qirralaridir”¹⁰⁵. Olimaning mazkur fikrlarida jon bor. Ibrohim Haqqulning tanqidchi, navoiyshunos, tadqiqotchi sifatida faoliyatiga e’tibor qaratgan kishi borki, uning olimlik uslubini yozuvchining uslubiga o‘xshatadi. Zerikarli qoidalardan, teoremalardan voz kechib, hayotiy misollarni, qalbga yaqin satrlardan foydalanadi. Ibrohim Haqqul ijodida ilmiy va badiiy tafakkur o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashgan. Adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar ko‘pincha akademik uslubda yoziladi. Ibrohim Haqqul asarlarini o‘qiganda esa “tafakkur kuchi bilan birga yoniq qalb haroratini ham his qilib turasiz. Zero, uning yozganlari faqat aql va bilim mahsuli emas, ularga qalb qo‘ri va ruh quvvati ham omuxta qilib, yuborilgan. Ayni jihatdan uni adabiyotshunoslarning shoiri, deyish mumkin”¹⁰⁶. Haqiqatdan ham, fikrning aniq va ravshanligi, go‘zal va yorqin ifodalaniishi olimning uslubining nechog‘lik o‘tkirligini ko‘rsatuvchi omildir.

To‘g‘ri, bir qancha maqolalarida sof ilmiy tildan foydalanilgan. Ommaga mo‘ljallab yozilgan ishlarida badiiy tilning jozibasini yaqqol

¹⁰⁵ Кодирова Насима. Илмий-адабий тафаккур ва услуб муаммолари (И.Хаққул ижоди мисолида) Филол. ф. б. Фалсафадокт.дисс...автореф. – Buxoro: 2021. Б 46

¹⁰⁶ Mirzayev T., Ochilov E. Iste’dod va mas’ullik // O’zbekiston adabiyoti va san’ati. Toshkent, 2009.27 mart,-№ 13

ko‘rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, Ibrohim Haqqulning til mahoratini uning uslubini belgilovchi komponentlardan biri sifatida ta’kidlash o‘rinli. Ibrohim Haqqul ham o‘z zamondoshlari singari ustozlar an’anasini davom ettirgan holda adabiy jarayonni ham kuzatib bordi.

“Zanjirband sher qoshida” asarining nomlanishi e’tiborimizni tortdi. Ibrohim Haqqul asarni nega aynan shunday nomladi? Asarni nashr yilga e’tiborimizni qaratsak, 1989-yil. Ayni Mustaqillik shabadalari esishni boshlagan, erk haqida fikr yuritish boshlangan davr. Sher deb kimga ishora berilyapti? Albatta, Navoiyga! Xo‘s, u qachon zanjirlandi? Yoki uning ruhoniyati, shaxsiyatini to‘laqonli ochishga yo‘l berilmagan, siyosiy mafkura orqali asl g‘oyasi zanjirlangandir?! Bizningcha, Ibrohim Haqqulni bu asarni yozishidan maqsad – Navoiy dahosini o‘sha zanjirlardan ozod etish bo‘lgandir?! Navoiy degan nomni qayta xalqqa yaqin qilmoqni, xalqqa qaytarmoqni shu asar orqali boshlagandir? Nega aynan bolalar – maktab o‘quvchilariga tushunarli uslubda yozdi bu asarni? Chunki Navoiydan, tarixidan uzoqlashgan avlodni tarbiyalamoqni bolalardan boshlagandir? Balki Vatanini ozod ko‘rish istagini ham nazarda tutgandir. Aynan shu asar nashridan keyin 1991-yilda “Tasavvuf va she’riyat” kitobi nashrdan chiqdi. Bu o‘zbek adabiyotidagi katta inqilob edi. Ushbu asarni yozilishiga “Zanjirband sher qoshida”gi fikrlar, o‘ylar turki bo‘lgandir?! Ibrohim Haqqulning tadqiqotlari, mavzu ko‘lami yillar o‘tgani sayin tadrijiy sayqallanib bordi.

Ibrohim Haqqulning “Zanjirband sher qoshida” kitobi O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning “Bahramandlik” maqolasi bilan boshlangan. Maqolada ushbu so‘zlarga kirish fikr sifatida qarash mumkin: “Kitobxonlar bilan bo‘lgan bir uchrashuvda menga g‘alati savol berishgan edi. O‘scha vaqtida zaldan yozma ravishda uzatilgan bu savolga uncha e’tibor bermagandim, to‘g‘riroq‘i, savol beruvchidan hafsalam pir bo‘lib, ichimda: “She’rxonlarimizning saviyasi shuda”, – deb qo‘ygan edim.

Savol bunday edi: “Hurmatli shoир, siz Gyotening “Faust”ini, Sergey Yesenin asarlarini, yana ko‘p shoirlarning kitoblarini o‘zbek tiliga tarjima qilgansiz, endi qachon bizga Alisher Navoiy she’rlarini tarjima qilib berasiz?”

“Qiziq, o‘zbekchadan tarjima qilishning nima hojati bor ekan?” – deb o‘yladim-u savolga javob berib o‘tirmadim. Keyinroq o‘ylasam, bu murojaatda jon bor ekan.

Bunga dastlabki qadamni Ibrohim Haqqul “Zanjirband sher qoshida” asari bilan qo‘ydi. U ushbu kitobni bolalar, maktab o‘quvchilari uchun yozdim, deydi. Alisher Navoiy ijodiy merosini baland tog‘ deb tasavvur qiladigan bo‘lsak, bu tog‘ bizning ortimizda emas, hamisha qarshimizda, biz intiladigan, cho‘qqilariga havas bilan qaraydigan, u sari yuksalishni orzu qiladigan tog‘ bor. Har narsaga yoshlikdan ko‘nikma hosil qilish kerak bo‘lganidek, Navoiyni o‘rganishga ham qancha erta bel bog‘lansa, shuncha ma’qul¹⁰⁷.

“Zanjirband sher qoshida” asari 3 fasldan iborat. “Boshni fido ayla”, “Nodonlik – yovuzlik”, “Barchadan sharaflisi – komil inson” shular jumlasidandir. Ushbu boblar o‘zaro bir-biriga mos fasllarga bo‘lingan. “Boshni fido ayla” bobida “Tabiat – go‘zallik va hurlik quchog‘i” deb nomlanadi.

Insonni (bolani) tarbiyalashda ota-onaning roli beqiyos. Shu beqiyoslik uni katta hayotga tayyorlaydi. Yo‘qlikdan bor qiladi. Insonni inson sifatida belgilaydigan omillardan biri ota-onaga hurmatdan boshlanadi. Hayotni sevish, tabiatni, Ollohnning yaratiqlari bo‘lgan hayvonot va nabotot olamiga mehr-muhabbatdan, g‘amxo‘rlik qilishdan boshlanadi. “Tabiat bilan til topish, shunda hech vaqt kambag‘allashmaysan, Seni odamlarning fikr-mulohazalari emas, tabiat badavlat qiladi”, – deydi yunon faylasuflaridan biri. Tabiat va inson munosabati g‘oyatda qadimiy hamda doimiy jarayon. Inson dunyoga kelibdiki, tabiat bag‘rida yashaydi. Odam tabiatdan qancha uzoqlashsa, u ruhan shuncha yupunlashadi, yomonlik va yovuzlik hissalariga ko‘proq mag‘lub bo‘ladi. Tabiat bag‘ri inson uchun ham, hayvon uchun ham ochiq. Biroq odam qavmi tabiatga ba’zan hayvon ham qilmaydigan dahshatli azoblarni ravo ko‘radi. Bu – razolat, Bu – Vatan, xalq, insoniyatga nisbatan berahmlikdir¹⁰⁸. Tabiatga muhabbat, uni bola tarbiyasidagi o‘rni, odamzodni tabiatga muhabbatga oshuftaligi haqida olim o‘z fikrlarini Navoiyning baytlari bilan izohlab o‘tadi.

¹⁰⁷Ҳаққулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. Б – 6 .

¹⁰⁸Ҳаққулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. Б – 11 .

Afsonaga ko‘ra, Muso payg‘ambar xudoning vasliga yetmoq ishqiga bilan uni uzoq vaqt izlabdi. Oxiri, uni tabiat bag‘ridan topibdi. Yonayotgan bir daraxt: “Xudo menman!” – degan mish unga. Bu afsona zamirida: “Ey odam, o‘zingni ovora etma! Sening Tangring – tabiat”, – degan fikr yotadi. Ibrohim Haqqul o‘z fikrlarini dalillash maqsadida xalq afsonalaridan, rivoyatlaridan, boshqa xalqlar eposlaridan namunalar keltiradi. Tahlilda badiiy usullardan, shoirona o‘xshatishlardan foydalanadi. Olimni tom ma’noda shoirona ilmiy uslubi bor. “Alisher Navoiyning mana bu ajoyib fikrlariga e’tibor bering:

Ey husn aro sohib g‘ino, xurshid otangdur, oy ono,
Istar esang nisbat yono:ham sarv og‘a, ham gul singil.

Baytdagi quyosh – otang, oy – onang degan qiyos mubolag‘a bo‘lib tuyulishi tabiiy. Lekin husnda tengsiz bir go‘zalga qarata: Sarv – og‘ang, gul – singling” deyilishi naqadar tabiiy”¹⁰⁹. Tabiat haqida fikr yuritar ekan, inson umrni yil fasllariga mengzaydi. Har bir faslning o‘z tarovati bor. Kuz, qish, bahor, yoz – bularning har biri qadim-qadimdan shoir-u yozuvchilarini ilhomlantirib kelgan. Hazrat Alisher Navoiy she’riyatining bosh mavzusi – Ishq, dunyoviy muhabbat. U sevgi, hijron, ishq va vafo tuyg‘ularini tarannum etgan. Ammo qismatning bevafoligini qarangki, Navoiy butun umr toq o‘tgan. O‘z-o‘zidan o‘quvchida savol tug‘iladi. Xo‘sh, ishq-muhabbatning eng yuksak cho‘qqisiga chiqqan ijodkor nega butun umr toq o‘tdi? Bu fikrga filologiya fanlari doktori Abduqodir Hayitmetov shoirning ruboiyalaridan birini: “Eng sevikli kishi, ehtimol sevgan qizining o‘limi munosabati bilan yaratilgan”, – deydi. Ushbu fikrni Ibrohim Haqqul ham yoqlaydi. Mana o‘sha ruboiy:

Yosh ung‘on emish qaro bulutqa mohim,
Gardunni sovurmog‘lik erur dilxohim.
Kirmish qaro tufroqqa quyoshdek shohim,
Nevchun qaro qilmasun quyoshni ohim.

Ushbu misralar tahlilini olim quyidagicha beradi: “Oyning qora bulut bag‘riga berkinishi – tabiatda tez-tez sodir bo‘ladigan hodisa. Lekin Alisher Navoiy manzara chizish uchun qo‘lga qalam olgani yo‘q. Balki manzara vositasida “mohi” – yordan judolik qayg‘usini izhor qilgan. Demak, to‘rtlikdagi “qaro bulut” – o‘lim ramzi. Chindan ham shundaymi? “Qaro

¹⁰⁹ Хаккулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. Б – 12 .

bulut”da odamlar ajalni tasavvur etganlarmi? Bu savollarga javob topish uchun o‘tmish tasavvurlarga murojaat qilish shartga o‘xshaydi”¹¹⁰. Birinchi bobning keying fasli “Tilga e’tibor – elga e’tibor” deb nomlangan. Ushbu fasl rivoyat va uning tahlili bilan boshlanadi. Har bir millatni millat sifatida shakllanishi uchun tilning o‘rni beqiyos. Shuning uchun Hazratning til bilan bog‘liq baytlari tahlili davom etadi. “Ona tiliga tunganmas ishq, uning taqdiriyu kamoloti uchun mas’ullik va g‘amxo‘rlik – mana geniylarni birlashtiruvchi birinchi fazilat”, – deb ta’kidlaydi taniqli shoirimiz Abdulla Oripov. Chindan ham, Alisher Navoiy va Ibrohim Haqqul shaxsiyatini ruhiy-ma’naviy yakdillik birlashtiradi. Navoiyning jur’at va jasorati, mahorati tufayli o‘zbek adabiy tili mukammal shakllanishga erishdi. “Alisher Navoiy asarlarining tili – o‘lmas g‘oyalar tasvirlangan til. Bularning barhayotligi o‘zbek tili va umri boqiyligining asoslaridandir. Shuning uchun Navoiy doimo zamonaviy san’atkor, til kelajagi va istiqbolining posboni siyosida tirik yashayveradi”¹¹¹. Keyingi fasl “Tarix – xotira chirog‘i”dan olimning muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega fikr-mulohazalari o‘rin olgan. Aytilganidek, tarixiy xotirasiz – kelajak bo‘lmas. Tarix – kechmish hayot, olis zamonlarda yashab o‘tgan ajdodlar taqdiri, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash tajribasi, haqiqat va diyonat uchun to‘kilgan qonlar, mag‘lublik va g‘oliblik jang-u suronlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning o‘g‘li G‘arib Mirzoga tarixni o‘rganish zaruratini bunday deb sharhlaydi:

Vagar tarix sari aylagung mayl,
Muni bilgachki, ne ish qildi har xayl
Ne ishdin mamlakat obod bo‘ldi,
Qayu ishdin ulus barbod bo‘ldi.

Ushbu baytni Ibrohim Haqqul quyidagicha tahlil qiladi: “Agar o‘tmish bila qiziqib tarixni chuqur o‘rgansang, har toifa, har guruh odamlar ne ishlar qilib ketganliklarini bilgach, ularning qaysi ishlaridan mamlakat obod, qay birlaridan xalq ahvoli og‘ir-barbod bo‘lganligi senga ravshanlashadi. Demak, tarix barbodlik emas, obodlik istiqboliga xizmat etishi kerak”¹¹².

¹¹⁰Хаққулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. Б – 118 .

¹¹¹Ўша асар. Б – 22 .

¹¹² Хаққулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. Б – 27 .

Yoshligimizdan qora – qorong‘ulik zulmat, yovuzlik deb tushunamiz. Ammo Ibrohim Haqqul qora rangni Alisher Navoiy ijodida tamoman o‘zgacha kasb etganini ko‘rsatadi. Alisher Navoiyning “Sabba’i sayyor ” dostonidagi boblardan biri shunday nomlangan: “Bahromning shanba kuni mushkfom-qora liboslar kiyib mushkin rang gumbazga kirib, mushk hidli ohu bilan mushkdek qora may ichgani va bu mashg‘ulot bilan hijron o‘tining dudi qaro qilgan kunini tunga ulangani”(dostonning nasriy bayonidan).

Qaro rang elga toj-u torakdur,

Kim qaro rang ichdadur muborakdur.

“Bugungi o‘quvchida: “Nega qora rang elning boshig‘a torak bo‘ladi? Axir, qora kiyinmoq, muborakliknimas, motamni bildirmaydi?” – tarzidagi qator savollar tug‘ilishi tabiiy. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qora rang – yoshlik, buyuklik, o‘ziga xos ehtirom ifodasi sifatida tushunilgan. Bunda Lutfiy, Atoiy, Gadoiy, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan “Avesto”ga murojaat qilinadi.

Kitobning keyingi qismlarida turli masalalar yuzasidan olim mumtoz adabiyot namunalariga murojaat qiladi. “Tufroq bo‘lg‘il” qismida asosan Ahmad Yassaviy hikmatlariga, ijodidagi tuproq obraziga to‘xtaladi. Mana, Yassaviyning bir misrasi:

Tufroq bo‘lg‘il, olam sani bosib o‘tsin.

Ushbu misra Yassaviyga ko‘p malomatlar keltirgan. U xuddi shu misralar bilan go‘yoki xalqni zolimlar qarshisida kishanlab qo‘ygan emish. Ushbu misraning tahlilini olim (I.Haqqul) quyidagicha beradi: “Ahmad Yassaviy “Tufrog“ bo‘lg‘il” deganda, katta maqsadni e’tiborga tutgan. Ya’ni Navoiy “yuz vajh ila tufrog” bo‘lmoqlikning sirlari yashirindir. Biz Yassaviydagи “tufroq” obrazining mundarijasini to‘liq talqin etganimizcha yo‘q.” Tuproqning ma’nolarini tahlil maydoniga tortadigan bo‘lsak, tuproq – Vatan, kamtarlik, oshiqning vafo va sadoqatning yuksak bosqichiga ko‘tarilishi demak. “Chindan ham, yoshlik umrning eng hayotbaxsh,” tiriklik bog‘ining barg rezining nishon”laridan hali yiroq bir davrdir. Yoshlik – kuch-qudratga to‘la fasl. Yoshlik – hurlik” – deb ta’kidlaydi olim. “Saxovat – tan, saxovat – jon” deb boshlanuvchi faslda Sa’diyning “Guliston”idagi rivoyat o‘rin olgan. Navoiy ruboilaridan birida iymonning mustahkamligini uch narsaga nisbat etadi. Bu uch qismning avvalgisi –hayo. Ikkinchisi – vafo, keyingisi saxodir:

Uch qism ila iymonga bino fahm ayla,
Avvalgisini aning hayo fahm ayla,
Ikkinchisini dag‘i vafo fahm ayla,
Uchinchini bilmasang, saxo fahm ayla.

Shoir “Mahbub ul-qulub” asarida saxovat masalasiga maxsus o‘rin ajratarkan, uni quyidagi so‘zlarda ta’riflaydi: “Saxovat insoniyat bog‘ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir.” Chindan ham Alisher Navoiy insonni kamolotga yetkazuvchi omillarni o‘z ijodida aks ettiradi. Ibrohim Haqqul esa shu omillarni sanab o‘tadi. Tarbiyaning muhim omillariga Navoiy ijodi misolida tayanadi. Insonni yetuklikka yetkazuvchi unsurlarni Navoiy ijodidan axtaradi. Birinchi bobning so‘nggi fasli mumtoz adabiyotning bosh mavzusi_ishqqa bag‘ishlangan. Ishq – Inson umrimning bezagi, ko‘ngilning mahzanidir. Sharq shoirlari devonlaridagi she’rlarni qancha ko‘p o‘qisangiz, ishqning mohiyati, ishq dardi, iztiroblari visol va hijron tasavvurlari shuncha boyiydi. Hayo insonni hayvondan ajratib turuvchi eng yuksaklik, Vafodorlik – xaloskorlik. Vafo – o‘limdan yuqori kuch. Vafo ahli o‘zinigina emas, el-yurtining ham osoyishtaligiga posbondir.

Har kishiga qildi birov bir vafo,
Maxlasi yo‘qtur ko‘rubon ming jafo.

Yani: kishi birovga biror yaxshilik qilgan bo‘lsa, evaziga ming jafo ko‘rsa ham, baribir ranj-u aziyatdan qutula olmaydi. Navoiy talqinida vafoning oliy bosqichi – hayotda odamning o‘ziga munosib yor topishi va sadoqatli yashashi. Aksincha:

Yorki, oyining vafo yo‘q anga,
Sham kibidurki, ziyo yo‘q anga.

Vafosizlar ziyosiz shamga o‘xshasa, vafodor yor buning teskarisi. U – umr oftobi. Toq odamning toleyi oftobsiz borliq kabi. Uning dil uyi ham qiyshaygan. Omonat. Chunki bitta ustun hech payt uyga tayanch bo‘lam olmaydi. Bugina emas, insonga agar falakdan xor-u zorlik va qiyinchiliklar yetishsa, bir nafas “izhori dard” etish uchun ham g‘amxo‘rlik kerak”¹¹³. Tahlillarga e’tibor qaratsak, Ibrohim Haqqul Navoiy ijodinining eng yuksak, bosh g‘oyasini oson, sodda usulda ochib beradi. Adabiyotshunos olim fikrlarini dalillash maqsadida faylasuflarning fikrlarini keltirib o‘tadi. Bu borada Suqrot, Aristotel, Ibn Sino, Sa’diy, Yassaviy va boshqalarning

¹¹³ Ҳаққулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. Б – 81 .

fikrlaridan foydalanadi. Keyingi qismlarda Ibrohim Haqqul insonni jaholatga olib boruvchi yo‘l – nodonlik haqida fikr yuritadi. “Qadim yunon faylasufi Suqrotning aytishicha, dunyoda bitta ezgulik bor – bilim. Bitta yovuzlik bor – nodonlik. Darhaqiqat, shunday: hayotda qanchaki ezgulik va oljanobliklar bo‘lsa, bu bilim mevalaridir. Neki jaholat, tubanlik, maydakashliklar bo‘lsa, barchasi nodonlikka borib taqaladi. Nodon – qo‘lida yarog‘i yo‘q jallod”¹¹⁴.

“Kimki o‘zini o‘zi yoqtirsa, qanday yomonlik”, – deydi Alisher Navoiy. Gap bu yerda xudparastlik haqida borayotir. Shoiring fikricha, o‘zni sevish inson johilligidan dalolatdir. O‘ziga bino qo‘yanlar – qafasdagagi qush, qo‘radagi hayvonlarni eslatishadi. Ularning qalbi va aqli xudbinlik qafasi. Savol tug‘iladi: “Xo‘sh, inson o‘zini o‘zi qadrlamasligi kerakmi?” Qadrlashi lozim. Bu shart”¹¹⁵.

“Zanjirband sher qoshida” asarida hayotning barcha jabhalarida inson zoti duch kelishi mumkin bo‘lgan mavzularga qo‘l uradi. Tarbiyaning asosi bo‘lgan masalalarga to‘xtaladi. O‘z farzandi, do‘stiga maslahat bergandek, o‘quvchini yaqin oladi. Gunoh ishlardan qaytaruvchi impulsni shakllantirishni xohlaydi, nazarimda. “Mahbub ul-qulub”ning odamlar fe’latvor va ahvoliga bag‘ishlangan dastlabki fasl bilan boshlangan “Zulm o‘zungga fisqdur” nomli faslda quyidagi fikrlar keltirilgan: “Adolatli shoh – yorug‘ tong. Shuning uchun uning davri nurli. Zolim hukmdor qorong‘u tun misoli. Jabr-sitam o‘tkazish uning ko‘ngil ehtiyoji. U bundan orom topadi”¹¹⁶.

Tasavvufning bosh mavzusi – nafs! Uni yengmoq, kishanlamoq masalasi. Nafshi o‘ldirib bo‘lmaydi. Biz toki ruhimiz vujudimizda ekan, nafs ham biz bilan shu tanda yashaydi, nafas oladi. Nafs bu bizning o‘zimiz, aslida. Olim keying masala –nafs, uni yengmoq haqida to‘xtaladi. Sharq mutafakkirlarining ta’riflariga ko‘ra, hayot dunyosi, jonli narsalar uch turli sifatga ega. Bularning biri – shaytoniy. Ikkinchisi – hayvoni. Keyingisi – malakoni, ya’ni soflik, pokizalik sifati. Nafs – inson ichidagi g‘anim. U insonni ichdan kemirish, parchalashga qodir. Halokatga boshlovchi “arbon”. Nafs g‘olib kelganda, tirikchilik, ayniqsa, vujud tashvishi bosh maqsad bo‘lib, ezgu xayollarning o‘rnini manfaatparastlik mayllari egallaydi. “Qutadg‘u bilik” asarining muallifi Yusuf Xos Hojib yozadi:

¹¹⁴ Ҳаққулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. Б – 84 .

¹¹⁵ Ўша асар. Б – 89 .

¹¹⁶ Ўша асар. Б – 96 .

Avom qayg‘usi barcha qorin uchun,
Odam tashvishi barcha bo‘g‘zi uchun.
Talay xalq o‘lib ketdi o‘z nafsi deb,
Qora yer tagida yoturlar butun.

Inson qorin qayg‘usiga ko‘milib, o‘z nafsi deb “qora yer tagiga” kirmoq uchun tug‘iladimi? Yo‘q, albatta. Asarning so‘nggi bobি “Barchadan sharaflisi – komil inson ” deb nomalanadi.

Ushbu asarning so‘nggi qismida “Chin demas ersang” deb boshlanuvchi fasli “Hayrat ul-abror” asaridagi “Sher bilan durroj” hikoyati bilan boshlanadi. Yolg‘on rostga aylangan, lekin sherdan ishonch yo‘qolgandi. Natijada durroj jonidan judo bo‘ladi. Navoiy bu hikoyatda yolg‘on va yolg‘onchilikning oxirgi samarasini ko‘rsatgan. Ya’ni yolg‘onning oqibati o‘limgacha olib borishini ta’kidlagan. Qadimiy kitoblarda: “Dunyoda birgina to‘g‘ri va diyonatli odam topilarkan, hali qiyomat bo‘lmaydi”, – deyilgan. Navoiy she’riyatida to‘g‘rilik va rostlikka sadoqat, shu sodiqlik tuyg‘ularining targ‘ibi keng o‘rin egallaydi. E.Heminguey aytganidek: “Insonni o‘ldirish mumkin, lekin uni yengib bo‘lmaydi.” To‘g‘rilik – barcha omadlarning kaliti, ranj va mushkullarning noxush tumanlarini haydaydigan yorug‘lik. Ushbu o‘rinda Ibrohim Haqqul quyidagi iqtibosni keltirib o‘tadi:

“Shoirning “Hayrat ul-abror”dagi rostlik madhiga doir mulohazalari tamsillarga boy, shunisi bilan isbotli. Mana shu misaralarga diqqat qiling:

Shamki, tuzluk bilan masrur o‘lur,
Garchi kuyar boshtin-ayoq nur o‘lur.
Barqki, egrilik o‘lubtur xo‘yi,
Garchi yorur lek borur yer quyi.

Ya’ni: sham o‘z to‘g‘rilikdan xursand. Shuning uchun u boshdin-oxir kuyib bitsa ham nur taratadi. Inson to‘g‘rilikni o‘rgansa, bu unga boshqa eng zarur fazilatlarni o‘rgatadi. To‘g‘rilikni go‘zal xulqlarning go‘zali deyish mumkin. To‘g‘rilik – chinakamiga ma’naviy kuch. To‘g‘rilikning bir chizgisida ham shijoat aks etadi. Keyingi faslda tanqid haqida fikr-mulohazalar o‘rin olgan. Dunyoda uzoq zamonlar ahamiyatini saqlab, muhim bo‘lib qoladigan narsalar juda kam. Buni anglashda ulug‘ san’atkorlar deyarli xato qilmaydilar. Navoiyning riyokor shayxlar to‘g‘risidagi tanqidiy so‘zları bilan biz dastlab o‘rta maktabda tanishganmiz. Shayx-u zohidlar obrazi

Navoiy uchun ko‘pincha vosita bo‘lgan. “Chinakam shoirlarning qalbi portlash maydoniga o‘xshaydi. Porlash shu ma’nodaki, kuchli bir fikriy ko‘tarilish, hissiy tug‘yonlarsiz o‘qishli she’rlar yuzaga kelmaydi”¹¹⁷.

Ibrohim Haqqul boshqa olimlarga nisbatan Navoiy dahosi, siymosi, o‘zligini aks ettirishda o‘zgacha xilma-xillikdan boshlanadi. Ushbu jumлага e’tiborimizni qaratsak: ‘Navoiy – shikoyatnavis shoir. Navoiy she’rlari bilan tanish o‘quvchida: “Shoirning o‘zi do‘sst topganmi? Nega u mehr ko‘p ko‘rgazib mehribone” uchratmaganligini qayta-qayta gapirgan?” – degan savollar paydo bo‘lishi ehtimoldan uzoqmas¹¹⁸.

Xulosaviy fikrlarimizni umumlashtiradigan bo‘lsak, ushbu asarda “Mahbub ul-qulub”da keltirilgan hikoyatlardan namunalar izohi berilgan. So‘nggi bobning asosida “fano”tushunchasiga to‘xtaladi. Alisher navoiy she’rlarida “fano” so‘zi juda ko‘p takrorlanadi. Shoир fanolik to‘g‘rida hamisha sobit bir e’tiqod bilan gapiradi. Xo‘sн, fano va fanolik deyilganda nimalarni anglamoq kerak? Navoiy nega bu so‘zlarning zamiridagi ma’no va maqsadga alohida e’tibor bilan qaragan? “Navoiy asarlari lug‘ati”da fano so‘zi shunday sharhlangan:

- “1.Yo‘q bo‘lish; tugalish; o‘lish;baqosizlik;
2. O‘zlikni yo‘qotib, butun borliqdan kechib, ilohiyotga singish;”

Shu lug‘atdagi foniy so‘ziga berilgan izoh:

1.Yo‘q bo‘luvchi, yo‘qoluvchi, bituvchi; foniy o‘lmoq – yo‘q bo‘lmoq; o‘zligini yo‘qotmoq; foniy aylamak – yo‘q qilmoq; foniyi mutlaq – o‘zligidan butunlay kechgan;

2. So‘fiylikda fano maqomiga (darajasiga) erishgan, ilohiy ruh bilan tamoman qo‘shilib ketgan.”

Fikr – iymon. Fikr – yangilik. Fikr – munosabat. Dunyodagi eng ijodiy va kuchli ish – fikr. Fikrsiz yashab, kurashib ham bo‘lmaydi. Inson ko‘p narsadan kechishi, qanchadan qancha narsalarni inkor etishi mumkin.

“It – rafiq, it – raqib” faslida Alisher Navoiy “Mahbub ul –qulub”da: “Odам –dunyolarga teng sharaf egasidir. It esa jirkanch maxluqdir. Ammo yaxshilikni unutmaydigan, vafodor itdan pastdir. Vafodor qo‘tir it – vafosiz go‘zal, barno yigitdan yaxshiroqdir”, – deydi. Ushbu faslda shu bilan birgalikda “Devonu lug‘atit- turk”, “Qutadg‘u biling”, “Qadimgi turklar”dagi

¹¹⁷ Ҳаққулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. Б – 142 .

¹¹⁸ Ўша асар. Б – 142-155 .

baytlardan keltiriladi. Bunda Lutfiyning it va inson orasidagi ayrılıq to‘g‘risida gapirarkan, shu bahonada falakka munosabat bildiradi:

Eshikin itidin ayrilg‘onimni tut ma’zur,
Hamisha kimni falak qo‘ydi e’tibori bila.

Atoiy lirik qahramoni yor itiga o‘zini eng munosib suhbatdosh hisoblaydi. O‘rtada shu darajada inoqlik yuzaga keladiki, yor itlari uni ko‘rganda o‘zlari chorlashadi:

Itlaring chorlar meni ko‘rgach, eshikta ayb emas,
Kim, ulardin o‘zga mushfiq do‘stdorim yo‘qturur.

Demak, bu so‘zlarni aytayotganday shaxs yolg‘izlik yoki bekaslik balosidan bir qadar qutulgan.”

“Xayol go‘zali – hayot go‘zali” qismida pari, dev mifologik obrazlari haqida to‘xtalib o‘tilgan. Ibrohim Haqqulning “Zanjirband sher qoshida” asari haqida umumiylar xulosalarimiz quyidagilardan iborat:

1. Ibrohim Haqqul asarning bosh g‘oyasi sifatida insonni kamolotga yetkazuvchi omillar va ularning tavsifiga to‘xtalib o‘tadi.

2. Olim tomonidan yoritilishi nazarda tutilgan mavzuga mos “Mahbub ul-qulub”, “Hayrat ul-abror”, “Xamsa” takibidagi dostonlar, hikoyatlardan foydalanadi.

3. Har bir faslda xalq og‘zaki ijodi, rivoyat va hikoyatlar keltirilgan.

4. Bir mavzu yuzasidan fikr yuritilganda, qiyosiy tahlil olib boriladi. Ya’ni bir nechta ijodkorlar, ularning ijod namunalari, nazarda tutilayotgan masalalar ilmiy tahlil qilinadi.

5. Asarning tili juda sodda, tahlillar oddiy o‘quvchiga ham tushunarli.

6. Turli obrazlar tilga olinadi. Jumladan, pari, dev, Xizr, it, oshiq, tufrog‘, chumoli, do‘st.

7. Muallif illatlarni qoralaydi: vafosizlik, nodonlik, zulmkorlik, tamagirlik, ichkilikk ruju qo‘ymoq, hasadgo‘ylik.

Ibrohim Haqqulning ushbu asari olim o‘zi tiriklik chog‘idayoq ikkinchi marotaba – 2020-yilda qayta nashr etildi. Ikkinchi nashrning so‘zboshisida muallif shunday deydi: “Men mumtoz adabiyot tadqiqotchisi bo‘lishni ko‘zlagan bo‘lsam-da, ishni zamonaviy ijod mavzusida yozishdan boshlaganman”¹¹⁹. Chindan ham, Ibrohim Haqqul ushbu asarni tahlili davomida zamonaviy adabiyot vakillarining she’rlari, so‘zlaridan

¹¹⁹ Хаккулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Тафаккур», 2021. Б – 2 .

foydalananadi. Shu bilan birgalikda, Sharq adabiyoti, diniy-dunyoviy bilimlar manbalaridan, o’tmish afsonalaridan ham unumli foydalananadi. So‘zboshida ushbu asarning ikkinchi nashrida birinchi nashrdagi ba’zi juz’iy xato-kamchiliklar tuzatilganini izohlab o’tadi. Ushbu tuzatishlar quyidagilar:

“Do’st – bu ham erk” maqolasida:

Ko‘zum namliq, bo‘yum xamliq, ichim anduhu motamlik,

Ne hamdamliq, ne mahramliq topib bu mehnati pinhon.

Menga ne yor-u, ne hamdam, menga ne do’st, ne mahram,

Menga ne chora, ne mahram, menga ne sabr-u ne somon, – baytida “manga” so‘zi ikkinchi nashrda “menga” tarzida o‘zgartirilgan.

“It – rafiq, it – raqib” maqolasida keltirilgan ushbu baytdagi “topdi” so‘zi ikkinchi nashrda “topti” tarzida o‘zgartirilgan.

Chun eshikda itlaringning mansabin topti Gado,

Naylasun taxti Qubod-u afsari iskandariy.

“El netib topg‘ay menikim” maqolasidagi quyidagi baytda ham ma’lum o‘zgarishlar mavjud. Asarning dastlabki nashrida bayt tarkibidagi “aqli pirin” tarzida ishlatilgan so‘z birikmasi ikkinchi nashrda “aql pirin” tarzida teranlashadi.

Navoiy, istasang o‘zlukni, raf majnun bo‘l,

Ki aql pirin ko‘rdum – base jaholati bor.

Muallif “Zanjirband sher qoshida” asarining qayta nashri haqida o‘zi ta’kidlab o‘tganday, “O‘scha davr umumiyl holati va muallif kayfiyati, ichki maqsad-muddaolari aks etgani uchun ularga, deyarli, daxl qilinmadid”¹²⁰.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, ushbu asar – komillik rutbasiga erishish yo‘lidagi dastlabki qadam. Unda tarbiyaning bosh negizi bo‘lgan g‘oyalar haqida to‘xtalib o‘tiladi. Bu asar nafaqat ilmiy tahlillar, balki badiiy o‘xshatishlardan ham foydalanilgan. Olim Ibrohim Haqqul tom ma’noda o‘zining olimlarning shoiri ekanligini isbotlay olgan.

3.2.Olim ijodiga xos lingvopoetik va uslubiy xususiyatlar

O‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida badiiy matnlarni o‘rganish borasida turli yo‘nalishda tadqiqotlar amalga oshirilgan. Adabiyotimiz va tilimiz tarixi, mumtoz badiiy asarlar matni tilini o‘rganishga

¹²⁰Хаккулов И. Занжирбанд шер кошида. – Тошкент: «Тафаккур», 2021. Б – 3 .

bag‘ishlangan ishlar jumlasiga G‘. Abdurahmonov, A. Rustamov, X. Doniyorov, Z. Hamidov, B. Bafoyev kabi tilshunos olimlarlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. A.Qayumov, A.Hayitmetov, H. Hamidov, I. Haqqulov, B.To‘xliyev, N. Rahmonov, Q.Yo‘ldoshev, H. Boltaboev, B. Karimov, B. Ro‘zimuhammad, Y. Solijonov, P. Qodirov kabi adabiyotshunos olimlarning ishlarida matn orqali badiiy asarni tahlil va talqin qilish bilan bilan bog‘liq ilmiy-nazariy muammolar haqida fikr yuritilgan.

Qayd etish lozimki, o‘zbek adabiyotshunoslida keyingi yillarda mazkur yo‘nalishdagi kuzatishlarda ma’lum bir evrilish yuzaga kelganligi seziladi. Aytish lozimki, badiiy asarni o‘rganishda, ayniqsa, tahlil jarayonida ko‘proq matnga tayanilgan holda xulosa chiqarilganligi ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotning o‘rganish obyekti inson va u bilan bog‘liq masalalar bo‘lsa-da, ichki va tashqi omillar ta’sirida har bir millatni boshqa millatlardan ajratib, farqlab turadigan o‘ziga xos milliy xususiyatlari mavjud.

Sof lingvistik kuzatishda badiiy asar tili, unda qo‘llanilgan til birliklarining mavqeyini aniqlashda ularning leksik-grammatik xususiyatlariga, gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish qonuniyatlariga asoslanilsa, uslubiy xususiyatlar esa mazkur birliklarning nutqning qaysi ko‘rinishi uchun xoslanganligiga qarab belgilanadi. Lingvopoetik tahlilda esa masalaga faqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslilik nuqtayi nazaridan emas, balki umumfilologik jihatdan yondashiladi. Til birligining ham lisoniy xususiyatlari ham poetik matnni shakllantirishdagi imkoniyatlari hisobga olinadi. Chunki yuqorida qayd etilgan tamoyillarga asoslanilsa, masalaga bir yoqlama qarash, ya’ni yo sof tilshunoslik yoki sof adabiyotshunoslilik nuqtayi nazaridan yondashuv yuzaga keladi. O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab rus tilshunoslida V.V.Vinogradov, G.O.Vinokurlar umumfilologik yo‘nalishni yoqlab chiqqan edilar¹²¹. O‘zbek tilini uslubiy nuqtayi nazaridan o‘rganishning haqiqiy ahvoli to‘g‘risida bundan chorak asr muqaddam tilshunos olim E.Begmatov quyidagicha tasvirlagan edi: “O‘zbek tili stilistikasi sohasida ham keyingi yillarda barakali ishlar amalga oshirildi, ayniqsa, badiiy til stilistikasi rivojlandi. Lekin bu tadqiqotlarni badiiy

¹²¹ Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: изд-во Высшая школа. 1971.с. 240.

Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: изд-во АН. 1963.с 256.

Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991. С 248.

adabiyot tili madaniyatini ko‘tarishga yetarli xizmat qilyapti, biror bir yozuvchini o‘z asari tili ustida chuqurroq o‘ylashga majbur etmoqda, deyish qiyin. Holbuki, o‘zbek badiiy adabiyoti tilida ma’lum nuqsonlar, hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar yetarli ekani sir emas. Adabiyotshunoslar esa, yozuvchi uslubini (badiiy stilni) til materialisiz, ya’ni badiiy asar tilini badiiy tahlil qilmasdan belgilashmoqda. Badiiy tilning tahlilisiz badiiy uslubni to‘liq belgilash mumkinmi?”¹²²

Ijodkorning uslubi, so‘z qo‘llash mahorati haqida gap ketganda, eng avvalo, gap qurilishi, uning tahliliga e’tibor qaratishni joiz deb bildik. O‘zbek tilida gap qurilishi asosan quyidagi qoliplarda bo‘ladi:

Ega+ ikkinchi darajali bo‘laklar+kesim

Ibrohim Haqqulning “Navoiyga qaytish” asaridan ba’zi jumlalarni sintaktik tahlil qilishni joiz bildik. Bu o‘rinda lingvopoetik tahlil metodidan foydalandik.

So‘z bilan odamni aldash, so‘z bilan yolg‘onni haqiqatga aylantirishga urinish millat manfaati uchun katta ziyon va kechirilmas qabohat ekanligini Navoiy har narsadan ortiqroq tushungan.

Ushbu jumlaning sintaktik tahliliga e’tiborimizni qaratsak, sodda gapning qolipi quyidagicha:

So‘z bilan odamni aldash, so‘z bilan yolg‘onni haqiqatga aylantirishga urinish millat manfaati uchun katta ziyon va kechirilmas qabohat ekanligini (birikmasi to‘laligicha vositasiz to‘ldiruvchi)

Navoiy (ega)

har narsadan (vositali to‘ldiruvchi)

ortiqroq miqdor (daraja holi)

tushungan. (kesim)

Bunday holda gapning sintaktik strukturasi quyidagicha bo‘ladi:

To‘ldiruvchi-ega-to‘ldiruvchi-hol-kesim.

To‘ldiruvchi odatda egadan oldin kelmaydi. Shunday ekan, yuqoridagi sintaktik birlikni Ibrohim Haqqul ilmiy uslubidagi o‘ziga xoslik sifatida

¹²² Begmatov E.Nazariy xulosalar tilshunoslikning muhim amaliy vazifalarini hal etishga xizmat qilsin. -O‘zbek tili va adabiyoti, 1997. 3-son. B.23.

tushunsa bo‘ladi. Gapning ma’noviy jihatdan tahliliga nazar tashlasak, Hazrat Navoiyning shaxsiy fazilatini ko‘rsatish uchun eng avvalo, haqiqatni so‘zlash haqida fikr boradi. Balki Navoiyni Navoiy qilgan aslida to‘g‘riso‘zligi – haqiqatni oshkor aytishidadir?! Shu bilan birgalikda gap mazmunida xalq uchun qayg‘urish hissi ham oliv o‘rinda. Ibrohim Haqqul birgina jumla orqali ham Navoiy shaxsiyatini ochib berishni, ham riyokorlikka qarshilikni, ham millatning haqqiqga xiyonat qabohat ekanligiga urg‘u berib o‘tadi.

Keyin ilm ahli – Navoiyga olimlarning – shoiri, shoirlarning – olimi deb qaragan, Navoiyni ilm-fannning tolmas muhofizi, buyuk ma’rifatparvar o‘laroq e’zozlagan olim-u ulamolar.

Keyin – payt holi, ikkinchi yashil bo‘lak – ravish holi, qaragan – kesim; Navoiyni –to‘ldiruvchi, ilm-fanning – qaratqich aniqlovchi, e’zozlagan kesim, olim-u ulamolar – ega. Yuqorida gapda ega bilan kesim o‘rin almashtirgan. Ko‘pincha shoirlar bunday inversiyani qo‘llaydilar. Bizningcha, adabiyotshunosning bunday usuldan foydalanishining quyidagi sabablari bor:

1) O‘zbek tilida odatda mantiqiy urg‘u kesimdan oldin tushadi. Olim ustod Navoiyni tavsiflagan bo‘laklarni kesim oldiga keltirib egani kesimdan so‘ng qo‘llashining asosiy sababi Buyuk qalam sohibi haqidagi muhim qarashni ta’kidlashdir;

2) Ko‘pincha adabiyotshunoslik ishlarida bir qolipdagি sintaktik strukturadan foydalanish kitobxonni zeriktiradi. Shuni hisobga olgan tadqiqotchi o‘z ilmiy asarlarida gap qurilishi tartibini vaqtı-vaqtı bilan o‘zgartirib turgan.

Ushbu qolip juda murakkab bo‘lishiga qaramay, unda fikrni bayon etish ravon. Jumla tahlilida Navoiyning o‘z davrida ham katta shuhrat qozongani, hali-hanuz yuraklarda unga nisbatan cho‘g‘ o‘chmasdan alanga olishi anglashilib turadi. Haqiqatdan ham, Navoiy har bir sohaning, ayniqsa, ilm-fanning rivojlanishi uchun jon kuydirgan davlat arbobi ham edi.

Demak, “ahli ma’ni” – komil insonlar, “ahli surat” – komillik nasib qilmagan kimsalar. Navoiy she’riyati esa komillik fazilati va haqiqatlarining mislsiz bir badiiy qomusidir.

Ega+kesim+ega+kesim.

Aniqlovchi+ega+aniqlovchi+kesim+aniqlovchi+kesim.

Yuqoridagi gapning qolipi, qurilishi tubdan farq qiladi. Bunda izohlanayotgan jumla, ya’ni “ahli ma’ni” va “ahli surat” birikmalari to‘g‘ridan to‘g‘ri kontekstga olib kiriladi. Olim bu orqali o’sha ruhni, so‘zning qiymatiga putur yetkazmagan holda tahlil maydoniga olib kirgan degan fikrdamiz. Ikkala sintaktik birlikning tahlili orqali nasrdagi sajni, tazod san’atini qo‘llagan. Keltirilgan parchada komillik nasib etmaganlar haqida fikr boradi. Komillikka yetganlarni inson, bundan bebahra toifani shunchaki kimsa deb atashni afzal ko‘radi. Shu o‘rinda komillikka hamda haqiqatga erishishning qomusi bu albatta, Navoiy ijodi, uni o‘rganish ekanligini Ibrohim Haqqul asosiy yo‘l deb belgilaydi.

Tasavvufiy ma’noda xilvat yoki uzlatdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad— yomon axloqdan ajralish, tuban ishlardan voz kechish, qalbni jilolantirib, ruhni huzur va farog‘atga yetishtirish.

Uyushgan aniqlovchi+ega+kesim+aniqlovchi+to‘ldiruvchi+kesim+to‘ldiruvchi+hol+to‘ldiruvchi+kesim.

Adabiyotshunos uslubiga sintaktik nuqtayi nazardan yondashganda, qiziq bir holni ko‘rish mumkin: u qo‘llagan gaplarda fe‘Ining kesim sifatida kelishi cheklangan: kesim vazifasini ko‘pincha ot yoki ot o‘rnidagi so‘zlar (sifat, son, olmosh, harakat nomi) bajaradi.

Biz hayotimiz davomida turli uslubda so‘zlashuvchi, yozuvchilarni uchratganmiz, bundan keyin uchratishimiz aniq. Har bir yozuvchi, olim, shoirning yozish uslubidan, so‘z qo‘llash mahoratidan muallifini bilmasak-da taxmin qilib topishimiz mumkin. Oddiy so‘zlashuvimizda ham qanday so‘zlashishiga qarab kimning uslubi ekanligiga aqlimiz yetadi. Bizningcha, Ibrohim Haqqulni uslubi turlicha sayqal topgan. U bolaga o‘zini tilida sodda tushuntirib beruvchi ustozdek, ommaga barcha uchun tushunarli hayotiy misollar bilan yretkazib beruvchi suhbatdosh, ilm ahli uchun o‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan yetuk olim uslubida yozadi. Bir asari ikkinchisidan, ikkinchi asari keyingisidan tubdan farq qiladi. Biz tahlil uchun uning navoiyshunoslikdalikda katta meros hisoblangan “Navoiy qaytish” asariga murojaat etdik. Shu o‘rinda Ibrohim Haqqul uslubi haqida gap ketganda, biz ramziy ma’noda olim uslubini quyidagicha tasnifladik:

1. Bolalarga mo’ljallab yozilgan ilmiy-ommabop kitoblar (“Zanjirband sher qoshida”, “Kamol et kasbkim”,);

2. Omma uchun yozilgan asarlar (“Navoiyga qaytish”, “Hayot, adabiyot va abadiyat”, “Mushohada yog‘dusi”, “Shaxsiyat va she’riyat”, “Ijod iqlimi”, “Kim nimaga tayanadi?”, “E’tiqod va ijod”, “Taqdir va tafakkur”, “Meros va mohiyat”, “Badiiy so‘z shukuhi”);

3. Sof ilmiy tilda ilm ahli uchun mo‘ljallab yozilgan asarlar (“Tasavvuf va she’riyat”, “Irfon va idrok”, “O‘zbek adabiyotida ruboiy”, “Ishq va hayrat olami”, “Ahmad Yassaviy”, “Tasavvuf saboqlari”, “Abadiyat farzandlari”, “She’riyat – ruhiy munosabat”, “Xoja Orif Mohitobon”, “Uvaysiy she’riyati”, “Abdulla Qahhor jasorati”);

Shu o‘rinda asarlarining nomlanishi ham e’tiborimizni tortdi. Chunki o‘quvchi–mushtariyni ilk o‘ziga tortuvchi, jalb etuvchi unsur tashqi jihatdir. Bunga asarning nomlanishi asosiy o‘ringa chiqadi. Markazda, eng avvalo, o‘quvchini birgina so‘z, jumla bilan asarga qiziqtirish yoki hali o‘qilmay turib yakun yasashiga sabab bo‘lishi mumkin. Ibrohim Haqqulning bir qator kitoblarida ikkita bir-biriga teng ma’noni kasb etuvchi so‘zlarni yonma-yon qo‘llanganini ko‘rsa bo‘ladi. Tarozining ikki pallasidek bir-birini to‘ldiruvchi jumlalardan foydalanilgan. Shu o‘rinda quyidagi misollarga e’tiboringizni qaratmoqchimiz: “Tasavvuf va she’riyat”, “Irfon va Idrok”, “Ishq va hayrat olami”, “E’tiqod va ijod”, “Taqdir va tafakkur”, “Meros va mohiyat”. Ushbu asarlarning nomlanishi orqali olim, balki biri ikkinchisini to‘ldiruvchi unsurlar haqida ma’lumot bermoqchidir? Yoinki ilmiy asarlar nomlanishida to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rganilishi nazarda tutilgan jumlanı yoritadi. Konkret masalani qo‘yadi. Badiiy uzoqlashishlardan qochadi. “O‘zbek adabiyotida ruboiy”, “Kamol et kasbkim”, “Ahmad Yassaviy”, “Tasavvuf saboqlari”, “Xoja Orif Mohitobon”, “Uvaysiy she’riyati”, “Abdulla Qahhor jasorati” kabi nomlanishlar masalaning mohiyati kim yoki nima haqida ekanligidan darak beradi. Hayotiy qarashlari, o‘y-fikrlari jamlangan asarlarida badiiy o‘xhatishlar, so‘zlarning jilokorligi yaqqol sezilib turadi. “Hayot, adabiyot va abadiyat”, “Mushohada yog‘dusi”, “Kim nimaga tayanadi?”, “Ijod iqlimi”, “Ishq va hayrat olami” va boshqalar. E’tiborimizni yana bir jihat tortdiki, unda olimning so‘z qo‘llash mahorati haqida so‘z boradi. Shu bilan birgalikda ishlatilgan jumlalarda Ibrohim Haqqulning o‘z shaxsiy munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda kirish so‘zlardan o‘rinli foydalanadi. Jumladan, uning uslubiga xos jihatlardan biri shu. Demoqchimizki, holbuki, demak, zotan, avvalo kabi so‘zlar bilan olim o‘z shaxsiy aytilayotgan fikrga

nisbatan shaxsiy pozitsiyasini singdirib o‘tadi. Ba’zi o‘rinlarda jumlalarni o‘z holicha ko‘chirma gap, so‘z ko‘rinishida qo‘llaydi. Balki, bu orqali navoiyona lutf, rujni saqlab qolmoqchi bo‘lgandir?! Ibrohim Haqqul uslubidagi yana bir o‘ziga xoslik qo‘shma gaplar, qo‘shma gap bo‘lganda ham shunchaki oddiy gaplar emas, murakkab, inversiya hodisasiga uchragan gap qurilishidan foydalanadi. Ushbu jumlalarni misol keltirishni o‘rinli deb bildik.

Holbuki, ayrim sayoz va shoshma-shosharlik bilan amalga oshirilgan ishlardan tashqari ko‘pchilikning diqqatini o‘ziga jalb etgan va Navoiy ijodiyotiga yangicha qarashni tasdiqlashga qodir tadqiqotlar ham yaratildi.

Bilgan-gapirmaydi,gapirgan bilmaydi,degan qoidaga rioya qilinsa, Navoiy ijodi bilan bog‘liq bahs-munozaralar boshqacha kechadi.

Shoirning ijod namunalarini o‘rganishga rag‘bat, ul zotning quyoshdek porloq shaxsiyatini sevish va ijodiga muhabbat uyg‘otish lozim, deb o‘ylayman.

Jumla qurishda gap bo‘laklarining qo‘llanilishi yaqqol olimning uslubidan darak berib turadi. Ibrohim Haqqul murakkab jumlalar orqali shunchaki so‘z o‘yini qilmaydi, balki fikr asosiy vosita ekanligini uqtiradi. Har bir jumlada aytidayotgan fikrga xos va mos so‘zlarni o‘rinli qo‘llaydiki, bu o‘rinda uni Abdulla Qahhorning munosib izdoshi desak arziydi.

Navoiy she’rlarini kishi qancha ko‘p o‘qib, ma’no-mohiyatini qancha ko‘proq anglay boshlasa, fikr-mushohada mehnatidan o‘shancha huzurlanadigan, ruhning qudrati va sehriga ortiqroq ishonadigan bo‘lib boraveradi.

Qaysi bir soha haqida fikr yuritmasin, albatta, uni tasavvuf bilan bog‘laydi. Hayotiy haqiqatlar, insoniy fazilatlar orqali masalaga yondashadi. Biz Ibrohim Haqqulning “Navoiyga qaytish” nomi ostida chiqqan birinchi kitobining dastlabki 30 betini tahlil uchun tanladik. Aslida, ijodkor mahoratini belgilash uchun uning barcha asarlari o‘qish, mavzular olamiga bo‘lish maqsadga muvoviq. Biz bu masalani oldingi boblarda amalga oshirishga harakat qildik.

Tahlil uchun olgan matnda ajratib olingan bir nechta gaplarni sintaktik tahlil qilish jarayonida olimning gap qurishdagi o‘ziga xosligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Olim kirish so‘zlarda ham juda unumli va o‘rinli foydalanadi. Uning so‘z qo‘llash bilan bog‘liq lug‘atida ham turkona, ham

forsiy kirish so‘zlar anchagina qismni tashkil qiladi. Ibrohim Haqqul “ axir, darhaqiqat, demak, xullas, ehtimol, to‘g‘ri, aksincha, ma’lumki, shuningdek, zero, odatda, xo‘sh, umuman, albatta, odatda, ayniqsa” kabi kirish so‘zlardan o‘rinli foydalanadi. Uning uslubidagi o‘ziga xoslikdan yana biri kirish so‘zlarni gapning boshida keltirib o‘tadi. O‘zbek tilidagi gap qurilishida kirish so‘zlar gapning boshi, oxirida ham kelishi mimkinligi bizga ma’lum. Ibrohim Haqqul kirish so‘zlarni jumlalarning boshida qo‘llashni ustin ko‘radi. Jumladan, quyidagi misollarni keltirishni o‘rinli deb bildik:

1. “Darhaqiqat, so‘z va fikr erkinligi haqiqatni to‘g‘ri aks ettirishning tamal toshi, deyish mumkin.
2. Xullas, Alisher Navoiy she’riyatidan bahramandlik ko‘ngil ehtiyoji bo‘lib qolgan musavvirlar, mug‘anni-yu hofizlar, davlat va hokimiyat sohiblari, haq yo‘lchilari- darvesh, faqir, orif va oshiqlar, madrasa talabalari, din va shariat vakillari, kosiblar, hunarmandlar, dehqonlar.
3. To‘g‘ri, komil inson martabasiga yuksalish mashaqqatli-riyozat va zahmatni talab etadigan ish”¹²³.

Endi uni so‘z qo‘llash mahorati haqida ikki og‘iz so‘z. U o‘quvchi e’tiborini yanada jalb etish maqsadida “demoqchimanki, tan olish joiz bo‘lsa, sirdan qaralganda, tasavvur qilingki” kabi so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanadi. Bir masalani yechishdan oldin, unga savol nigohi bilan qaraydi. Ushbu jumla fikrimizga dalil bo‘la oladi: “Tasavvur qilingki, oshiqlarning xilvatga daxldor va baytma-bayt ta’kidlanib kelingan deyarli barcha istak yoxud xohishlari ro‘yobga chiqdi. U endi mutlaq forig‘ va sokin odam. Bunday holning hikmati nima?”¹²⁴ Fikrimizni dalillash maqsadida yana bir jumlanı keltirishni joiz bildik: “G‘azalning zamirida tarki dunyo tuyg‘usiga da’vat bor. Umuman, Sharq mutafakkirlari, ayniqsa, tasavvuf va tasavvuf adabiyoti vakillari tarki dunyo haqidagi fikr-qarashlarini hamisha ochiq-oydin ifodalaganlar. Sho‘ro mafkurasi tasavvuf va mumtoz she’riyatning aynan tarki dunyochilik tushunchalariga keskin qarshi chiqdi va ularni tamoman inkor etdi. Bu to‘g‘rimi, noto‘g‘rimi?”¹²⁵

Ijodkor uslubini belgilashda morfologik tahlil ham katta ahamiyatga ega. Kuzatishlarimiz natijasida, Ibrohim Haqqul uslubida qaratqich

¹²³ Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш: 1-китоб. – Тошкент: «Фан», 2007. Б – 112 .

¹²⁴ Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш: 1-китоб. – Тошкент: «Фан», 2007. Б – 17 .

¹²⁵ Ўша асар. Б– 19.

kelishigini belgisiz qo‘llangan turi ko‘p uchrar ekan. Quyidagi misollar fikrimizning yorqin namunasi bo‘la oladi: “Navoiy asarlari o‘z zamonasidayoq mohir xattotlar tomonidan qayta-qayta ko‘chirilib, xalqqa yetkazilgan bo‘lsada, navoiyshunoslik yigirmanchi asrda yangicha shakllandi”¹²⁶. Ushbu o‘rinda Navoiy so‘zidan so‘ng (-ning) qaratqich kelishigi belgisiz qo‘llangan.

Biz “Navoiyga qaytish” asaridagi o‘z va o‘zlashma qatlamga oid so‘zlar nisbatini aniqlash uchun uch o‘rinda 12, 98, 131-betlaridan bir abzast matnni tahlil uchun tanladik. Natijada, quyidagi holat yuzaga keldi:

“Darvoqe, bundan bir necha yil avval matbuotda “Navoiy xoslar shoiri”, – degan bir fikr aytilgan edi. “Xoslar” – alohida toifa demak. Odatda ahli tasavvufga xoslar deyiladi. “A’xos” – xoslarning xosi, “xos” – saralangan kishilar jamoasi, “avom” – savodsiz yoki savodi past oddiy xalq, “avom” – avom darajasiga ham ko‘tarilmaganlar guruhi. Bular tasavvufiy istilohlar. Shuning uchun na tasavvuf nuqtayi nazaridan, na ilm, saviya, madaniyat mezoniga ko‘ra Navoiyni “xos”lar shoiri deyish haqiqatga muvofiq kelmaydi. Navoiy shohning ham, gadoning ham, oshiqning ham, orifning ham hamma-hammaning shoiri. Navoiy she’riyatidan kim nimani axtarsa, shuni topadi. Fikran va ruhan kim nimaga talabgor bo‘lsa, unda barchasi mavjud. Hatto zolim va johil, nodon va gumroh ham Navoiy she’rlaridan shifo topadi. Chunki Navoiy she’riyatida bitta bosh maqsad bor-Komillik. Bitta sarbon tuyg‘u mavjud— Kamolot tuyg‘usi. Asosiy birgina nur qaynog‘i bor—Ishq”¹²⁷.

Ushbu matnda jami 122 ta so‘z qo‘llanilgan. Shundan 55 ta so‘z o‘zbekcha(turkiy), 9 ta so‘z forsiy, 58 tasi arab tilidagi so‘zlarni tashkil qiladi.

Yana 98 - betdagи matnni tahlil uchun tanladik:

“Ayrim maqola va fikr-mulohazalar hisobga olinmaganda, o‘zbek mumtoz she’riyatida rang ramzları va ma’nolari muammosi hali maxsus tadqiq qilingani yo‘q. ranglar va ularning ramziy ma’no-mohiyatidan bahs yuritish oson emas, albatta. Chunki ranglar u yoki bu xalqning uni qurshab olgan olam, ijtimoiy-madaniy hayot, urf-odat, marosim, adabiyot va san’atga

¹²⁶ Ўша асар. Б– 22 .

¹²⁷ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш: 1-китоб. – Тошкент: «Фан», 2007. Б – 12 .

doir qadimiy qarashlari bilangina emas, balki, kosmogonogik, mifologik, diniy-ilohiy tushuncha va tasavvurlari bilan ham bog‘lanib ketgan”¹²⁸.

Ushbu matndan olingan parchada jami 72 ta so‘z qo‘llanilgan. Shundan 26 tasi o‘zbek(turkiy), 2 ta so‘z forsiy, 26 tasi arabi, 2 ta so‘z chet tilidan o‘zlashgan so‘zlardan tashkil topgan.

Bundan tashqari, 131-betdagи ushbu matnni ha tahlil uchun tanladik: “Odamlarning qismati har xil bo‘lganidek, xulqi ham har xil. Bir toifa kimsalar bo‘ladi, azbaroyi tabiatidagi maydalik yoki tubanlik tufayli o‘zlaricha tinmay ilgarilash, dunyo ishlarida qandaydir yuqori darajani egallashga intilishadi. Ko‘pincha bunga erishishadi ham: boylik desa boylik, hamma-hammasi muhayyo. Odamlar bo‘ladi, tabiatidagi yuksaklik va ma’naviy viqor g‘imirlashga, yelib-yugurib, egilib - bukilib o‘tar dunyoning o‘tkinchi ishlarida muvaffaqiyatlarga yetishuvga sira imkon bermaydi”¹²⁹.

Ushbu matnda jami 65 ta so‘z qo‘llangan. Shundan 47 tasi o‘zbek (turkiy), 3 tasi fors, 15tasi arab tilidagi so‘zlarni tashkil qiladi.

Ibrohim Haqqulning “Hayot, adabiyot va abadiyat” nomli kitobida ilmiy-ommabop matnlardagi o‘z va o‘zlashma so‘zlearning nisbatini aniqladik. Asardan quyidagi matnni tahlil uchun tanlab oldik: “Adabiyot ahvolini ko‘rib, o‘ylab ezilgan paytlar ko‘p kechgan bo‘lsada, qo‘limdan bir ish kelmasligini undan hech yashirmaganman. Ammo aqlimni olgaimdan buyon adabiyotni o‘zimga rahnamo va tayanch deb bilaman. Menga o‘xhash necha muhiblarsiz ham adabiyot yashayveradi. Biroq men hayotimni adabiyotsiz tasavvur ham etolmayman”¹³⁰.

Ushbu ilmiy-ommabop mavzuda fikr yuritigan matnda olingan parchada jami 46 ta so‘z qo‘llangan. Shundan 34 tasi o‘zbek (turkiy), 10 tasi arabi, bir nechta so‘z forsiy so‘zlarni tashkil qiladi.

Biz nega aynan dunyoning ikki qutbiga o‘xhash ikki xil mavzudagi asardan parcha oldik? Maqsad – olimning ham ilmiy, ham ommabop mavzudagi matnlari tahlili orqali uslubini, so‘z qo‘llay olish mahoratini namoyon etish edi. Olim tasavvufga bag‘ishlangan yoki sof ilmiy uslubda yozilgan asarlarida turkiy hamda arabi so‘zlarni birdek qo‘llaydi. Ammo ommabop asarlarida o‘zbek (turkiy) so‘zlarni qo‘llashning o‘rni ayricha. Bu

¹²⁸ Ўша асар. Б – 98 .

¹²⁹ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш: 1-китоб. – Тошкент: «Фан», 2007. Б – 131.

¹³⁰ Ҳаккулов И. Ҳаёт, адабиёт ва абадият. – Тошкент: «Тафаккур», 2019. Б – 308

bilan u turkiy tilning chin ma’nodagi posboni, Hazrat Navoiyning bu boradagi haqiqiy izdoshidir.

Ushbu tahlillarni amalgalashda 5 tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga tayandik. Ibrohim Haqqul uslubini aniqlashda quyidagi xulosaga keldik. Olimning asarlarida mavzu, kontekstga qarab so‘zlar qo‘llanganligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ushbu fikrlarga tayanib, biz ham Ibrohim Haqqulning fikr aytish mahoratiga “haqqulona” uslub deb ta’rif berishimiz mumkin. Uning har bir uslubi turlicha jilolanadi. Munaqqid, navoiyshunos, tasavvufshunos, cho‘lponshunos, yassaviyshunos sifatidagi uslubi turlichaligini guvohi bo‘lamiz. U qaysi dengizga tushsa, mohir g‘avvosdek suza oladi. Nafaqat suzish, balki nodir durdonalarni topa oladi. Olimning uslubidagi o‘ziga xoslik ham shunda.

III BOB BO‘YICHA XULOSALAR

1. Olimning “Zanjirband sher qoshida” kitobi bolalar uchun mo‘ljallangan uslubda yozilgan. Ushbu asarda insonni kamolotga yetkazuvchi omillar haqida fikr yuritiladi. Ibrohim Haqqul Navoiy ijodinining eng yuksak, bosh g‘oyasini oson, sodda usulda ochib beradi. Adabiyotshunos fikrlarini dalillash maqsadida Suqrot, Aristotel, Ibn Sino, Sa’diy, Yassaviy kabi faylasuflarning fikrlariga murojaat qiladi. Insonni jaholatga olib boruvchi yo‘l – nodonlik, g‘alamislik, beparvolik, xudbinlik, nafs kabi illatlar Navoiy ijodidaan misollar orqali qattiq qoralanadi. Vatan, ota-onasiga, ona tiliga hurmat to‘g‘risidagi mulohazalar asarning tarbiyaviy ahamiyatini belgilaydi.
2. Ibrohim Haqqulning ham navoiyshunos, ham adabiyotshunos olim sifatida fikr aytish mahorati kelgusi avlod adabiyotshunoslari uchun ibrat mакtabidir. Uning asarlarini uslub va lingvopoetik jihatdan o‘rganish shunday fikrga kelishga asos bo`ladi
3. Olim uchun fikr aytish asosiy maqsad hisoblanadi. U sintaktik birlik tarkibidagi har bir jumlada aytidayotgan fikrga xos va mos so‘zlarni o‘rinli qo‘llaydiki, bu o‘rinda uni Abdulla Qahhorning munosib izdoshi deyish mumkin.
4. Adabiyotshunos ishlarida kirish so‘zlarining alohida o‘rni bor. Ulardagi gap qurilishida inversiyaga uchragan qo‘shma gaplarning ishlatalish

doirasi keng. Zarur hollarda mohiyatni anglatish maqsadida istilohlardan foydalanadi. Mavzu, muammo, kontekstga qarab so‘zlar qo‘llanganligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Tasavvufga bag‘ishlangan yoki sof ilmiy uslubda yozilgan asarlarida arabiy so‘zlar va atamalardan foydalanadi. Ammo ommabop asarlarida asosan o‘zbek (turkiy) so‘zlarni qo‘llaydi. Bu bilan u turkiy tilning chin ma’nodagi posboni, hazrat Navoiyning bu boradagi haqiqiy izdoshi sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

UMUMIY XULOSA

Navoiyshunoslikda tasavvuf va badiiyat muammolarini Ibrohim Haqqul ijodi misolida o‘rganishda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Shu vaqtga qadar zahmatkash olimlarimizning sa’y-harakatlari tufayli Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Navoiyshunoslarmiz orasida shoir ijodiy merosini tadqiq va targ‘ib qilishda adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning ham alohida o‘rni bor. Ibrohim Haqqul mumtoz adabiyotni kitobxon ko‘ngliga singdirish yo‘li, usulini topdi. Uning muvaffaqiyati va kitoblarining shahrati shunda edi. U Navoiy dahosini anglagan, uning badiiy tafakkuri teranliklariga kirib borgan zahmatkash tadqiqotchi edi.

2. Alisher Navoiyning hayoti, ibratli faoliyati, merosiga qiziqish XV asrdan boshlangan. Ammo navoiyshunoslik XX asrda o‘zgacha shakllandi. Chunki Navoiy to‘g‘risidagi bahs yuritgan hech bir olim sho‘ro mafkurasi tomonidan belgilangan chiziqdandan chetga chiqa olgani yo‘q. Shunday murakkab vaziyatda navoiyshunoslik sohasida yangicha yo‘nalishda tadqiqotlar yaratgan, o‘z so‘zini dadil ayta olgan olimlardan biri Ibrohim Haqqul edi.

3. Ibrohim Haqqul sovet davrida yaratilgan “O‘zbek adabiyotida ruboiy” monografiyasida Alisher Navoiy ruboilyarining aksariyati “diniytasavvufiy mafkura bilan” mustahkam bog‘liq bo‘lganligini e’tirof etsa-da, ularning mohiyatini to‘la-to‘kis ochib berishga imkon topolmagan. Chunki o‘sha davr siyosati bunga yo‘l qo‘ymas edi. Shunga qaramay, olim mumtoz adabiyotda yaratilgan ruboilyarni tadqiq qilar ekan, ularda tasvirlangan botiniy mazmun, ilohiy-irfoniy mohiyatni anglatgan ma’nolarni izohlashga imkon darajasida harakat qilgan.

4. Sho‘ro davrining mafkurasi va siyosati Sharq mumtoz adabiyotiga oid ko‘pgina muammolarni haqqoniy ilmiy mezonlar asosida o‘rganishga monelik qilib kelgan. Xususan, o‘sha zamonda milliy so‘z san’atimiz taraqqiyotida alohida o‘rin tutgan tasavvuf adabiyotiga noxolis va nigilik munosabat mavjud edi. Faqatgina milliy Mustaqillik arafasi va undan keyingi yillarda so‘fiy shoirlar ijodi ilmiy prinsiplar asosida o‘rganila boshlandi. Bu borada Ibrohim Haqqulning izlanishlari alohida e’tibor va e’tirofga loyiq. Uning doktorlik dissertatsiyasi va bir qator risola hamda kitoblari mazkur

muammo tadqiqiga bag‘ishlangan. Ayniqsa, navoiyshunosning milliy istiqlolning ilk yilida chop etilgan “Tasavvuf va she’riyat” asari alohida o‘ringa ega.

5. Ibrohim Haqqulning tasavvuf haqidagi faoliyati matnshunoslik sohasi bilan uzviy bog‘liq. U taniqli turk olimi Kamol Eraslan 1983-yilda Turkiyada chop ettirgan “Devoni hikmatdan sochmalar” to‘plami hamda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan Ahmad Yassaviy hikmatlari nusxalari asosida ulug‘ tariqat pirining “Hikmatlar” devonini nashr ettirdi.

6. U yosh kitobxonlarga mo‘ljallab “Xamsa” tarkibidagi hikoyatlarni, “Mahbub ul-qulub”dan o‘rin olgan ruboiy, qit’a, g‘azallarda ifoda etilgan g‘oyalari mohiyati, ulug‘ shoirning badiiy mahorati masalalarini tahlil etib, “Zanjirband sher qoshida” risolasini nashr ettirdi. Bu kitob navoiyshunoslikdagi jiddiy sifat yuksalishlarini o‘z ilmiy-nazariy qurilmasida aks ettirgani va zamonaviy adabiyotshunoslikning yangi bosqichga chiqayotganini ko`rsatgani bilan ahamiyatlidir.

7. Fidoiy navoiyshunos ilmiy merosida sharhnavislik alohida yo‘nalishini tashkil etadi. U sharhnavislik faoliyati bilan bir umr shug‘ullanib, Atoiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Uvaysiy, Furqat kabi so‘z ijodkorlarining ko‘plab g‘azal, ruboiy, qit’a va fardlarini sharhlagan. Bu borada, ayniqsa, uning qit’a tadqiqi bo‘yicha ishlari ilmiy faoliyatida muhim bir o‘rinni ishg‘ol etadi. Tadqiqotchining “Kamol et kasbim” risolasida Alisher Navoiyning 120 ga yaqin qit’asining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, olim o‘zining “Tasavvuf va she’riyat”, “Navoiyga qaytish” kitoblarining bir necha fasllarda mazkur janrga doir yangicha qarashlarini ifoda etgan. U mutafakkir qalam sohibi ifoda etgan donishmandona fikr-qarashlar bugungi kunda ham nihoyatda ahamiyatli ekanini teran mushohadalar asosida ko‘rsatgan. U amalga oshirgan qit’a sharhlari olimning vaqt o‘tgan sayin tasavvuf bilan chuqurroq shug‘ullangani, obrazlar mazmunini teran mulohazakorlik asosida hal qilish mahoratining yanada ortganini ko‘rsatadi.

8. “Navoiyga qaytish” nomli to‘rt qismidan iborat kitob navoiyshunosligmizda jiddiy yutuq sifatida e’tirof etilgan. Asarda buyuk mutafakkir hayoti, asarlarining yozilish tarixi bilan bog‘liq yangi fakt va tahlillar, ulug‘ shoir ijodini to‘g‘ri tadqiq etish yo‘lidagi metodologik

yondashuvlar, g‘azal, ruboiy, qit’alar talqini, sharhi, navoiyshunoslikning dolzARB muammolari o‘z ifodasini topgan.

9. Ibrohim Haqqulning ko‘p yillar davomida shakllangan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan uslubi ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi. Bu uslubga fikrni aniq va yorqin ifodalash, eng muhim qarashlarni lo‘nda jumlalarda berish, mohiyatni ifodalovchi mulohazalarni mantiqiy izchillikda bayon etish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Navoiyshunos tadqiqotlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, uning ishlarida qo‘llangan gap qurilmalari odatdagi tartibdan ajralib turishi ko‘rinadi. Ishimizda olim uslubidagi mana shunday jihatlar ko‘rsatib va isbotlab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I.Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 113 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

3. Мирзиёев Ш. «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш –халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир». Ўзбекистон Республикаси Президентининг ижодкорлар билан учрашувидаги маъruzаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

4. Мирзиёев Ш. «Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ безавол яшайди». Ўзбекистон Республикаси Президентининг ижодкорлар билан учрашувидаги маъruzаси // Халқ сўзи, 2019 йил 9 феврал.

5. Mirziyoyev Sh. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.

6. Mirziyoyev 2022-yil 10-fevraldagi PF-126-sun “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

II. Badiiy manbalar

7. Адиб Аҳмад Югнакий. Ҳибатул ҳақойик. – Тошкент.:«Академнашр», 2019. -150 б.

8. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: «Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти», 1991. – 182 б.

9. Кўпрулизода.Ф.М.Турк адабиётида илк мутасаввуфлар. – Анқара: 1984. – 110 б .

10. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: «Фан», 1987. – 723 б.

11. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 2-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1987. – 620 б.
12. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1988. –616 б.
13. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 4-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1989. - 560 б.
14. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 5-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1989. – 542 б.
15. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 6-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1990. – 548 б.
16. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 7-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1991. – 392 б.
17. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 8-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1991. –544 б.
18. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 9-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1992. –356 б.
19. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 10-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1992. – 448 б.
20. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 11-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1993. – 640 б.
21. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 12-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1996. - 326.
22. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 13-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1997. – 284 б.
23. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1998. – 304 б.
24. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1999. - 236 б.
25. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 16-жилд. – Тошкент: «Фан» , 2000. – 336 б.
26. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 17-жилд. – Тошкент: «Фан» , 2001. – 520 б.
27. Навоий А. Шоҳбайтлар. масъул мухаррир И.Хақкул. – Тошкент: «Фан», 2007. – 245 б.

28.Навоий А. Шоҳбайтлар 2. масъул муҳаррир И.Хаққул. – Тошкент: «Tamaddun», 2016. – 207 б .

29. Нагиева Ж. Озарбайжонда Навоий. – Баку:2001. – 244 б .

30.Шайх Саъдий. Гулистон. Тошкент: « Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти », 1968. – 183 б.

III Ilmiy-nazariy adabiyotlar

31. Абдуғафуров А. Навоий сатираси. – Тошкент: «Фан», 1966. – 316 б.

32. Абдуғафуров А. Ўзбек демократик адабиётида сатира. – Тошкент: «Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти», 1961. – 214 б .

33.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1-том. – Тошкент: «Фан», 1983. –656 б.

34. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик.2-том. – Тошкент: «Фан», 1983. – 644 б.

35. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик.3-том. –Тошкент: «Фан», 1984. – 624 б.

36. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 4-том. – Тошкент: «Фан», 1985. – 636 б.

37. Атоуллоҳ Ҳусайнин. Бадойиъ-с-санойиъ. Тошкент, «Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти», 1981. –400 б.

38. Mirzayev T., Ochilov E. Iste'dod va mas'ullik // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. Toshkent, 2009.27 mart, – №13

39. Бертелс Е.Э. Навои и Джами. – М:«Наука»,1965. – 498 с.

40. Бертелс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – М.: «Наука», 1965. –529 с.

41.Бертелс Е.Э. Сўфизм ва сўфиийлик адабиёти. Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси», 2005, – 14-17 б.

42.Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: «Юлдузча», 1990. – 367 б.

43.Болтаев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат нашриёти »,2008. –140 б.

44.Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан.– Тошкент: «Фан», 1974.

– 149 б.

45. Валихўжаев Б, Воҳидов Р. Навоий ижоди – илҳом манбаи. – Тошкент:

«Фан», 1981. –74 б .

46. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X–XIX асрлар.

Тошкент: «Ўзбекистон», 1983. –192 б.

47. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. I жилд. – Тошкент: «Абдулла Қодирий

номидаги халқ мероси нашриёти », 2002. – 304 б.

48. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. II жилд. – Тошкент: «Абдулла Қодирий

номидаги халқ мероси нашриёти », 2002. – 175 б.

49. Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М.: « Высшая школа », 1989. –224 с.

50. Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: изд-во Высшая школа. 1971. –с. 240.

51. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: изд-во АН. 1963.с 256.

52. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991. –С 248.

53. Begmatov E.Nazariy xulosalar tilshunoslikning muhim amaliy vazifalarini hal etishga xizmat qilsin. – ‘’zbek tili va adabiyoti, 1997. 3-сон. B.23.

54. Воҳидов Р. Шарқнинг буюк алломаси. – Тошкент: «Фан», 1989. - 72 б.

55. Воҳидов Р. Навоийнинг икки дурдонаси.– Тошкент:«Фан»,1992.-134 б.

56. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: «Бухоро нашриёти», 1994. – 208 б.

57. Воҳидов Р. Илоҳий ишқ жозибаси. – Самарқанд: «Зарафшон», 1997. – 80 б.

58. Vohidov R. Yog'di o't ustiga qor. – Toshkent: « Zarqalam », 2005. – 116 b.

59. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Тошкент: « Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти », 2006. – 528 б.
60. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: « Фан », 1983. – 168 б.
61. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: «Фан» , 1965.
62. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: «Фан», 1983. – 168 б.
63. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент: «ZARQALAM» , 2006. –128 б.
64. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. –Тошкент: «Ёзувчи», 1996. – 272 б.
65. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори. – Тошкент: «F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат » ҳамда «Ўзбекистон» нашриётлари, 1999. – 204 б.
66. Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб. – Тошкент: «Маънавият», 2001. –96 б.
67. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. Тошкент: «ТАMADDUN» , 2002; 68. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: «Маънавият», 2005.
69. Комилов Н. Тасаввуф. Тошкент: «MOVAROUNNAHR» – «O’ZBEKISTON» , 2009. Б.85-104
70. Комилов Н. Тафаккур тухфалари. Навоийнинг ижод олами. Тошкент: «Фан» , 2001.
- 71.Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: « Тамаддун », 2012. – 316 б.
- 72.Кононов А.Н. Семантика цветообозначений в тюрских языках// Тюркологический сборник. Москва, 1978 С–170 .
73. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: « Ўқитувчи », 1965. – 748 б.
74. Маллаев Н. Сўз санъатининг гултожи. – Тошкент: « Адабиёт ва санъат нашриёти », 1991. – 152 б.
- 75 .Мирзаев Т., Осилов Э. Истеъдод ва масъуллик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2009, 27 марта, – №13.

76. Моҳиятга муҳаббат. Тўплам / масъул муҳаррир Т.Мирзаев. – Тошкент:

« Tafakkur », 2019. – 528 б.

77. Навоий ва ижод сабоқлари. Илмий тўплам. – Тошкент: «Фан», 1981. -153 б.

78. Орзивеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. Тошкент: «Фан» , 1976, 6-22-бетлар.

79. Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. –Тошкент: «Фан» , 1995. – 156 б.

80. Раҳмонова З. Иброҳим Ҳакқул ҳақиқати–Тошкент: «Тирилиш» , 2023. – 296 б.

81. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: « Адабиёт ва санъат », 1979.

82. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: « F. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти », 1987. - 247 б.

83. Рустамов А. Алишернинг бадиий маҳорати.Тошкент: « F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти ».1979, – Б.49

84. Салоҳий Д. Тасаввуф ва бадиий ижод. – Тошкент: « Наврӯз », 2018. – 184 б.

85. Тарозий Шайх Аҳмад Худойдод. Фунун ул – балоға. – Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2002 йил, 1- сон.

86. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. –Тошкент; « Истиқлол »,1999.- 180 б .

87. Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Тошкент: «Камалак», 1991. -301 б.

88. Шайхзода М. Асарлар. VI томлик. IV том. Ғазал мулкининг сultonи. – Тошкент: « Адабиёт ва санъат », 1972. – 372 б.

89. Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. – Тошкент: « Шарқ НМАК », 2004. – 456 б.

90.Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. Ҳамидулла Болтабоев талқинида. Тошкент: « Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат нашриёти », 2008. – 426 б.

91.Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. Тошкент: «MOVAROUNNAHR», 2004. – 255 б .

- 92.Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт.
Тошкент:«Мовароуннахр», 2004. – 264 б.
- 93.Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. – Тошкент: «F.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси», 1992. – 496 б.
94. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. Тошкент: «Фан» , 1961, – 295 б.
95. Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Тошкент: «Ўзфанакаднашр», 1963. – 195 б .
96. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. –Тошкент: «Фан», 1970. – 330 б.
97. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. –Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2008. – 608 б.
98. Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий (жанрнинг поэтикаси ва тарихи). – Тошкент: «Фан», 1981. – 100 б.
99. Ҳаққулов И. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: «Юлдузча», 1989. – 224 б.
100. Ҳаққулов И. Шеърият – руҳий муносабат. – Тошкент: «F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти», 1989. – 224 б.
101. Ҳаққулов И. Абадият фарзандлари. – Тошкент: «Ёш гвардия», 1990. – 192 б.
102. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: «F.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси», 1991. – 184 б.
103. Ҳаққулов И. Камол эт қасбким. – Тошкент: «Чўлпон», 1991. – 240 б.
104. Ҳаққулов И. Фазал гулшани. – Тошкент: «Фан», 1991. – 72 б.
105. Ҳаққулов И., Рафиддинов С. – Боқирғон китоби. – Тошкент: «Фан», 1991. – 385 б.
106. Ҳаққулов И. Ирфон ва идрок. –Тошкент: «Маънавият», 1998. – 160 б .
107. Ҳаққулов И. Тасаввуф сабоқлари. – Бухоро: «Бухоро давлат университети », 2000. – 142 б.
108. Ҳаққулов И. Ким нимага таянади. – Тошкент: «Зарқалам», 2006. – 144 б.
109. Ҳаққулов И. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: «Шарқ» , 2007. – 336 б.

110. Ҳаққұлов И. Эътиқод ва ижод. – Тошкент: «Фан», 2007. – 264 б.
111. Ҳаққұлов И. Навоийга қайтиш: 1-китоб. – Тошкент: «Фан», 2007. – 224 б.
112. Ҳаққұлов И. Мерос ва моҳият. Тошкент: «Тафаккур», 2008. – 190 б.
113. Ҳаққұлов И. Ижол иқлими. Тошкент: «Фан», 2009. – 388 б.
114. Ҳаққұлов И. Мушоҳада ёғдуси. Тошкент: «Фан», 2009. – 384 б.
115. Ҳаққұлов И. Навоийга қайтиш: 2-китоб. – Тошкент: «Фан», 2011. – 200 б.
116. Ҳаққұлов И. Шахсият ва шеърият. – «Т.Низомий номидаги ТДПУ», 2014. – 115 б.
117. Ҳаққұлов И. Навоийга қайтиш: 3-китоб. – Тошкент: «Тафаккур», 2016. – 224 б.
118. Ҳаққұлов И. Очилов Э. Ишқ ва ҳайрат олами. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2016. – 304 б.
119. Ҳаққұлов И. Талант – жасорат жавҳари. – Тошкент: «Муҳаррир», 2018. – 284 б.
120. Ҳаққұлов И. Навоийга қайтиш: 4-китоб. – Тошкент: «Тафаккур», 2019. – 240 б.
121. Ҳаққұлов И. Ҳаёт, адабиёт ва агадият. – Тошкент: «Тафаккур», 2019. – 320 б.
122. Ҳаққұлов И. Мушоҳада ёғдуси II. – Тошкент: «Тафаккур», 2019. – 255 б.
123. Ҳаққұлов И. Касби камол ўзни танишдир. – Тошкент: «Yoshlar matbaa uyі», 2021. – 259 б.
124. Ҳаққұлов И. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: «Тафаккур», 2021. – 249 б.
125. Ҳожи Абдулғафур Рассоқ Бухорий. Тарикатга йўлланма. – Тошкент: «Моварауннахр», 2003. – 105 б.
126. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: «Шарқ», 2004. – 205 б

III Ilmiy to‘plam, jurnal va gazeta maqolalari

127.Mirzayev T.,Ochilov E. Iste’dod va mas’ullik// O’zbekiston adabiyoti va san’ati.Toshkent, 2009, 27 mart

128.Ҳайитметов А. Алишер Навоий ижодини ўрганишнинг методологик асослари ҳақида// «Ўзбек тили ва адабиёти», 2001, 2-сон, 3-14-бетлар.

129.Ҳайитметов А. Навоий ва замонамиз. Давра сұхбатлари// «Жаҳон адабиёти», 2002, феврал, 3-24-бетлар.

IV Dissertatsiya va avtoreferatlar

130. Қодирова Насима. Илмий-адабий тафаккур ва услуг мұаммолари (И.Хаққул ижоди мисолида) Филол. ф. б.Фалсафа докт.дисс...автореф. –Buxoro: 2021.–149 б .

131. Ҳаққулов И.Ч. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлиқ, образлар олами). Филол. фанл. докт. дис. – Тошкент, 1995. – 286 б.

V. Lug‘atlar

132. Фозилов Е. Алишер Навоий асарлари лугати. –Тошкент: «Нисо Полиграф» , 2013.Б – 1007.

VI. Internet saytlari

- 133. [www.kun.uz;](http://www.kun.uz)
- 134. [www.bilkent.edu.tr;](http://www.bilkent.edu.tr)
- 135. [www.literature/az;](http://www.literature/az)
- 136. [www.navoiy-uni.uz;](http://www.navoiy-uni.uz)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAYLIYEVA ZARINA RAXMIDDINOVNA

**NAVOIYSHUNOSLIKDA TASAVVUF VA BADIYAT
MUAMMOLARI TADQIQI**

“ FAN ZIYOSI ” nashriyoti

Litsenziya AI № 195, 15 dekabr 2023.

2023yil 16 dekabrga bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x90, TIMES TAD garniturasi,
8-shartli bosma taboq, soni 100 nusxa.

Duna poligraf bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Buxoro shahar Mustaqillik ko`chasi 28 uy

E-mail: ya.duna2012@yandex.ru duna_poligraf@bk.ru

ISBN 978-9910-744-22-8

KBK: 87.372(5Ўзб) S-14

UO'S: 385.375.623.24